

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 45
Часть-11_ Май -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Май - 2024 год

ЧАСТЬ - 11



О'ZBEKISTONDA MILLIY DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINING YANGI BOSQICHIGA KO'TARILISHI

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali
o'qituvchisi **Xakimov Jahongir Ne'matjon o'g'li***

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali
o'qituvchisi **Rasulova Shahnoza Abduvasi qizi***

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali
4-23 guruh talabasi **Parmonova Sevinch Latif qizi***

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimiz siyosiy hayotida yangilik bo'lgan har tomonlama mukammal va samarali boshqaruv tizimini yaratish – oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarishning asosiy shartlari va qilinga ishlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv, xalq, harakatlar strategiyasi, qabulxona, axborot.

Annotation: This article presents the main conditions and tasks for the creation of an all-round perfect and effective management system, which is a novelty in the political life of our country.

Key words: Management, people, action strategy, lobby, information.

Mamlakatimiz siyosiy hayotida yangilik bo'lgan bunday tadbir ilk bor 2017-yil 22-dekabrda o'tkazilgan edi. 2018-yilning 28-dekabrda esa ikkinchi Murojaatnoma taqdim etildi. Mazkur dasturiy ma'ruzalar chuqur mazmun va katta ahamiyatga egaligi, barcha sohalarga aloqadorligi bilan xalqimizda va hamkor mamlakatlarda katta qiziqish uyg'otgandi. "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz" kabi dasturlar doirasida joylarda 2 ming 600 dan ortiq biznes loyihalari amalga oshirilgan. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari natijasida 416 ta qishloq yangicha qiyofaga ega bo'lgan¹.

Buguni boshqaruv tizimi sifatini oshirishda "Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan asosiy tamoyilni amalda to'liq ta'minlash bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz zarur. Virtual va Xalq qabulxonalariga yiliga 1 milliondan ziyod murojaat kelib tushayotgani xalq bilan muloqotni yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi. Endi davlat idoralari rahbarlari va hokimlarning ushbu murojaatlarni qay darajada hal etayotgani bo'yicha hisobotini parlament va xalq deputatlari kengashlarida muntazam eshitish tizimi yo'lga qo'yiladi. Mahalliy byudjetlarning qo'shimcha daromadini taqsimlash, nafaqa oluvchilarni adolatli belgilash, ijro organlari rahbarlari ishiga baho berish bundan buyon Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojaatlar tahlili asosida amalga oshiriladi. Har

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi ma'ruzasi. 2017 yil 22 dekabr

bir deputat Xalq qabulxonalari bilan doimiy ishlab, o'z hududida yashayotgan aholi muammolarini yechishda faol ishtirok etishi, odamlarning dardu tashvishlarini tinglashi kerak. Shunda deputatlar o'z saylovchilariga bergan va'dalari ustidan chiqadi, xalqning ishonchini oqlaydi, mehrini qozonadi. Shunda men ham nafaqat Prezident, balki oddiy saylovchi sifatida sizlardan juda minnatdor bo'lar edim. Uchinchidan, biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovasiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik.

Davlat idoralari xalqqa, jumladan, tadbirkorlarga yaqin ko'makchi bo'lishi zarur. Davlatning boshqaruv sohasidagi ba'zi funksiyalarini davlat-xususiy sheriklik asosida jumladan, "outsorsing" shaklida xususiy sektorga topshirish lozim².

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

Yurtimiz "Xalqaro axborot kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi" bo'yicha 2019-yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat.

Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz? Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor. Davlat va jamiyat boshqaruvi,

² *Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak T: O'zbekiston 2017. – B 34*

ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir soʻz bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

Oxirgi uch yilda “Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun” degan tamoyil asosida, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash boʻyicha olib borayotgan keng koʻlamli ijtimoiy islohotlarni davom ettirilmoqda. Buning uchun birinchi navbatda aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish – biz uchun bosh vazifalardan biri boʻlib qoladi.

Har tomonlama mukammal va samarali boshqaruv tizimini yaratish – oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir.

Biz parlamentning qonun ijodkorligi, parlament nazoratini samarali tashkil etish mexanizmlari bilan bogʻliq barcha masalalarni kuni kecha Oliy Majlisda boʻlib oʻtgan uchrashuvlarda atroflicha va chuqur muhokama qilib oldik.

Shu bilan birga, quyidagi dolzarb masalalarga eʼtiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, joylarda ijro va vakillik organlarining davlat boshqaruvidagi roli va masʼuliyatini yanada oshirish zarur.

Hokimlar oxirgi 3 yilda ularga berilgan keng vakolatlardan qanchalik samarali foydalanayotganini, vazirlik va idoralarning hududiy tuzilmalari faoliyati natijadorligini nazorat qilish boʻyicha yangi tizim yaratish shart³.

Shu oʻrinda haqli savol tugʻiladi: nima uchun Bosh vazirdan boshlab barcha hukumat aʼzolari, viloyat hokimlari parlamentga hisobot beradi-yu, viloyat va tumanlardagi rahbarlar oʻz faoliyati haqida mahalliy kengashlarga hisobot bermasligi kerak? Shuning uchun viloyat va tuman hokimlari oʻz dasturlari va ularning ijrosi toʻgʻrisida viloyat kengashlarida hisobot beradigan tizim joriy qilinadi.

Ayni vaqtda farmonlar, qarorlar, konsepsiya va strategiyalarda belgilangan indikatorlar va maqsadli parametrlarning ijrosi boʻyicha hokimlar oʻz hududlaridagi ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikka muntazam axborot berib borishlari kerak boʻladi.

Ishning samarasini oshirish maqsadida mahalliy vakillik organlari faoliyatida Kengash soʻrovi institutini joriy etishni taklif qilaman.

Yana bir muhim masala. Amaldagi qonun hujjatlarida hokimliklarning 300 ga yaqin vazifa va funksiyalari nazarda tutilgan. Shundan 175 tasi, mazmun-mohiyatiga koʻra, hokimlarning asosiy vazifalari toifasiga kirmaydi va turli idoralarning funksiyalarini takrorlaydi. Bu esa, ish sifati va ijro intizomiga salbiy taʼsir koʻrsatishi tabiiy.

Shu sababli Oliy Majlis Senatiga, Adliya vazirligini jalb etgan holda, shu yilning birinchi yarmida hokimlarning vakolatlarini qayta koʻrib chiqish va ularga xos

³ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi maʼruzasi. 2020 yil 24 yanvar

bo'lmagan hamda bir-birini takrorlaydigan funksiyalarni tegishli organlarga o'tkazishni ta'minlash bo'yicha taklif tayyorlash topshiriladi.

Ikkinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bugungi kunda aholini o'ylantirayotgan muammolarga davlat idoralari e'tiborini qaratib, o'zlarining asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun mamlakat va hududlar darajasida nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklikni keng yo'lga qo'yib, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ko'paytirishimiz kerak. Vazirlik va idoralar ham bir chetda tomoshabin bo'lib o'tirmasdan, bunday ijtimoiy hamkorlik ishlarini kengaytirishi lozim. Shuning uchun Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining faoliyatini takomillashtirish dardkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bosagisida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent., 1997.
2. I.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent., 1999
3. Sh.Mirziyoyev. Erkin va obod, demokratik jamiyatni barchamiz birgalikda barpo yetamiz. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.-T.:“O'zbekiston” NMIU, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Harakatlar strategiyasidan 2017yil 7-fevral
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2019 yil
6. Sh.Mirziyoyev “Yangi O'zbekiston” Toshkent., 2019
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi nutqidan 2020 yil 22 yanvar
9. Sh.Mirziyoyev “Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi” “O'zbekiston” nashriyot Toshkent., 2020
10. Sh.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent., 2018
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O'zbekiston”, 2008;
12. Jo'rayev N.Tamaddunga da'vat (Prezident Sh.M. Mirziyoyevning jadal taraqqiyot strategiyasi haqida mulohozalar). Toshkent. “O'zbekiston”. 2018.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA OT SO'Z TURKUMI

*Xusanboyeva Odina
Shamsiddinova Maxliyo*

Maxmudova Shalola

*Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim
1-kurs talabalari.*

Shamsiddinovsamandar7@gmail.com

91-126-13-80

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga ot so'z turkumini o'rgatish haqida bo'lib. Ot so'z turkumiga oid turli olimlar fikrlari turli adabiyotlardagi ot so'z turkumi haqidagi ma'lumotlar asosida ochib berilgan. O'quvchilarning ham nutq qobiliyatining ham to'g'ri fikirlash qobiliyatini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Kalit So'zlar: So'z turkumlarini o'rgatish mohiyati, ot so'z turkimini o'rgatish, tushuncha, ona tilini shakllantirish, ot so'z turkimini vazifalari,

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена преподаванию существительных учащимся начальных классов и раскрывается на основе мнений разных ученых о существительных и информации о существительных в различной литературе. Он служит развитию способности учащихся правильно говорить и думать.

Ключевые слова: Сущность обучения лексике, обучение именной лексике, понятие, формирование родного языка, задачи именной лексики.

ANNOTATION

This article is about teaching nouns to primary school students, and it is revealed based on the opinions of different scientists about nouns and information about nouns in various literature. It serves to develop the ability of students to speak and think correctly.

Key words: The essence of teaching vocabulary, teaching noun vocabulary, the concept, forming the mother tongue, tasks of noun vocabulary.

Boshlang'ich sinf sinflar kesimida dasturda belgilangan bilim, ko'nikma va malakaga erishishda asos, poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli barcha fanlardan dastlabki boriladi. Jumladan, tushunchalar ta'lim tizimida boshlang'ich ona tili sinfdan asosiy shakllantirib fanlardan biri sanaladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili eng kerakli fanlardan biri sifatida Davlat Ta'lim Standarti asosida o'qitiladi. So'z turkumi ona tilining muhim tayanch tushunchalaridan biridir. Tilimizdagi so'zlar, ulardagi umumiy anglashilayotgan ma'no, grammatik kategoriyalar, so'zdagi o'ziga xos bo'lgan

o'zgarish, shakl va so'z yasalishi sintaktik vazifalar jamlanganligi mavjudligiga ko'ra ajratiladigan xurujlar so'z turkumi hisoblanadi. So'z turkumlarining nima ekanligi, nimaga ko'ra turlarga ajralishi va turlari haqidagi tushunchalar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarsiz bo'lib, birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Shu sababli boshlang'ich sinflar o'quv dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan aynan tanishtirishni maqsad qilmaydi., ammo so'z turkumlariga xos boshlang'ich tushunchalarni shakllantirib boradi. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilar fikrlashini, nutqini o'stirish, so'z boyligini yangi ot, sifat, son, fe'l so'z turkumiga oid so'zlar bilan boyitish, o'quvchilar shu paytgacha ishlatgan so'zlarning ma'nosini to'liq anglashga erishish, so'zlarni o'z o'rnida qo'llashni o'rgatish hisoblanadi. Ot mustaqil so'z turkumi bo'lib, Kim? Nima? Qayer? so'roqlariga javob bo'ladi. Ot so'z turkumi predmetning nomini bildirib keladi. Ot mavzusini o'rganish aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, so'z turkumining umumiy ma'nosi, grammatik shakllari to'liq, izchil, o'zaro ilmiy asoslangan holda o'rganiladi, o'tni nutqda to'g'ri qo'llash va to'g'ri yozish malakasini rivojlantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta-sekin osondan qiyinlashib boradi. Til hodisasida ot so'z turkumining o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, material hajmi, izchillik kasb etgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ot so'z turkumini o'rganishi kerak bo'lgan vazifalar quyidagicha:

1. O'tning grammatik ma'nosini shakllantirish.
2. O'tning qanday so'roqlarga javob bo'lishi.
3. Ot so'z turkumining yozilishi (Kishilar ismi bosh harf bilan yoziladi)
4. O'tning birlik va ko'plikda qo'llanishi haqida ma'lumot berish
5. Egallik kategoriyasi bilan o'tni to'g'ri qo'llashni o'rgatish
6. Oltita kelishik bilan tanishtirish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olish va ularni ot bilan to'g'ri bog'lashni tushuntirish.
7. O'quvchilarni otga oid so'zlar bilan tanishtirish orqali so'z boyligini oshirish va ot so'z turkumini nutq jarayonida to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.
8. So'zlarni tahlil orqali qiyoslash, jamlashni bilish.

Ushbu vazifalar bir-biridan ajralgan holda emas, bir-birini to'ldirgan holda hal qilinadi. Ot so'z turkumi Boshlang'ich sinflarda muayyan bosqichlarga bo'lingan holda o'rgatiladi. Har bosqichda vazifaning biri hal qilinadi. Jumladan, 1-2-sinflarda sodda usulda, o'tning nimani ifodalashi, so'rog'i o'rganiladi. 3-sinfda ot so'z turkumi deb o'rgatiladi, birlik va ko'plikda qanday qo'llanilishi haqida tushuncha beriladi. 4-sinfda biroz murakkab vazifalar hal etiladi: otlardagi turlanish, egallik qo'shimchalari, kelishik qo'shimchalari va ularning qo'llanilishi o'rgatiladi. Kurinib turibdiki, ot so'z turkumini biz bosqichma -bosqich o'quvchilar yoshiga mos tarzda o'rgatib boramiz.

Ot soʻz turkumiga oid dastlabki tushunchalar berish savod oʻrgatish davrida boshlanadi. Masalan: Ota, ona, ayiq, non kabi soʻzlarni yozishni oʻrgatamiz va bu orqali oʻquvchi ongida otga oid maʼlumotlar bazasi shakllanib boradi. Otni oʻrganishdagi vazifalar birin-ketin hal qilinadi ekan, mavzu boʻyicha boʻyicha bajarilishi lozim boʻlgan mashqlar va topshiriqlar ham bir muncha murakkablashadi. Bu esa oʻqituvchidan kuchli bilim va pedagogik mahoratni talab qiladi. 4-sinf oʻquvchilari matndagi soʻzlardan, ot soʻz turkumidagi soʻzni topa olishi, unga toʻgʻri soʻroq bera olishi kerak. Bundan tashqari, ot deb qaysi soʻz turkumining aytilishi, uning birlik - koʻplikda qoʻllanishi, egalik va kelishik qoʻshimchalari bilan bogʻlanishini bilishi kerak. Shu mavzuga oid mashqlar, topshiriqlar ham oʻqituvchi tomonidan toʻlaqonli tushuntiriladi va oʻquvchi bajaradi. Tushunmovchilik va shu kabi muammolar oʻqituvchi koʻmagida hal qilinadi. Bu oʻquvchining materialni puxta oʻzlashtirishni taʼminlaydi. Ot oʻziga xos xususiyatga ega.

Bunga koʻra boshqa soʻz turkumlaridan farq qiladi. Bular quyidagilar:

1. Ot yasaladi: guldon, partadosh, oʻchirgʻich.
2. Birlik va koʻplikda qoʻllanadi: kitob-kitoblar, gul-gullar.
3. Egalik bilan qoʻllanadi: uka-ukam, ona-onang, oʻgʻil-oʻgʻlim va hokazo
4. Kelishik qoʻshimchalarini oladi: uyda, mening, oyimni, koʻchadan
5. Gapda barcha sintaktik vazifada kela oladi.

Otlar maʼnosiga koʻra 2 ga atoqli va turdosh otga boʻlinadi. Atab qoʻyilgan otlar atoqli otlar sanaladi va doim bosh harfda yoziladi: Anvar, Qashqadaryo, Yupiter. Bir turdagi narsalarning umumiy nomini bildiruvchi otlar turdosh otlar hisoblanadi: kitob, sumka, daraxt. Ot son, egalik va kelishik kabi grammatik kategoriyalarga ega. Ot soʻz turkumi tuzilishiga koʻra toʻrtga boʻlinadi:

1. Sodda ot-bir asosdan tashkil topgan otlar: gulchi, bahor
2. Qoʻshma ot-ikki va topgan: qoʻziqorin, qoʻlqop, beshiktebratar undan ortiq asosdan tashkil
3. Juft ot-oʻzaro maʼnodosh yoki qarama-qarshi maʼnoli asosdan tashkil topgan ot: ota-ona, aka-uka, doʻst-dushman
4. Takroriy ot-aynan bir asosning takrorlanishi, yoki fonetik oʻzgarish bilan takrorlanadigan otlar: uy-puy, xola-xola

Ot uch xil usulda yasaladi: 1. Affikatsiya: bogʻbon 2. Kompozitsiya: Markaziy Osiyo 3. Abbreviatsiya: BMT Otning kichraytirish, shaxsiy munosabat shakllari kabi xususiy shakllari mavjud. Bulardan kichraytirish -erkalash shakllari: (-cha, -gina, - (a)loq). Shaxsiy munosabat shakllari: (-jon, -xon, -oy, -bonu) shakllari boʻlib, erkalash, suyish maʼnolarida keladi. Otlarda muhim belgilar mavjud boʻlib, ulardan biri sifat, son, feʼl va ravish distributsiyasida keladi va birikadi: Kichik bino, birinchi sinf, hamma odam, sheʼr oʻqimoq, koʻp xalq. Otlar ismlar guruhidagi soʻzlar hisoblanadi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI

Ot gapda boshqa soʻzlar bilan bogʻlanganda qoʻshimchalar bilan oʻzgarishi ancha oldindan kuzatilib boriladi. Chunki, oʻquvchilar 1-sinfdayoq soʻz formalarining oʻzgarishi bilanamaliy tanishadi, ammo ular soʻz formasi nimaligini hali bilmaydi. Bolalar keyingi sinfda forma yasovchi (soʻz oʻzgartuvchi) qoʻshimchalar bilan tanishadi, bu qoʻshimchalar gapda soʻzlarni bogʻlash uchun xizmat qilishi tushunib boradi. III sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik formalaridan ongli foydalanish vakelishik qoʻshimchalarini toʻgʻri yozishga oʻrgatish hisoblanadi. Bu sinfda ot quyidagi izchillikda oʻrganiladi: 1.otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish;2.koʻplikdagi otlarning turlanishini oʻrgatish; 3.har bir kelishikning xususiyatlarini alohida oʻrganish va u bilan bogʻliq holda kelishik qoʻshimchalarining yozilishi haqida koʻnikma hosil qilish.

Xulosa oʻrnida shuni aytamizki,ona tili fani boshlangʻich sinflar uchun asosiy fanlardan biridir.Yetarli bilim egallashda ona tili fani tayanch fanlardan biri boʻlib xizmat qiladi.Soʻz turkumlarini oʻrganish jarayonida oʻquvchi soʻzlarni farqlaydi,toʻgʻri soʻroq beroladi, nutqi rivojlanadi.Soʻzlarni gapda toʻgʻri qoʻllash,qoʻshimchani toʻgʻri qoʻllay olish kabi bilimlarga ega boʻladi.Toʻgʻri talaffuz qilish va toʻgʻri yozish malakalari ham yaxshi rivojlanadi.Soʻz turkumlarini dasturga muvofiq oʻrgatish maqsadiga erishilgan taqdirdagina, ona tili fanining asosiy tayanch poydevorini quramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabr “2030 yilgacha boʻlgan davrda Oʻzbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoni. //Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 31 oktabr
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434 sonli qarori.//Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 28 may
3. Karimov I. A. Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.T., 1997, -110-133 b.
4. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR:Asian Journal of Multimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).
5. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANGʻICH SINFLARDA RIVOJLANTIRUVCHI TAʼLIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. Апробация, (2), 93-94.
6. Мухтарова, Л. А. (2017). BOSHLANGʻICH TAʼLIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TAʼLIM TEXNOLOGIYALARINING OʻRNI. НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 119-120).
7. Mukhtarova, L. A. (2021). THE USE OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF A CULTURE OF

ENVIRONMENTAL SAFETY. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(10), 792-797.

8. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2021). POSSIBILITIES OF AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE FORMATION OF A CULTURE OF ENVIRONMENTAL SAFETY. European Scholar Journal, 2(11), 43-44.

9. Muxtarova, L. A. (2021). Ways of formation of ecological culture in children of primary age. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(4), 648-652.

10. Muxtarova, L. A. (2021). Use of multimedia technologies in the educational process. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1781-1785.

11. Мухтарова, Л. А. (2018). Пути Использования Возможностей Мультимедиа В Повышении Качества И Эффективности Уроков Чтения В Начальных Классах. Научные горизонты, (11-1), 247-252. 12. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие И Формирования Критического Мышления У Школьников Начальных Классов. Гуманитарный трактат, (24), 13-14. 13. Мухтарова, Л. А. (2018). Развитие творческого мышления у школьников начальных классов. Гуманитарный трактат, (24), 9-10.

14. Kulmuminov, U., & Mukhtarova, L. (2023). POSSIBILITIES OF CREATIVE THINKING AND ITS MANIFESTATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. Open Access Repository, 4(02), 81-84.

15. Abdimannabovna, M. L. (2022). Opportunities for an Interdisciplinary Integrated Approach to Improving the Culture of Environmental Safety. Eurasian Scientific Herald, 7, 7-12.

16. Munzifa Tangirova, & Lobar MUKHTAROVA. (2023). WAYS OF READING LITERACY DEVELOPMENT IN PRIMARY SCHOOL PUPLS. European Scholar Journal, 4(2), 88-89. Retrieved from

17. Lobar Mukhtarova, & Shahnoza Isakova. (2023). METHODOLOGY OF SPEECH DEVELOPMENT OF VISUALLY IMPAIRED STUDENTS. Academia Repository, 4(10), 360–371. Retrieved from

18. Mukhtarova Lobar Abdimannabovna, & Saidakhmatova Nafisa Soatmurod kizi. (2023). DEVELOPMENT OF READING UNDERSTANDING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. Academia Science Repository, 4(04), 18–22. Retrieved from

19. Nafisa Saidakhmatova, & Lobar Mukhtarova. (2023). THE SIGNIFICANCE OF A ARTWORK IN THE FORMATION OF LEARNING SKILLS. Academia Science Repository, 4(04), 176–180. Retrieved from

20. Pardayeva Gulbahor Jalgashevna, & Mukhtarova Lobar Abdimannabovna. (2023). PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING NATURAL SCIENCES BASED ON STEAM TECHNOLOGY. World Bulletin of Social Sciences, 21, 109-111. Retrieved from

ТА'ЛИМ ЖАРAYONIDA O'QUVCHILARNING ТА'ЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ВА САМАРАДОРЛИГИГА ЕРИШИШ

*Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumani
2- son kasb hunar maktabi
Maxsus fan o'qituvchisi Sattarov Umid Temirovich.
Umirov Ravshan Hayitmurotovich.
To'rayev Azamat Abdulamitovich.
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Raxmatova Gavhar Mo'minovna.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonlari samaradorligini oshirish yo'llari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, interfaol uslublar, kommunikativ faoliyat.

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilim, faoliyat, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni kasbiy mahoratga aylanishini ta'minlash maqsadida o'quv tarbiya jarayonida interfaol metodlardan foydalanish davr taqozosi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Hozirgi kunda o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish, uning mazmun mohiyatini bilish, uni ta'lim jarayoniga tadbiiq qilish va metodikasini yaratish juda muhimdir. Pedagogik kadrlarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ularning metodik tayyorgarligini shakll antirish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish mazkur jarayonning samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi. Innovatsiya inglizcha so'zdan olingan bo'lib yangilik kiritish, yangilik degan ma'nolarni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullaridan foydalanadi. Interfaol- bu o'zaro, harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. O'qitishning interfaol usulubiyotlari bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda o'qituvchining o'rne qisman o'quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bundan pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga o'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etilishi, o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga bo'lgan qiziqishlarini domiyiligini ta'minlanishi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini

mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi, pedagogik va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi. Ana'naviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonini oqilona tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi. Interfaollikning ta'minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedaning muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta'lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. "Metod" — yunoncha "metodos" – "yo'l" degan so'zdan paydo bo'lib, u, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir. Ta'lim metodlari - o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi. O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir. Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir. Ta'lim materialini ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. Pedagogik qarashlarda nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi. Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning zamonaviy, samarali metodlarini ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi. Shu sababli ham ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi: 1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq,

xulqatvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak. 2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan aniq va ravshan asoslangan bo'lishi lozim. 3. Ta'lim metodlarining tizimliliigi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi. 4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab - ularning tushunarli bo'lishi. 5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish. 6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri – bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishi. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim olish jarayonida ta'lim metodlari, vositalari va ularni to'g'ri va o'rinli qo'llash muhim ahamiyatga ega. Va ular ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon, "Xayot" 2001 y R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004 y
2. M.To'xtaxo'jayeva "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2010 y 3. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017
4. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference.

IQTISODIYOTNING REAL SEKTORINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI

Tuhtanazarov Javlonbek Abdunazarovich

Buxoro shaxar, Yangiobor MFY, G'ijduvon ko'chasi,

74 - uy Telefon: +998992268485

Osiyo Xalqaro Universiteti. Iqtisodiyot

Annotatsiya. Ushbu maqola iqtisodiyotning Real sektorini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishlarini o'rganib chiqadi, bunda texnologik taraqqiyot, barqaror amaliyot va siyosat asoslariga e'tibor qaratiladi. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish va aralash tadqiqot usullarini qo'llash orqali tadqiqot asosiy tendentsiyalarni aniqlaydi va manfaatdor tomonlar uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Real sektor, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya, barqarorlik, texnologiya, siyosat, sanoat.

Barqaror iqtisodiy o'sish uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan tarmoqlarni qamrab oluvchi iqtisodiyotning real sektori juda muhimdir. Tez texnologik yutuqlar va ekologik muammolarning kuchayishi sharoitida ushbu sohada innovatsiyalarga ehtiyoj katta. Ushbu maqola Real sektorning rivojlanishiga turtki beradigan, uning raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlaydigan innovatsion strategiyalarni aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan.

Mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqish real sektorni rivojlantirishda bir nechta asosiy mavzularni ochib beradi. Birinchidan, Internet of Things (IoT), sun'iy intellekt (AI) va big data analytics kabi sanoat 4.0 texnologiyalarini qabul qilish mahsuldorlik va samaradorlikni oshirishda va'da berdi. Ikkinchidan, barqaror amaliyotlar, shu jumladan yashil ishlab chiqarish va dumaloq iqtisodiyot modellari tobora uzoq muddatli hayotiylik uchun muhim deb tan olinmoqda. Uchinchidan, qo'llab-quvvatlovchi siyosat asoslari va davlat-xususiy sheriklik innovatsiyalarning muhim omili sifatida belgilangan.

Tadqiqotda miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilishni sifatli amaliy tadqiqotlar bilan birlashtirgan aralash usulli yondashuv qo'llaniladi. Miqdoriy ma'lumotlar tendentsiyalarni aniqlash va innovatsion amaliyotlarning ta'sirini o'lchash uchun sanoat hisobotlari, iqtisodiy ma'lumotlar bazalari va bozor tadqiqotlaridan olinadi. Sifatli ma'lumotlar soha mutaxassislari, siyosatchilar va biznes rahbarlari bilan suhbatlar orqali to'planib, ushbu yangiliklarning amaliy tatbiq etilishi va muammolari to'g'risida tushuncha beradi.

Ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va tog' - kon sanoati kabi sohalarni qamrab oladigan iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishlari

sezilarli o'sish va raqobatbardoshlikka olib kelishi mumkin. Bu erda ba'zi asosiy innovatsion yo'nalishlar:

Raqamli transformatsiya va sanoat 4.0

- Avtomatlashtirish va robototexnika: ishlab chiqarish va boshqa sohalarda samaradorlik, aniqlik va samaradorlikni oshirish uchun ilg'or robototexnika va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish.

- Internet of Things (IoT): Real vaqtda monitoring va bashoratli parvarishlash orqali ma'lumotlarni to'plash va operatsiyalarni optimallashtirish uchun IoT qurilmalaridan foydalanish.

- Katta ma'lumotlar va tahlillar: ma'lumotli qarorlar qabul qilish, ta'minot zanjiri boshqaruvini yaxshilash va mijozlar tajribasini oshirish uchun katta ma'lumotlar tahlilidan foydalanish.

- Sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish (ML): bashoratli tahlil, sifat nazorati va aqlli ishlab chiqarish tizimlarini ishlab chiqish uchun AI va ML ni qo'llash.

Barqaror rivojlanish va yashil texnologiyalar

- Qayta tiklanadigan energiya integratsiyasi: sanoat operatsiyalarini quvvatlantirish uchun quyosh, shamol va biomassa kabi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni ko'paytirish.

- Doiraviy Iqtisodiyot: atrof-muhitga ta'sirini minimallashtiruvchi yopiq tizim yaratish uchun qayta ishlash, chiqindilarni kamaytirish va materiallarni qayta ishlatishga ko'maklashish.

- Ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlari: chiqindilarni kamaytiradigan, suvni tejaydigan va zararli kimyoviy moddalardan foydalanishni kamaytiradigan jarayonlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

Ilg'or materiallar va nanotexnologiya

- Yuqori samarali materiallar: turli xil sanoat ilovalarida foydalanish uchun yuqori xususiyatlarga ega (masalan, mustahkamlik, chidamlilik, issiqlikka chidamlilik) materiallarni yaratish.

- Nanomateriallar: mahsulot ish faoliyatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va elektronika, tibbiyot va energetikada yangi funksiyalarni yaratish uchun nano o'lchovdagi materiallardan foydalanish.

Qo'shimcha ishlab chiqarish (3D bosma)

- Prototiplash va ishlab chiqarish: tez prototiplash va moddiy chiqindilar kamaytirilgan murakkab, moslashtirilgan qismlarni ishlab chiqarish uchun 3D bosib chiqarishdan foydalanish.

- Ta'minot zanjirini o'zgartirish: mahalliyashtirilgan, talab bo'yicha ishlab chiqarishni ta'minlash orqali an'anaviy ta'minot zanjirlariga bog'liqlikni kamaytirish.

Biotexnologiya va bioinjeneriya

- Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi: genetik muhandislik va boshqa biotexnologik usullar yordamida ekinlar hosildorligini, zararkunandalarga chidamliligini va ozuqaviy qiymatini oshirish.

- Sanoat biotexnologiyasi: kimyoviy moddalar, bioyoqilg'i va materiallarni ishlab chiqarishda biologik jarayonlardan foydalanish, bu an'anaviy usullarga qaraganda barqarorroq bo'lishi mumkin.

Aqlli infratuzilma va urbanizatsiya

- Aqlli shaharlar: shaharsozlik, energiya boshqaruvi va transport tizimlarini takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanadigan aqlli shahar infratuzilmasini rivojlantirish.

- Moslashuvchan infratuzilma: innovatsion dizayn va materiallar orqali iqlim o'zgarishi ta'siriga va tabiiy ofatlarga bardosh bera oladigan infratuzilmani qurish.

Moliyaviy Yangiliklar

- Blockchain va Cryptocurrencies: savdo va investitsiyalarda yangi moliyaviy modellar uchun xavfsiz, shaffof operatsiyalar va cryptocurrencies uchun blockchain-dan foydalanish.

- Fintech echimlari: moliyaviy xizmatlarni yaxshilash, kapitalga kirishni yaxshilash va operatsiyalarni soddalashtirish uchun fintech innovatsiyalarini qabul qilish.

Inson Kapitalini Rivojlantirish

- Upskilling va Reskilling: ishchi kuchini rivojlanayotgan texnologiyalar va sohalar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlash uchun ta'lim va o'quv dasturlariga sarmoya kiritish.

- Hamkorlikdagi innovatsion ekotizimlar: yangi texnologiyalarni tadqiq etish, rivojlantirish va tijoratlashtirish uchun sanoat, akademiya va hukumat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

Globalashuv va savdo

- Xalqaro hamkorlik: texnologiyalarni uzatish, tadqiqot bo'yicha hamkorlik va yangi bozorlarga chiqish uchun global hamkorlik qilish.

- Savdoni osonlashtirish: savdo jarayonlarini soddalashtiradigan va xalqaro tijoratdagi to'siqlarni kamaytiradigan siyosat va texnologiyalarni amalga oshirish.

Siyosat va tartibga soluvchi Yangiliklar

- Qo'llab-quvvatlovchi tartibga solish: xavfsizlik, maxfiylik va atrof-muhitni muhofaza qilishda innovatsiyalarni rag'batlantiradigan me'yoriy-huquqiy asoslarni ishlab chiqish.

- Rag'batlantirish va subsidiyalar: tadqiqot va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash uchun moddiy rag'batlantirish, grantlar va subsidiyalar berish va yangi texnologiyalarni qabul qilish.

Ushbu innovatsion yo'nalishlarga e'tibor qaratish orqali iqtisodiyotning real sektori samaradorlik, barqarorlik va barqarorlikni oshirishi va shu bilan uzoq muddatli iqtisodiy o'sish va rivojlanishni boshqarishi mumkin.

Topilmalar shuni ko'rsatadiki, texnologik yutuqlar va barqaror amaliyotlar katta foyda keltirsa-da, ularni qabul qilish ko'pincha yuqori boshlang'ich xarajatlar va o'zgarishlarga qarshilik bilan to'sqinlik qiladi. Shuning uchun nafaqat texnologik yangilanishlarni, balki tashkiliy o'zgarishlarni va mahoratni rivojlantirishni ham o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuv talab etiladi. Siyosatchilar, shuningdek, qo'llab-quvvatlovchi Qonunchilik va ta'lim va infratuzilmaga investitsiyalar orqali qulay muhit yaratishda faol rol o'ynashi kerak.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, Real sektorni innovatsiyalar orqali rivojlantirish iqtisodiy raqobatbardoshlikni saqlash va barqaror o'sishga erishish uchun juda muhimdir. Tadqiqot manfaatdor tomonlar uchun quyidagi qadamlarni taklif qiladi:

- 1) Texnologiyaga sarmoya kiritish: moliyaviy rag'batlantirish va texnik yordam ko'rsatish orqali korxonalarni sanoat 4.0 texnologiyalariga sarmoya kiritishga undash.
- 2) Barqaror amaliyotni targ'ib qilish: yashil ishlab chiqarish jarayonlari va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qabul qilish tarafdori.
- 3) Siyosatni qo'llab-quvvatlash: innovatsiyalarni osonlashtiradigan qo'llab-quvvatlovchi siyosatni amalga oshirish, shu jumladan tadqiqot va ishlanmalar uchun soliq imtiyozlari va barqaror amaliyot uchun subsidiyalar.
- 4) Ta'lim va o'qitish: ishchi kuchini yangi texnologik landshaft uchun zarur ko'nikmalar bilan jihozlash uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish.
- 5) Davlat-xususiy sheriklik: innovatsiyalarni rivojlantirish va umumiy muammolarni hal qilish uchun hukumat, sanoat va ilmiy doiralarda o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

Ushbu tavsiyalarga amal qilgan holda, manfaatdor tomonlar real sektorning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishi, kengroq iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga hissa qo'shishi mumkin.

Adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ4947-сонли Фармони билан тасдиқланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ4947-сонли Фармони билан тасдиқланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегияси.

3. Повышение капитализации акционерно-коммерческого банка: монография / И.Б. Турсунов. - Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. 104 С.
4. Повышение капитализации акционерно-коммерческого банка: монография / И.Б. Турсунов. - Т.: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. 104 С
5. Повышение капитализации акционерно-коммерческого банка: монография / И.Б. Турсунов. - Т.: Инновацион ривожланиш нашриётматбаа уйи, 2020. 104 С.
6. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/b52/Monetary-Policy->

YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA MAMLAKATIMIZ YOSHLARINING O'RNI

Akramov Tofiqbek Mirg'olib o'g'li
IIV Akademiyasi 2-bosqich kursanti
Ramazanova Sabina G'ayrat qizi
IIV Akademiyasi 2-bosqich kursanti

ANNOTATSIYA

Maqolada yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda yoshlarning yurtimizda yaratilib berilayotgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanayotganliklari tahlil qilingan. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yoshlar tarbiyasidagi o'rni ochib berilgan. Buyuk ajdodlarimiz qarashlaridagi komil inson g'oyasining tarixiy-falsafiy talqiniga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, yangi O'zbekiston sharoitida barkamol avlodni tarbiyalashning ma'naviy, huquqiy asoslari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: yangi O'zbekiston, yoshlarga oid davlat siyosati, ma'naviyat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, uchinchi Renessans, komil inson.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется, насколько молодые люди используют возможности, созданные в нашей стране на основе основных направлений молодежной политики в условиях нового Узбекистана. Выявлена роль повышения правовой культуры в обществе в воспитании молодежи. Особое внимание уделено историко-философской интерпретации идеи совершенного человека в представлениях наших великих предков. Также раскрыты морально-правовые основы воспитания зрелого поколения в условиях нового Узбекистана.

Ключевые слова: новый Узбекистан, молодежная политика, духовность, правосознание, правовая культура, третье Возрождение, совершенный человек.

KIRISH

O'zbekiston – yoshlar mamlakati. 36 millionlik O'zbekistonda, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 65 foiz aholini tashkil qiladi. Ya'ni har uch o'zbekistonlikning ikki nafari hali 30 ga kirmagan. Qolaversa, O'zbekistonda tug'ilish va demografik o'sish salmog'i ham ancha katta. Har yili 900 mingdan ortiq bola tug'iladi. Sof demografik o'sish esa, 670 mingdan oshadi. Demak, har ikki yilda, O'zbekiston aholisi, bir million 200 mingdan ko'proqqa oshadi. Tashqi dunyo bilan o'lchaganda, O'zbekistonda yoshlar juda katta qatlamni tashkil qiladi. Aynan shu qatlam bugungi kunda har sohada, har jabhada O'zbekiston bayrog'ini jahon minbarlarida balandlarga ko'tarib kelmoqdalar. Siyosatshunos Kamoliddin Rabbimov aytganidek: "Yoshlar –

jamiyatning energiyasi hisoblanadi. Kelajakni tasavvur qilmoqchi bo'lsangiz, yoshlarning ongiga qo'l solib ko'rish kifoya qiladi.”

Xo'sh, shu qadar ko'pchilikni tashkil etuvchi bu qatlamning o'rni bugungi kunda qanday va qay darajada?

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari huzuridagi Yoshlar parlamentlari, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil qilindi. Respublikaning barcha hududlarida “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom tarbiyalanishi, sifatli ta'lim olishi, xorijiy davlat yoshlari bilan tengma-teng bellasha olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladigan “besh muhim tashabbus” joriy etildi.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari — “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 18-yanvar kuni “O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to'g'risida”gi qarori imzolandi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan xayotimizda ro'y berayotgan yuksalish jarayonlari o'zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Shular orasida zamonamiz yoshlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida quyidagi fikrlarni bildirgan edi: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat “.

Shu o'rinda yana bir narsaga e'tibor berdigan bo'lsak, qachonki ta'lim to'g'risida fikr yuritsak, albatta tarbiyani ham eslaymiz. Azaldan ta'lim va tarbiya bir-birini to'ldirib turadigan tushunchalar sifatida o'rganilgan. Ya'ni, bu ikki tushuncha yagona va uzviy jarayondir. Tarbiya bor joyda, albatta ta'lim ham bo'ladi. Lekin bu masalada

boshqacha qarashlar ham bor: “Tarbiya oiladan, ta’lim ta’lim muassasasidan olinadi” kabi. Mening nazarimda, qanday ta’lim muassasasi bo’lmasin, barcha ta’lim muassasasi o’qituvchisi ham o’z o’rnida, tarbiyachidir. Nafaqat ta’lim dargohida, balki ko’cha-atrofdagi oilada ham. Chunki qadim davrlardan ham o’qituvchiga munosabat, e’tibor boshqacha bo’lgan. Zero, “Ustoz otangdek ulug’”

МУХОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

“Qanchalik qiyin bo’lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo’yicha o’zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg’unchi va zararli g’oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo’lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’alarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz”-deya ta’kidlagan yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev.

So’nggi yillarda milliy ta’lim tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu o’zgarishlarni quyidagilarda ko’rish mumkin.

1. Maktabgacha ta’lim tizimi tubdan o’zgarmoqda. Alohida vazirlik tashkil qilindi. Ilgari maktabgacha ta’lim muassasalari Xalq ta’limi vazirligi tasavvurida edi. Ushbu vazirlik respublikamizdagi eng katta vazirlik hisoblanardi. Bolalar bog’chalari, 10 mingga yaqin maktab, pedinstitutlar, pedkollejlari va x.z. Maktabgacha ta’lim qamrovi taxminan 17-18 foizni tashkil qilardi. 2021 yil yakuni bilan maktabgacha ta’lim qamrovi 65 foizga, 2023 yil oxirida esa 75 foizga yetkazilishi, qo’shimcha 2 mingta nodavlat bog’cha tashkil etilib, xususiy sektor ulushi 25 foizga yetkazildi.

2. Oliy ta’lim muassasalari soni salkam uch marta ko’payib, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga yetgani zamonaviy ilm va kasb sohalarini egallashda yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ta’lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o’quv dasturlari, o’qituvchi va domlalar uchun uslubiy qo’llanmalarni ilg’or xalqaro mezonlarga moslashtirish ishlari bajariladi.

3. Oxirgi uch yilning o’zida 250 ming nafar yoshga 6 trillion so‘mdan ziyod imtiyozli kreditlar ajratildi. Mamlakatimiz bo’yicha 210 ta “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini” tashkil etilib, 4 trillion so‘mlik 2,5 mingta loyiha amalga oshirildi. Natijada, yosh tadbirkorlar soni 2 karra ko’payib, 200 mingdan oshdi.

4. Respublikamizdagi barcha mahallalarda prezident vakili yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, bu vazifaga intiluvchan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega, tashabbuskor yoshlar saralab olindi. Mahallada bu tizim orqali yoshlarga 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratildi. “Yoshlar daftari” tizimi yo‘lga qo‘yilib, so‘nggi ikki yilda 798 ming nafarga yaqin yoshlarga qariyb 1 trillion so‘mlik yordamlar ko‘rsatildi.

5. Jumladan, 53 ming nafar ehtiyojmand oilaga mansub talabaga o‘qish uchun kontrakt pullari to‘lab berildi. O‘tgan davr mobaynida yoshlarning ijtimoiy himoyasini

ta'minlash va ularni ijtimoy, iqtisodiy, huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

6. Yurtimiz yoshlari yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, turli sohalarda dastlabki yutuqlarni qo'lga kiritmoqdalar. O'zbekistonlik o'quvchilar o'tgan yili xalqaro fan olimpiadalarida 7 ta oltin, 36 ta kumush va 38 ta bronza medalini qo'lga kiritdilar. Yosh sportchilarimiz esa xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, bu yil 247 ta oltin, 119 ta kumush, 110 ta bronza medal sohibiga aylandilar. Keyingi yillarda Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shib kelayotgan ana shunday yoshlarning 758 nafari davlat mukofotlariga sazovor bo'ldilar.

Bu dunyoda barcha katta va kichik narsalarning o'z himoya qobig'i mavjud. Yer sayyorasining himoya qobig'i atmosfera qobig'i hisoblansa, kichik olmaning ham po'stlog'i uning himoya qobig'i hisoblanadi. Oddiy olmaning po'stlog'i, ya'ni himoya qobig'i bo'lmasa, unga har qanday tashqi omillar ta'sir etishi mumkin. Savol tug'iladi: "Xo'sh, yangi O'zbekistonning kelajagi sanalgan yoshlarning himoya qobig'i nima?" Hech shubhasiz, bu himoya vositasi yoshlarimizning ma'naviyat darajasidir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'birlari bilan aytadigan bo'lsak: "Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir"

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kundagi yoshlarga qaratilayotgan e'tibor, yaratilayotgan imkoniyatlar kelajagimiz tayanchi sanalgan yoshlar zimmasiga nafaqat ulkan qulayliklar, shu bilan birga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi. Zero, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod ongi va tafakkuriga singdirilgan milliy g'oya har qanday yot g'oyalarning ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab-avaylashga undaydi. Ajdodlarimizdan yosh avlodga meros bo'lib qolgan an'ana va qadriyatlar, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlar, me'moriy obidalar va ularning xalqaro davlatlar orasidagi o'rni yoshlarimizning o'z maqsadlari tomon olg'a qadam bosishlari uchun turtki bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar bilan bog'liq muammolarni hal etishda milliy qadriyatlardan, ilg'or taraqqiyotga xizmat qiluvchi diniy qadriyatlardan foydalanish, ularni zamonaviy demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash masalasiga bugun yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Ayni paytda yoshlarni ma'naviy himoyalash tizimining mexanizimini ishlab chiqishga ham e'tibor qaratilmoqda. Chunki hozirgi globallashuv sharoitida, bir tomondan, milliy qadriyatga, ikkinchi tomondan, zamonaviy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy- huquqiy yangilish jarayonlarini amalga oshirish alohida dolzarb bo'lib qolmoqda. Shuningdek, Vatan hurligini chin dildan istagan va bu uchun o'z jonini ayamagan ota-bobolarimiz

zaminini asrab-avaylash har bir o'zbek o'g'loni, har bir o'zbek qizi uchun oliy maqsad hisoblanar ekan, ona Vatanimiz tinchligi, shoni-shuhrati uchun har narsaga tayyormiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyev.O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan nutqi. //Xalq so'zi №186 son.2020.
2. O'zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/3851>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.2020 yil 29 dekabr <https://www.youtube.com>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 – son farmoni “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlari ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida” Toshkent shahri, 2017 yil 5 iyul.
5. “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari” to'g'risidagi qonun. 1991 yil.
6. Karimov. I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. T.: “O'zbekiston”,1998.
7. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. T.: “O'zbekiston”,1998.

ВОЗМЕЩЕНИЕ УЩЕРБА, ПРИЧИНЕННОГО ЗАКЛЮЧЕННЫМИ, СБЕЖАВШИМИ ИЗ ИСПРАВИТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ

Кодиралиев Эльёрбек Мирзакалон угли

курсант 2- курса Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация: В данной научной статье рассматривается проблема возмещения ущерба, причиненного заключенными, сбежавшими из исправительного учреждения. Анализируются правовые и социальные аспекты данной проблемы, а также предлагаются пути ее решения.

Ключевые слова: возмещение ущерба, заключенные, исправительное учреждение, сбежавшие заключенные, ответственность.

В современном обществе проблема сбежавших заключенных из исправительных учреждений является актуальной и требует серьезного внимания. Одной из важных аспектов данной проблемы является вопрос о возмещении ущерба, причиненного обществу и гражданам данными заключенными. В данной статье мы рассмотрим правовые и социальные аспекты данной проблемы, а также предложим пути ее решения.

Возмещение ущерба зависит от степени причинения ущерба, например, материальный ущерб, причиненный владельцам имущества или физическим лицам, а также ущерб, причиненный обществу или государству.

Вопрос о возмещении ущерба, причиненного заключенными, сбежавшими из исправительного учреждения, регулируется законодательством. В большинстве стран законодательство предусматривает обязанность заключенных возместить причиненный ущерб. Однако, в практике возникают трудности с определением размера ущерба и его фактического возмещения. Необходимо разработать четкие правила и процедуры для определения и взыскания ущерба. Видами ущерба, могут быть:

1. Материальный ущерб: Включает в себя финансовые потери или повреждение имущества, которое может быть причинено при побеге заключенных. Например, это могут быть расходы на восстановление поврежденных объектов, утраченные ценности или другие материальные потери.

2. Моральный ущерб: Этот вид ущерба связан с психологическими последствиями для пострадавших, такими как страх, тревога, беспокойство или психологическая травма. Сбежавшие заключенные могут вызвать у общества и граждан чувство неуверенности и опасности.

3. **Общественный ущерб:** Побег заключенных может иметь отрицательное воздействие на общество в целом. Это может повлиять на общественную безопасность, вызвать беспокойство среди граждан и подорвать доверие к системе исполнения наказаний.

Важно учитывать все аспекты ущерба, причиненного заключенными при побеге из исправительного учреждения, чтобы определить размер возмещения и принять соответствующие меры по восстановлению ущерба и предотвращению подобных ситуаций в будущем.

Социальные аспекты возмещения ущерба. Возмещение ущерба, причиненного заключенными, имеет важное социальное значение. Общество ожидает, что заключенные, сбежавшие из исправительного учреждения, будут нести ответственность за свои действия и возместят причиненный ущерб. Это способствует поддержанию правопорядка и доверия общества к системе исправительных учреждений.

3. Лица, осужденные к лишению свободы, несут ответственность за ущерб, причиненный государству или гражданам в результате побега из места лишения свободы. Они обязаны возместить материальный ущерб, причиненный при побеге. При этом сумма ущерба и порядок возмещения определяются судом. Суд может принять решение о возмещении как материального, так и морального ущерба, нанесенного в результате побега заключенных. В случае неспособности осужденного возместить ущерб, сумма может быть взыскана из его имущества или заработной платы.

Таким образом, законодательство предусматривает механизм возмещения ущерба, причиненного при побеге заключенных, и определяет процедуру и порядок взыскания компенсации за такие действия.

4. **Определение размера ущерба и механизмы его возмещения в рамках закона.** Размер ущерба, причиненного при побеге заключенных из исправительных учреждений, определяется судом на основе представленных доказательств. Суд учитывает различные факторы, такие как стоимость ущерба, величина потерь, а также другие обстоятельства конкретного случая.

Механизмы возмещения ущерба в рамках закона могут включать следующие шаги:

1. **Оценка ущерба:** Суд проводит оценку материального и морального ущерба, причиненного в результате побега заключенных. Эта оценка может быть основана на документальных доказательствах, свидетельских показаниях и других материалах.

2. **Решение суда:** Суд выносит решение о размере ущерба и обязывает осужденного возместить его. Решение суда является обязательным для исполнения.

3. Исполнение решения суда: Осужденный обязан исполнить решение суда о возмещении ущерба в установленные сроки. Невыполнение этого решения может повлечь за собой дополнительные юридические последствия.

Сбежавший заключенный несет ответственность за свои действия и ущерб, который он причинил. Если он совершил преступление или причинил ущерб после побега, он может быть привлечен к уголовной ответственности и обязан возместить ущерб пострадавшим.

Таким образом, в рамках закона механизмы определения размера ущерба и его возмещения при побеге заключенных основаны на решениях суда и обязательны для исполнения всеми сторонами, участвующими в процессе.

Проблема возмещения ущерба, причиненного заключенными, сбежавшими из исправительного учреждения, требует комплексного подхода и совместных усилий со стороны правительства, общества и исправительных учреждений. Эффективные меры могут помочь для определения и взыскания ущерба, а также предотвращения повторных сбегов заключенных.

Библиография:

1. Smith, J. (2010). Compensation for Damage Caused by Escaped Prisoners. *Journal of Criminal Law*, 74(3), 256-275.
2. Johnson, R. (2015). The Social Impact of Escaped Prisoners: A Case Study. *Criminology Today*, 21(2), 123-145.
3. Литвинов А.И. Правовые основы возмещения ущерба, причиненного заключенными, сбежавшими из исправительного учреждения // Журнал "Право и общество", №3 (25), 2020.

DALA QIRQBO‘G‘IMI (*EQUISETUM ARVENSE* L.) NING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA ISHLATILISHI

Maxmudov Valijon

Farg‘ona davlat universiteti, dotsent

Qurbonova Sarvinoz

Biologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Qirqbo‘g‘imsimonlar (Equisetaceae) oilasining eng keng tarqalgan vakili dala qirqbo‘g‘imi hisoblanadi.

Dala qirqbo‘g‘imi (*Equisetum arvense* L.). Ko‘p yillik sporalı o‘t o‘simlik hisoblanib, odatda 40 sm balandlikda va kam hollarda 50 sm gacha bo‘lgan, o‘rmalovchi ildizpoyali o‘simlik hisoblanadi.



Qirqbo‘g‘in xom-ashyosi yozda tayyorlanadi, poyasining pastki qismi xom-ashyo hisoblanmaydi. Quritishdan oldin boshqa o‘simlik aralashmalaridan, shu jumladan boshqa qirqbo‘g‘in turlaridan ham xalos etiladi. O‘tni yaxshi havo yaxshi aylanadigan

tomlarda yoki shiypon ostida 5-7 sm qalinlikda qog'oz yoki material ustiga yoygan holda quritiladi.

XI DF talablariga ko'ra qirqbo'g'in o'ti kulrang yashil rangli, kuchsiz o'ziga xos hidli, ozgina nordonroq ta'mga ega bo'lishi kerak. Namlik 13% dan ko'p bo'lmasligi, umumiy kul 24% dan oshmasligi, 1 sm kichik maydalangan bo'laklari 10% dan ko'p bo'lmasligi, o'simlikning boshqa qismlari 1% dan ko'p bo'lmasligi, organik aralashma 1% dan oshmasligi, mineral aralashma 0,5% dan ko'p bo'lmasligi, qirqbo'g'inning boshqa turlarining miqdori 4% dan oshmasligi zarur.

O'zbekistonning tog'li hududlarida tabiiy zahirasi etarli darajada. Har yili 100 tonnagacha xom-ashyosini tayyorlash mumkin.

Tibbiyotda qo'llanilishi va kimyoviy tarkibi. Tibbiyotda o'simlikning yer ustki qismi ishlatiladi.

Yurak xastaliklarini davolashda qirqbo'g'indan olinadigan preparatlar siydik haydovchi vosita, shuningdek, o'pka-yurak etishmovchiligi bilan bog'liq shishlarni davolashda foydalaniladi.

Qirqbo'g'imning qaynatma va damlamalari siydik yo'llarining kasalliklarida, gemoroidal va bachadondan qon ketganida ishlatiladi hamda organizmning qo'rg'oshindan zaharlanganida foydalaniladi.

O'simlik nefrit va nefrozlarni davolashda qat'iy man etilgan, sababi u buyrakka ziyon etkazishi mumkin.

Dala qirqbo'g'imidan tayyorlanadigan qaynatma - mahsulotdan 10 g miqdorda olib sirlangan idishga solinadi, 200 ml qaynatilgan suv quyilib, og'zi berk idishda, 30 daqiqa suv hammomida qizdiriladi. So'ngra 10 daqiqa mobaynida sovutiladi, dokadan o'tkaziladi, qolgan mahsulot siqiladi. Olingan qaynatmaga dastlabki hajmi 200 ml bo'lguncha qaynagan suv solinadi. Qaynatmani salqin joyda ikki kundan oshmasdan saqlash mumkin. Kuniga 2-3 mahal 1/3 stakan miqdorida ovqatdan keyin 1 soat o'tib qabul qilinadi.

Dala qirqbo'g'imining suyuq ekstraktini 1/2 choy qoshig'ida kuniga 3-4 marta ichish mumkin.

Qirqbo'g'imning tarkibida olma, akonit, shavel, kremniy kislotalari (2,5% gacha), oshlovchi moddalar, achchiq modda, smola, 1-5% saponin, ekvizetrin, flavonoidlar, 4,7 mg% karotin, 30-90 mg% askorbin kislotasi va boshqa moddalar bo'ladi.

Poyali qirqbo'g'im (*Equisetum ramosissimum* Diesf.). Ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, uzun ildizpoyali o'simlik hisoblanadi. Balandligi 30 sm dan 100 sm gacha. Poyalari qishlamaydi. Shoxlari qirrasimon, yashil-kulrang, 10 tagacha hosil qiladi. Barglari voronkasimon, markaziy qismi oq rang bilan chegarlangan. Sporalari may va iyul oylari hosil qiladi. Vegetativ usulda ko'payganda sezilarli darajada katta masshtabli maydonlarni egallaydi.



Tibbiyotda qo'llanilishi. O'simlikning yer ustki qismi qaynatmasidan ich ketishi, qichishish va isitmada keng foydalaniladi. Markaziy Osiyoda er ustki qismi qaynatmasi ich ketishida keng qo'llaniladi. O'simlikdan tayyorlangan sharbat Markaziy Osiyoda oshqozon-ichak infeksiyalari va ichki qon ketish kasalliklarida foydalaniladi.

Asosiy adabiyotlar:

1. A.Fahn. Plant Anatomy. USA New York. 2011. (darslik)
2. Prator O'., Shamsuvalieva L. va boshqalar. "Botanika" – T.: "Ta'lim nashriyoti", 2010. (darslik)
3. Mustafaev S.M. "Botanika" – T.: "O'zbekiston", 2002. (darslik)
4. To'xtaev A.S. "O'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi" – T.: "TDPU" 2001. (ma'ruzalar matni)
5. Toshmuxamedov R.I. "O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar" – T.: "O'zbekiston", 2006. (o'quv qo'llanma)
6. Xo'jaev J. "O'simliklar fiziologiyasi" – T.: "O'qituvchi", 2004. (darslik)
7. Mustaqimov G.D. "O'simliklar fiziologiyasi va mikrobiologiyasi asoslari" – T.: "O'qituvchi", 1995. (o'quv qo'llanma)
8. Mustafaev S.M. Botanika (anatomiya, morfologiya, sistematika) darslik.– Toshkent: O'zbekiston, 2002. -470b.

ЭКОЛОГИК ТУРИЗМНИНГ ВУЖУДГА KELISH QONUNIYATLARI VA TENDENSIYASI

*Sodikov Zokir Rustamovich, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti, i.f.n.*

Insonlarda ekologik dunyoqarashning shakllanishi bugungi kunda ustuvor ahamiyat kasb etmoqda va ijtimoiy jihatdan qonuniyat bo'lmoqda. Ekologik muammolar so'nggi yillarda global miqyosda dolzarb bo'lib turgan muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ekologik harakatlar natijasida ekologik muammolarga nisbatan sezgirlik ortdi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab ortib borayotgan atrof-muhitga oid muhofazakorlik, aslida, insoniyatning atrof-muhit-inson munosabatlariga qadim zamonlardan beri e'tibor qaratganligi, hatto tabiatning insondan ustun ekanligi haqidagi fikrlar mavjud ma'lum bo'lmoqda. Bugungi kunda bunday ekologik yondashuvlar ishlab chiqila boshlandi. Ushbu yondashuvlar hayotda mavjud bo'lgan ba'zi qadriyatlarni qaytadan muhokama qilish uchun imkoniyat paydo qildi.

Ekologik fikrda "ekologik va ijtimoiy muammolar o'rtasidagi munosabat" muammolarini ochib berish va ularni hal qilish yo'llarini ishlab chiqish asosiy boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Asosiy ekologik muammo insonning tabiatda hukmronlik qilish g'oyasi ekanligini hisobga olsak, tarixiy jarayonda jiddiy o'zgarishlarga uchragan inson-tabiat munosabatlari muammoning ildizlarini ochib beradi, deyish mumkin.

Inson bilan tabiatning asrlar davomida davom etib kelayotgan o'zaro ta'siri inson tafakkurida ham, jamiyat tafakkurida ham muhim o'zgarishlarga olib kelgan. Ushbu o'zgarishlardan so'ng ekologiyani bir fikr oqimi doirasida baholash qiyin bo'ldi. Bundan tashqari, butun dunyoda ekologiya g'oyasiga ahamiyat ortib borayotganligi sababli turli xil fikrlar paydo bo'ladi. Garchi turli xil insoniy va ijtimoiy qarashlar mavjud bo'lib tuyulsa ham, bu borada konsensusga erishilgan masalalar ham mavjud. Masalan, shu masalalardan biri ekologik muammolar asosan ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlaridan kelib chiqadi.

Odamlarning tabiiy resurslardan foydalanishga bo'lgan ehtiyoji, qisqa vaqt ichida ko'proq foyda olishni tushunishga asoslangan rivojlanish jarayoni va buning natijasida cheksiz va ongsiz iste'mol yondashuvi atrof-muhitning qaytarilmas tanazzuliga sabab bo'ldi. Insoniyat asrlar davomida atrof-muhit bilan o'zaro munosabatda bo'lib, o'zining barcha iqtisodiy va boshqa hayotiy faoliyatini davom ettirmoqda.

Hozirgi va kelajak avlodlar manfaatini hisobga olgan holda tabiiy resurslardan atrof-muhit bilan uyg'unlikda foydalanish orqali rivojlanish va taraqqiyotni ta'minlash ekologik dunyoqarash sifatida belgilanadi.

Ekologik tafakkurda hech narsani bir-biridan alohida ko'rib chiqish mumkin emas. Ekologik tafakkurda inson tushunchasi insonni tabiatga qarama-qarshi emas, balki tabiatning bir qismi sifatida ko'radi. Bu bayonda ekologiya fikrining eng muhim maqsadi odamlarni Dekart tomonidan kiritilgan reduksionistik tushunchadan qutqarish, inson va tabiat o'rtasidagi qarama-qarshilikni bartaraf etishdan iborat.

Tabiatni o'z fikr-mulohazalari bilan tizim sifatida ko'radigan ekologik yondashuvning ekologik muammolarni hal qilish usullari odatdagidan juda farq qiladi. Shaharlarda havoning ifloslanishi, transport tirbandligi, yashil hududlarning yetarli emasligi kabi muammolarga duch kelinganda, insonlar bunday muammolarni birma-bir hal qilishga odatlanib qolganligi ko'rinadi. Bu muammolarni katta tizim doirasida qabul qilib, unga ko'ra yechim izlash bir qarashda, oson tuyulishi mumkin.

Atrof-muhit muammolari hech qanday universal chegara yoki mafkurani bilmaydi. Atrof-muhitni yaxlit ko'rib chiqish o'rniga yagona muammo, yagona yechim yondashuvi bugungi kunga mos kelmaydi. Ekologik muammolar yuzaga kelgandan keyin hal qilishga harakat qiladigan "bartaraf qilish" yondashuvi o'rniga, bu muammolarni yuzaga kelishidan oldin oldini oladigan "profilaktika" yondashuvini ishlab chiqish kerak.

Atrof-muhitga hurmat va mas'uliyat axloqiy tushunchalar sifatida ajralib turadi. Atrof-muhitga hurmat tushunchasi insonning o'z ijtimoiy va tabiiy muhitiga munosabatining ko'rsatkichi hisoblanadi. Mashhur mutafakkirlar aytganidek, "Hammamiz yer yuzining ijarachilarimiz". Bu ong har bir kishidan atrof-muhitni uy sifatida ko'rishni talab etadi. Buni ta'minlaydigan narsa insonga qaratilgan emas, balki atrof-muhitga qaratilgan axloqiy tushunchani shakllantirishdir.

Boshqa bir ifoda bilan aytganda, Bekon, Dekart, Galiley va Nyuton kabi mutafakkirlar tomonidan ifodalangan mexanik koinot dizayni o'rniga tabiatning tirik organizm ekanligini ta'kidlaydigan ekologik qarashlar asosida yaratilgan organik olam dizayniga ustuvor ahamiyat berish kerak.

Tabiatni ekspluatatsiya qilish, unga har xil vayronagarchiliklar keltirish o'rniga, tabiatni anglash va uni tirik mavjudot sifatida qabul qilish orqali inson-tabiat munosabatlarini axloqiy darajaga olib chiqish mumkin. Insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun dunyo bilan barqaror munosabatlar bo'lishi kerak.

Bugungi kunda tabiatga tezroq va ko'proq zarar yetkazadigan texnologiyalarga ega bo'lgan, chegara bilmaydigan iqtisodiy tizimlarga ega bo'lgan odamlarning haddan tashqari ko'pligi tufayli tabiatga yetkazilayotgan zarar shunchalik kattaki, bu nafaqat mahalliy va mintaqaviy atrof-muhitga, balki, sayyoraviy muhitga ta'sir qilmoqda. Agar o'sish hozirgi sur'atda davom etsa, dunyo oxir-oqibat biosferaning chegaralarini bosib oladi.

Sivilizatsiyaning omon qolishi uchun vaqti bo'lmasligi mumkin, shuning uchun texnologiya va insoniyat yutuqlaridan foydalanib ofatlarni oldini olish uchun foydalanish kerak. Xususan:

- Odamlar tomonidan vayron qilinmagan ekotizim yoki joylar juda kam miqdorni tashkil etadi.
- Insoniyat hayoti mobaynida yeryuzida va o'zi o'zgartirgan tabiiy hududda yashamoqda.
- Insonning vazifasi ifloslanmasdan qolgan tabiiy hududlarni aniqlash va muhofaza qilishdan iborat.
- Ular bio-genetika va madaniy hayot tarixi hisoblanadi.

Shu bilan birga kishilik jamiyati boshqa tomondan, jahon iqtisodiyoti, uning o'sishi va migratsiya jarayonidagi ulkan o'zgarishlarga javob beradigan qator talablarni bajarishi kerak bo'ladi.

Shuningdek, bu majburiyatlarni dinamik tarzda muvozanatga keltiragan taktikani ishlab chiqish kerak.

Iste'mol qilinadigan narsalar to'plamiga aylantirib bo'lmaydigan tabiat, garchi o'ta buzilgan bo'lsa-da, oldimizda ustozimiz sifatida namoyon bo'ladi. Qayta tiklanmaydigan energiya ma'nosi tushunilganda, velosipedni mashinadan ko'ra afzal ko'rish o'rganiladi. Atrof-muhitni ta'minlovchi tirik tizimlar hech qanday chiqindi hosil qilmasligi o'rganilganda, axlat va iflosliklarni yo'q qilish uchun uzoq joyga ehtiyoj yo'qligi ko'rinadi va kompostning ahamiyati yuzaga chiqadi. Natijada, bilim oshgani sayin dunyoda o'z o'rniga qaytish hissi kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risidagi" Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019.
3. 2019 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/4143188>.
4. Xaitboyev R. Ekoturizm asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: "Barkamol fayz media", 2018. – 248 b.
5. Norchaev A.N., Rabbimov E.T. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010. -152 b.
6. www.unwto.org.
7. <https://uzbektourism.uz>
8. www.stat.uz

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРЕВОЖНОСТИ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

*Абдурахмонова Сугдиёнахон Голибжон кизи, магистрант
Наманганский государственный педагогический институт*

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы об изучении проблемы тревожности у детей младшего школьного возраста, также причины возникновения тревожности и пути их устранения.

Ключевые слова: беспокойство, тревога, тревожность, страх, младшие школьники, школьная дезадаптация, дидактогенные неврозы, дидактоскалогения, школьная фобия, хроническая неуспешность, школьный невроз.

Известно, что школьное обучение всегда сопровождается повышением тревожности у детей. Более того, некоторый оптимальный уровень тревоги активизирует обучение, делает его эффективнее. Но когда уровень тревожности превышает этот оптимальный предел, человека охватывает паника. Стремление избежать неуспеха также усиливает страх неудачи. В результате, возрастающая тревожность становится постоянной помехой и ведет к появлению таких негативных симптомов, как школьная дезадаптация, дидактогенные неврозы, дидактоскалогения, школьная фобия, хроническая неуспешность, школьный невроз.

В настоящее время увеличилось число тревожных детей, отличающихся эмоциональной неустойчивостью, неуверенностью, повышенным беспокойством. Проблемы школьной тревожности и путей ее коррекции раскрыты в исследованиях А.М. Прихожан, Р.С. Немова, А.В. Петровского, М.С. Неймарка, Л.С. Славинной, Б.М. Теплова, В.Д. Небылицина, Л.И. Божович, Л.Ф. Обуховой, Е.В. Савиной и т.д.

Тревожность как свойство личности во многом обуславливает поведение ребенка. Определенный уровень тревожности – естественная и обязательная особенность активной деятельной личности. Однако, повышенный уровень тревожности является субъективным проявлением неблагополучия личности.

Тревожность – одна из наиболее сложных и актуальных проблем современной психологической науки.

Можно выделить некоторые наиболее значимые психологические и педагогические причины (факторы) возникновения тревожности.

1. Факторы семейного воспитания («мать–ребенок») обычно являются центральной, «базовой» причиной тревожности. Это влияет на возникновение эмоциональных нарушений и неврозов.

Многие семьи с тревожными детьми обычно непредсказуемы в поведении родителей: с одной стороны, они создающая ощущение нестабильности, с другой, – проявляется их авторитарная, доминантная позиция.

2. Школьная успешность. У тревожных детей чаще всего наблюдается не удовлетворенность своей успеваемостью; это не зависит от оценок. Обычно свои

отметки они связывают с самыми разными причинами: от «несправедливости» учителя до «случайности» хорошей оценки. Эти дети берут во внимание отношение родителей к этой оценке и одновременно осмысливают ее через призму отношения к себе учителя. Эти две причины ярко проявляются у младших школьников.

3. Взаимоотношения с учителями. Одной из основных причин тревожности обычно являются неблагоприятные отношения, конфликты, грубость и нетактичное поведение учителей по отношению к детям. Это неизбежно ведет к дидактогении или дидактогенному неврозу. При этом непрофессиональное поведение педагога влияет на общий уровень тревожности всего класса, существенно повышая его. Особенно это свойственно детям 1-го и 2-го классов.

4. Взаимоотношения со сверстниками. Дети с тревожностью занимают самое разное положение среди сверстников: от крайне неблагоприятного – «отверженного» до очень хорошего – «социометрической звезды».

Здесь будет отчетливо прослеживаться влияние тревожности на особенности и характер общения. Мотивом порождения повышенной зависимости от сверстников выступает сама тревожность. Кроме этого, тревожные школьники значительно чаще, чем их эмоционально благополучные сверстники, оценивают группу сверстников как ненадежную, доминантную, отвергающую. Поэтому эти дети переживают состояние беззащитности, зависимости, что вытекает из создавшихся характеристик такого общения.

5. Внутренний конфликт. Иногда главным источником тревожности выступает внутренний конфликт; этот конфликт связан с отношением к себе, самооценкой, Я-концепцией.

Внутренний конфликт возникает от уровня самооценки, которая формируется уже к 4-му классу. В связи с этим, отношение ребенка к себе бывает самым разным. Это зависит от отношений в системе взаимодействия «ребенок-ребенок», а также устойчивая связь тревожности и конфликтности самооценки может возникать в системе взаимодействия «ребенок-взрослый».

6. Эмоциональный опыт. Устойчивая связь тревожности и неблагоприятного эмоционального опыта наблюдается в связи с запоминанием преимущественно неблагоприятных, неуспешных событий.

Обычно лучше запоминаются преимущественно негативные события, в результате чего происходит накопление отрицательного эмоционального опыта, который постоянно увеличивается по закону «замкнутого психологического круга» и находит свое выражение в относительно устойчивом переживании тревожности.

В целом причиной тревоги может быть все, что нарушает у ребенка в его взаимоотношениях с окружающими людьми: чувство неуверенности в себе по отношению к окружающей среде, внутренний конфликт, страх школы, семейный конфликт, авторитарное воспитание, неблагоприятные отношения ребенка с родителями, семейные конфликты и т.д.

Работая с тревожными детьми учителю необходимо использовать специальные оценки: максимально развёртываются критерии той или иной

оценки, похвалы, замечания и одновременно предельно сужается и конкретизируется сфера действия оценочного суждения (оценивается не вся деятельность сразу, а её отдельные элементы, особенно успешные). При этом большое внимание уделяется поддержанию в классе атмосферы принятия, безопасности, чтобы ребёнок чувствовал, что его ценят вне зависимости от его успехов. Важным является формирование такого отношения не только к оценке, но к успеху, неуспеху, выигрышу, проигрышу – к любому результату, когда он воспринимается ребёнком, прежде всего, как ориентир на пути овладения знаниями, умениями.

Поскольку младший школьный возраст является периодом интенсивного формирования психики, постольку в этом возрасте требуется коррекционно-развивающая работа, которая должна рассматриваться в совокупности психолого-педагогических средств, помогающих ребёнку успешнее адаптироваться к социуму и развивающих в нём активную позицию, необходимую для преодоления затруднений в общении.

Таким образом, работа учителя по снятию школьной тревожности и страхов должна быть включена в ход учебных занятий, внеклассной и внеучебной деятельности. Эта работа будет иметь эффект только при создании благоприятных условий семье и школе, где хорошие отношения будут поддерживать ребенка.

Литература:

1. Диагностика учебной деятельности и интеллектуального развития / Сборник. Сост. А. Дубровина. – М.: Просвещение, 2006. – 218 с.
2. А.М. Прихожан Тревожность у детей и подростков: психоаналитическая природа и возрастная динамика. – М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. – 304 с.
3. <https://klinikarassvet.ru/patients/simptomyy/trevozhnost/>

ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СИСТЕМЫ В МОДЕРНИЗАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА

Ходжибаева Икбола Валиевна

Наманганский инженерно-строительный институт

Аннотация: в статье исследовано содержание и значение инвестиционной политики и процесса формирования инвестиционной системы в условиях модернизации промышленного производства.

Ключевые слова: промышленность, инвестиции, производство, инвестиционный потенциал, инвестиционные ресурсы, модернизация, инвестиционная система, финансовые ресурсы, кластеризация.

В развитии экономики Республики Узбекистан актуальной задачей является модернизация и диверсификация отраслей промышленности и их производства, а также повышение ее активности. Потому что промышленная сеть играет очень большую роль в повышении социально-экономического благосостояния населения. Кроме того, в результате модернизации отраслей промышленности можно помочь улучшить качество жизни населения за счет производства продукции, способной заменить импорт. Это, в свою очередь, требует разработки стратегических проектов и широкого использования иностранных инвестиций при их реализации.

В настоящее время в условиях рыночной экономики активная инвестиционная политика является важнейшим условием модернизации и обновления нашей страны.

В качестве основных направлений и факторов развития инвестиционной системы в промышленном комплексе можно указать следующие:

- реализация целевых инвестиционных программ;
- формирование необходимой инфраструктуры для промышленно-производственной деятельности (вода, газ, электроэнергия, транспорт и т.д.);
- создание новых предприятий в сфере легкой промышленности и освоение производства готовой продукции с учетом фондоемкости создаваемых рабочих мест;
- создание новых предприятий в области переработки видов сырья, не участвующих в промышленной переработке, и освоение производства новой продукции;
- создание новых предприятий в сфере переработки сельскохозяйственной продукции и снабжения рынка местной продукцией;

- производство товаров народного потребления для обеспечения местного рынка доступной и качественной продукцией и снабжения ею рынка;
- развитие промышленности строительных материалов;
- улучшить финансовое сотрудничество банков и промышленных предприятий в целях повышения эффективности и результативности банковского кредитования в развитии промышленности;
- активизация деятельности, связанной с привлечением иностранных инвестиций в развитие промышленности по всем направлениям;
- уделяя особое внимание реализации инвестиционных проектов, формирующих цепочку добавленной стоимости при переработке местного сырья;
- налаживание более широкого использования льгот и преференций, созданных в рамках программы локализации и международной промышленной ярмарки и кооперативной биржи;
- расширение объемов экспорта продукции, производимой в промышленном комплексе, помощь малым предприятиям в экспорте.

Осуществление инвестиций в промышленный комплекс по таким направлениям приведет к структурным изменениям в экономике региона в соответствии с современными требованиями и окажет положительное влияние на объем экспорта, его состав и качество за счет диверсификации отрасли.

Цели и направления государственной политики ориентированы на повышение инвестиционной активности хозяйствующих субъектов отрасли. На данный момент в его рамках предусмотрено принятие важных мер по возрождению промышленности в регионах, а также разработка сетевых программ для регионов. Данные программы служат развитию инновационной деятельности в отрасли, налаживанию государственно-частного партнерства по важным направлениям, а также оптимизации размещения региональной экономики в пространстве, формированию и развитию кластеров.

На наш взгляд, для ускорения кластерных процессов в промышленном комплексе региона необходимо разработать и реализовать соответствующие программы по созданию условий для реализации инвестиционных процессов и инновационного развития на предприятиях, а также поддержать инициативы взаимного сотрудничества со всех сторон. всеми органами государственной власти и местного самоуправления. Они могут включать:

1. Разработка плана мероприятий по технологическому развитию промышленного комплекса региона.

Его программы предусматривают создание необходимой инновационной инфраструктуры в регионе. Создание региональной инновационной инфраструктуры и реализация программ поддержки инновационного

предпринимательства служат формированию базовых условий для формирования кластеров промышленного комплекса. «Эффект от нововведения планируется на стадии ТЭО и достигается в ходе эффективности вложенного капитала»¹. Одним из главных приоритетов этих программ станет укрепление технологического сотрудничества между фирмами.

2. Разработка стратегии инновационного развития промышленного комплекса региона. Одним из путей решения проблем отрасли в условиях модернизации региональной экономики является создание и реализация инновационной стратегии развития промышленного комплекса, на основе которой возможно формирование системы инновационного управления в промышленности. Эффективность реализации данной стратегии будет зависеть от объема инвестиционных средств, вложенных в производство инновационной продукции. Разработка инновационной стратегии промышленного комплекса региона требует соблюдения определенных условий, важнейшими из которых являются наличие инвестиционных ресурсов для разработки инновационной стратегии, привлечение квалифицированных научных кадров к процессу стратегического планирования, и т. д.

Использованные источники:

1. Sirojiddinov, I. Q., & Xodjibaeva, I. V. (2021). Factors affecting regional investment potential. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(5), 404-409.
2. Сирожиддинов, И. К., & Ходжибаева, И. В. (2020). Инновационные процессы в экономике регионов в условиях коронавирусной пандемии. *Молодой ученый*, (20), 449-452.
3. Ходжибаева, И. В. (2020). Механизм государственного регулирования инвестиционной деятельности. *Экономика и социум*, (3), 563-565.
4. Xodjibaeva, I. V., & Xasanboev, O. X. (2019). Global problems in modern conditions. In *ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ОБЛАСТИ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ* (pp. 18-19).
5. Xodjibayeva, I. V., & Ikromov, I. I. (2018). FEATURES OF FREE ECONOMIC ZONES. *Теория и практика современной науки*, (1), 778-779.
6. Ходжибаева, И. В. (2017). Модернизация промышленности экономики. Важность структурных изменений. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (1-7), 176-179.
7. Valiyevna, X. I., & Hamidhanovich, X. M. (2019). Investment processes as the driving force of economic development of the region. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(3), 34-36.

¹Артамонова Ю.С., Хрусталева Б.Б. я доктор. Формирование инновационной стратегии развития региональных строительных комплексов // Известия Пензенского государственного педагогического ун-та им. В.Г. К. Белинскому. - Пенза, 2011. - № 24 - С.168-170.

ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ (НАМАНГАН ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Насирова Наргиза Турсунпулатовна

Наманган муҳандислик-қурилиш институти

Иқтисодиёт кафедраси катта ўқитувчиси

E-mail:nargiza7075@gmail.com

Аннотация: Мақолада инвестицияларнинг иқтисодиётни ривожлантиришдаги тутган ўрни ва таъсири, соҳалардаги ҳозирги пайтда инвестициялар таъсиридаги бўлаётган ўзгаришлар, жаҳон иқтисодиётидаги бўлаётган ўзгаришлар ва келгусидаги жараёнлар ёритилган

Калит сўзлар: хорижий инвестиция, иқтисодиёт, либераллаштириш, миллий даромад бандлик, бозор муносабатлари.

Abstract: The role and impact of investments in the development of the economy, current changes in the spheres of investment, changes in the world economy and future processes are covered in the article.

Key words: foreign investment, economy, liberalization, national income, employment, market relations

Аннотация: В статье освещены роль и влияние инвестиций на развитие экономики, текущие изменения в сферах инвестирования, изменения в мировой экономике и будущие процессы.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, экономика, либерализация, национальный доход, занятость, рыночные отношения

Жаҳон иқтисодиётининг, шу жумладан Ўзбекистон иқтисодиётининг ҳам келгуси тараққиёти, асосан, инвестицияларга боғлиқлигини бугунги кунда ҳар бир билим соҳиби англаб етганлигини назарда тутсак, ҳозирги кунда республикамиз иқтисодиётига инвестицияларни, хусусан, чет эл инвестицияларини кенгрок жалб этиш уларнинг мамлакатимизда ўтказилаётган иқтисодий ислохотларнинг самарали ижросини таъминлашнинг муҳим асосига айланганлиги билан боғлиқлигини тушуниб олиш кийин эмас.

Бугунги кунда мамлакатимизда амалга оширилаётган кенг қамровли иқтисодий ислохотларнинг натижасида миллий иқтисодиётда ўз мазмун ва моҳиятига кўра янги сифатга эга бўлган жараёнлар амалга ошмоқда. Сўнгги йилларда Ўзбекистонда макроиқтисодий барқарорликка эришиш, ташқи савдони либераллаштириш ва иқтисодий интеграция жараёнларини ривожлантириш бўйича сезиларли ислохотлар амалга оширилди. Мазкур

ислохотлар, энг аввало, мамлакатда халқ фаровонлигини ва халқ турмуш даражасини оширишга қаратилган. Бугунги глобал дунёда аҳоли фаровонлигини ўсишини таъминлаб берувчи омиллардан бири бўлган иқтисодий ўсиш ўзагини мамлакатлар иқтисодиётидаги тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар оқими ташкил қилиши ҳеч кимга сир эмас.

Мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда мамлакатга кириб келаётган тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳажми ҳамда улардан қанчалик самарали фойдаланаётганлиги муҳим аҳамият касб этади. Айниқса ривожланаётган мамлакатлар ҳамда ўтиш даврини бошдан кечираётган мамлакатларда тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни иқтисодий ривожланиш ва модернизация, миллий даромадлар ўсиши ва бандлик манбаи сифатида кўрилади.

Сўнгги йилларда Ўзбекистон иқтисодиётига кириб келаётган тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳажми ошиб бораётганига қарамай ҳамон Ўзбекистон хорижий инвестиция қабул қилувчи давлат сифатида паст кўрсаткичга эга бўлиб қолмоқда.

Инвестициялар даражаси ялпи ички маҳсулот ҳажмига сезиларли даражада таъсир кўрсатади, миллий иқтисодиётдаги кўплаб мутаносибликлар унинг ўсиш суръатларига боғлиқ. Инвестициялар мамлакат микёсида кенгайтирилган такрор ишлаб чиқаришни таъминлашни яхшилайдди. Инвестиция жараёни ва иқтисодий ўсиш ўртасидаги ўзаро боғлиқликни таҳлил қилишда инвестиция мультипликатори муҳим аҳамиятга эга. Уни умумий даромадларнинг ўсиши ва қўшимча капитал қуйилмалар ўртасидаги нисбат сифатида ифодалаш мумкин.

Ўзбекистон Республикасида олиб борилаётган молиявий ислохотнинг асосий мақсади ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига ўтиш, очик ташқи сиёсат барқарор бўлган кучли ҳуқуқий-демократик ва фуқаролар жамиятини қуриш ҳисобланади. Буларнинг барчаси иқтисодий ислохотлар асосида амалга оширилади. Ўзбекистоннинг бозор иқтисодиётига ўтиши жараёнида иқтисодий ислохотнинг ўзига ҳос модели яратилган бўлиб, унинг муҳим таркибий қисмларини алоҳида ажратиб кўрсатиш мумкин. Бизнинг фикримизча, булар қуйидагилардан иборат:

- кишилар фаровонлиги ошишини таъминловчи муносиб натижага эришишга ижтимоий йўналганлик;

- иқтисодиётни барқарорлаштириш муаммосини ҳал этиш ва меҳнатга лаёқатли аҳолини иш билан таъминлаш бандлиги билан макроиқтисодий ўсиш ўртасидаги нисбатнинг тенг бўлиши;

- ишлаб чиқаришни тўғридан-тўғри давлат томонидан бошқаришдан воз кечиш, иқтисодий мақсадга мувофиқлиги, фаолият турлари, ишлаб чиқараётган маҳсулот ҳажми ва рўйхати, ишлаб чиқариш хўжалик алоқалари кўламиндан

келиб чиқиб товар ишлаб чиқарувчиларнинг ўзларига иқтисодий эркинликлар бериш;

- инвестиция сиёсатидаги устувор йўналишларни танлаш ва хорижий капитални жалб этишда зарур шароитларни жорий этиш орқали иқтисодиётни тартибга солиш.

Иқтисодий бошқарувга манфаатлардан фойдаланиш, ишончли ижтимоий кафолатни таъминлашда давлатнинг фаол вазифасини таъминлаш;

- бозор иқтисодиётини шакллантиришнинг барча босқичларида, биринчи навбатда, аҳолининг кам таъминланган қисмини ҳимоя қилиш буйича кучли ижтимоий сиёсат юритиш;

- бозор муносабатларига ўтиш шароитида солиқ давлат иқтисодий сиёсатини амалга оширишнинг бош тартибга солиш омили бўлиб қолиши керак. Банк ва молия тизимининг ривожланиши натижасида банк ишлари ва банкка оид бўлмаган молия хизмати турларини бир-биридан ажратиш муаммоси келиб чиқмоқда.

Ушбу муаммони ҳал этиш учун ягона инвестиция бозорида банкка тааллуқли бўлмаган хизматларнинг ўрни ва ролини аниқлаш лозим. Ривожланган мамлакатлар тажрибасига кўра, бозор шароитларида тижорат банклари билан бир қаторда муддатли маблағ билан таъминлайдиган ва суғурталайдиган, шунингдек, фонд биржасида операциялар олиб борадиган ихтисослаштирилган муассасалар тузиш мақсадга мувофиқ.

Мамлакат иқтисодиётини, хусусан, ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва иқтисодий ўсишга эришишда, инвестиция маблағларидан оқилона фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Бу эса ўз ўрнида мамлакат ички ва ташқи инвестиция маблағларининг иқтисодиёт сектори бўйича тақсимоотида тўғри йўналишни белгилаб олишни тақозо этади. Шу нуқтаи назардан, мамлакат иқтисодиётига йўналтирилган инвестиция маблағлари самарадорлигини аниқлаш мақсадга мувофиқдир.

Наманган вилоятида 2023- йил январ-декабр ойларида асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар 20734,5 млрд. сўмни ташкил қилиб, бу ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 130,8 %ни ташкил этди. (1-Жадвал)

Асосий капиталга инвестицияларнинг марказлашмаган молиялаштириш манбааларидан тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ва кредитлар 2022 йилда 30,2% ни ташкил этган бўлса, 2023 йилда бу кўрсаткич 46,2% ни ташкил этди. 2023- йилда иқтисодий фаолият турлари бўйича асосий капиталга инвестицияларда қишлоқ хўжалигини улуши 5,6 % ни, ишлаб чиқариш саноатини улуши 46,0% ни, қурилиш ишларида 4,3% ни, ташиш ва сақлаш ишларида 3,9% ни, таълим соҳасида 2,1% ни, соғлиқни сақлашдаги улуши 3,5% ни ташкил этди.

1- жадвал

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar


	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, (%da)</i>	<i>jamiga nisbatan, (%da)</i>
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	20734,5	130,8	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	1307,6	67,8	6,3
Byudjet mablag'lari	449,6	43,1	2,2
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari	74,2	44,1	0,3
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	783,8	109,0	3,8
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	-	-	-
Markazlashmagan investitsiyalar	19426,9	139,6	93,7
Korxonalarining mablag'lari <i>(mahalliy byudjet mablag'larini qo'shgan holda)</i>	4507,0	126,4	21,7
Aholi mablag'lari	2713,9	105,5	13,1
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	9579,4	201,4	46,2
Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	2626,6	86,5	12,7

Вилоятда асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар бўйича 2023- йил январ-декабр ойларида энг юкори кўрсаткичлар қуйидаги ҳудудларда кузатилди:

Наманган шаҳрида – 7011,6 млрд. сўм, туманлардан Тўрақўрғон туманида – 2105,1 млрд.сўм, Наманган туманида – 1802,9 млрд. сўм ташкил этди.

2023- йил январ-декабр ойларида асосий капиталга инвестицияларнинг технологик таркиби бўйича қурилиш ишларига 9068,8 сўм маблағ киритилди.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi
(jamiga nisbatan, %da)



Шу билан бирга кейинги йилларда вилоятда амалга оширилаётган иқтисодий, сиёсий ислохотлар натижасида ушбу кўрсаткич аста-секин кўтарилиб бормоқда. Хорижий инвестициялар учун яратилган шарт-шароитлар мамлакатимиз иқтисодиётига жалб этилаётган инвестициялар ҳажмини йилдан-йилга кўпайиб боришига имкон бермоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” 2017 йил 7 февраль, ПФ 4947-сонли фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи, 2017 йил 16 январь.

3. Tursunpolatovna, N. N. (2022). Need and duties of accounting in business entities. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(11), 8-12.

4. Tursunpolatovna, N. N. (2022). Theoretical analysis of the content and characteristics of market competition. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 79-85.

5. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance

Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2107-2114.

6. Nasirova, N. (2023). Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda innovation marketingdan samarali foydalanish. *Interpretation and researches*, 1(3), 28-34.

7. Tursunpulatovna, N. N. (2023). Ways to Increase the Efficiency and Efficiency of Export and Import of Fruits and Vegetables in the Republic of Uzbekistan. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 19, 54-59.

8. Насирова, Н. Т. (2023). АКТИВНАЯ ИНВЕСТИЦИОННАЯ ПОЛИТИКА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ. *Экономика и социум*, (5-1 (108)), 646-649.

9. Насирова, Н. Т. (2023). ПОДДЕРЖКА ЖЕНСКОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И СОЗДАНИЕ ДЕЛОВОЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Экономика и социум*, (5-1 (108)), 642-645.

10. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.

11. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.

12. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO'NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.

13. Xolmirzayev, U. A., & Hakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

O'ZBEKISTONDA TURIZMNING SALOHİYATI

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti turizm yo`nalishi talabasi

Eshtemirov Husniddin

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti turizm yo`nalishi talabasi

Talifov Ziyodulla

Annotatsiya: O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortmoqda. Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo'g'rofiyashunoslar va missionerlar, isti'lochilar va zabt etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonning turizm salohiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, infratuzilma, tarix, an'ana, urf-odatlar, madaniyat.

Аннотация: Узбекистан, привлекающий внимание всего мира своими многочисленными историческими и архитектурными памятниками, разнообразным климатом и стремительным развитием, находился на пути путешественников, географов и миссионеров, завоевателей и завоевателей. На данный момент Узбекистан становится одним из увлекательных туристических направлений для тех, кто интересуется культурой, историей, традициями и экзотическими странами. В данной статье представлена информация о туристическом потенциале Узбекистана.

Ключевые слова: туризм, инфраструктура, история, традиции, обычаи, культура.

Abstract: Uzbekistan is attracting the attention of the whole world with its many historical and architectural monuments, diverse climate and rapid development. was on the way of travelers, geographers and missionaries, conquerors and conquerors. At the moment, Uzbekistan is becoming one of the fascinating tourist destinations for those interested in culture, history, tradition and exotic countries. This article provides information about the tourism potential of Uzbekistan.

Key words: tourism, infrastructure, history, tradition, customs, culture.

KIRISH.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda joylashgan, boy madaniy meros, ajoyib tabiat manzaralari va ming yillik tarixga ega dengizga chiqq olmaydigan davlatdir. Asta-sekin ro'yobga chiqayotgan va rivojlanib borayotgan muhim turizm salohiyatiga ega. O'zbekistonda YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan bir qancha

ob'ektlar, jumladan, o'zining ajoyib islom me'morchiligi, qadimiy obidalari va jo'shqin bozorlari bilan mashhur bo'lgan tarixiy Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlari joylashgan. Ipak yo'li savdo yo'li ta'sirida bo'lgan mamlakatning boy madaniy merosi tashrif buyuruvchilarga o'tmishga o'ziga xos ko'rinish va ko'p asrlik an'ana va urf-odatlarini o'rganish imkoniyatini beradi.[5]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mamlakatda madrasalar, maqbaralar, masjidlar va qal'alar kabi ko'plab tarixiy obidalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati yaxshi saqlangan va sayyohlar uchun ochiqdir. Ushbu saytlar O'zbekistonning tarixiy o'tmishiga ko'z tashlab, mintaqa tarixi, san'ati va arxitekturasi haqida qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etadi. O'zbekiston nafaqat tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylari; shuningdek, hayratlanarli tabiiy landshaftlarni taqdim etadi. Tyan-Shan tog'larining qorli cho'qqilaridan tortib, Qizilqum va Qoraqumning bepoyon cho'llari, yam-yashil vodiylari va tiniq ko'llarigacha O'zbekistonning rang-barang geografiyasi tabiatni sevuvchilarni ham, sarguzasht izlovchilarni ham o'ziga jalb qiladi. O'zbekistonda sayyohlik industriyasi barqaror rivojlanmoqda, hukumat infratuzilmani rivojlantirish, mehmonxonalar qurilishi va tashrif buyuruvchilar soni ortib borayotganini ta'minlash uchun turistik xizmatlarga e'tibor qaratmoqda. Hozirda sayyohlarning ehtiyojlarini qondirish uchun asosiy turistik yo'nalishlarda zamonaviy mehmonxonalar, mehmonxonalar, restoranlar va transport imkoniyatlari mavjud. O'zbek oshxonasi mamlakatning boy tarixi va turli etnik guruhlar ta'sirida ta'm va aromatlarning ajoyib aralashmasidir. Palov, shashlik va samsa kabi an'anaviy taomlar mahalliy aholi va sayyohlar orasida mashhur bo'lib, O'zbekistonning madaniy xilma-xilligini aks ettiruvchi o'ziga xos gastronomik tajribani taqdim etadi. Sarguzasht ishqibozlari uchun O'zbekiston trekking, piyoda sayr qilish, kemping va cho'l safari kabi ochiq havoda ko'plab tadbirlarni taklif etadi. Sarguzasht turizmi mamlakatda ommalashib bormoqda, bu tashrif buyuruvchilarga xavfsiz va nazorat ostida bo'lgan muhitda yo'ldan tashqari yo'nalishlarni kashf qilish, mahalliy hamjamiyat bilan muloqot qilish va adrenalinni to'ldirish faoliyatini boshdan kechirish imkonini beradi.[4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

O'zbekiston o'zining tarixiy islomiy maskanlari va islom tarixidagi taniqli shaxslar bilan aloqalari tufayli musulmon sayohatchilar uchun alohida ahamiyatga ega. Barqaror turizm amaliyotiga e'tibor kuchayib borayotgan O'zbekiston o'zini ekologik toza va mas'uliyatli sayohatlarda yetakchi sifatida ko'rsatish imkoniyatiga ega. Sayyohlik industriyasining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash maqsadida mahallalarda sayyohlik, tabiatni muhofaza qilish va madaniy asrashni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonning sayyohlik salohiyati keng va rang-barang bo'lib, turli xil qiziqishlarga javob beradigan madaniy, tarixiy, tabiiy va sarguzashtli diqqatga sazovor joylarni taklif etadi.

Mamlakat sayyohlik infratuzilmasiga sarmoya kiritishda, o'zining noyob merosini targ'ib qilishda va tashrif buyuruvchilar tajribasini oshirishda davom etar ekan, O'zbekiston butun dunyo bo'ylab sayohatchilarni o'z xazinalarini o'rganish va uning yashirin marvaridlarini kashf etish istagida bo'lgan.[3]

Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan, boy tarixi, madaniyati va tabiiy go'zalliklari kashf etilishi kutilayotgan O'zbekiston joylashgan. Ipak yo'lining qadimiy shaharlaridan tortib Tyan-Shan tog'larining baland cho'qqilarigacha O'zbekistonning sayyohlik salohiyati har xil bo'lganidek, o'ziga maftun etadi. O'zbekiston shaharlari o'tmish va bugun an'ana va zamonaviylik uyg'unligida uyg'unlashgan jonli muzeylardir. Samarqand, Buxoro va Xiva – O'zbekiston madaniy merosining javohirlari – muhtasham masjidleri, baland minoralari va madrasalari bilan maqtanayapti. O'zbekistonning har bir go'shasi, qadimiy Ayaz-qal'a xarobalari, Samarqanddagi mahobatli Registon maydonigacha o'z tarixidan hikoya qiladi. Mamlakatning murakkab tarixi va merosini ochib beruvchi muzeylar, saroylar va arxeologik joylarga tashrif buyurganingizda vaqt bo'ylab sayohat qiling. O'zbekiston arxitektura durdonalarining murakkab koshinlar, o'ymakorlik naqshlari va jo'shqin ranglari xalqining asrlar davomidagi bunyodkorligi va hunarmandchiligini aks ettiradi. O'zbekiston o'zining tarixiy joylaridan tashqari, hayratlanarli tabiiy go'zallikka ega mamlakatdir. Tyan-Shan tog'larining baland cho'qqilari panoramali manzaralarni ochsa, Qizilqum va Qoraqumning bepoyon cho'llari o'zining cheksiz qumlari va yulduzli tunlari bilan maftun etadi. Tabiatni sevuvchilar va sarguzasht izlovchilar uchun osoyishta qochish imkonini beruvchi yam-yashil vodiylar, sokin ko'llar va yam-yashil vohalarni o'rganing. O'zbekiston o'zining mashhur mehmondo'stligi va rivojlangan turizm infratuzilmasi bilan mehmonlarni iliq kutib oladi. Zamonaviy mehmonxonalar va butik mehmonxonalaridan tortib samarali transport xizmatlari va ekskursiyalarga qadar sayohatchilar mamlakatning turli yo'nalishlari va tajribalari bo'ylab osongina sayohat qilishlari mumkin. O'zbekiston tashrif buyuruvchilarning qoniqishi va xavfsizligini oshirishga e'tibor qaratgan holda, o'z yurtiga tashrif buyurganlar uchun ajoyib sayohat tajribasini taqdim etishga intiladi. Adrenalinni istaydiganlar uchun O'zbekiston ochiq havoda sayr qilish va sarguzasht imkoniyatlarini taklif etadi. Olis tog' yo'llari bo'ylab sayohat qiling, cho'lda yulduzlar ostida lager quring yoki go'zal vodiylar bo'ylab otda sayohatga chiqing. Piyoda sayr qilish, velosipedda sayr qilish, lager va boshqa ko'p imkoniyatlarga ega O'zbekiston o'zining betakror landshaftlari va yashirin marvaridlarini o'rganishni istagan ochiq havoda ishqibozlar uchun o'yin maydonchasidir. O'zbekistonga tashrif buyurib, uning dunyoga mashhur taomlaridan tatib ko'rmasdan turib bo'lmaydi. O'zbek gastronomiyasining asosiy taomlari bo'lgan mazali guruchli taomlar, shirali kaboblar va xushbo'y nonlarni tatib ko'ring. Mamlakatning xilma-xil pazandalik merosi

va mintaqaviy ta'sirlarini aks ettiruvchi an'anaviy choylar, shirinliklar va ziravorlar bilan o'z his-tuyg'ularingizni zavqlantiring va ta'mga haqiqiy ziyofat taqdim eting.[2]

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning turizm salohiyati jasur sayohatchilar va qiziquvchan tadqiqotchilar tomonidan kashf etilishini kutayotgan xazinadir. Madaniy suvga cho'milish, tarixiy kashfiyotlar, tabiiy mo'jizalar yoki ochiq havoda sarguzashtlarni qidirasizmi, O'zbekiston sizni sehrlaydigan, ilhomlantiradigan va qalbingizda o'chmas iz qoldiradigan tajribalar kaleydoskopini taqdim etadi.[1]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.Tuxliyev I.S., Xaitboyev R., Tursunova G.R. Turizm asoslari. O'quv-uslubiy murakkab. - Samarqand, SamISI, 2013. - 372 b.[1]

2.Qudratov G.H., Pardayev M.Q., Otaboyev R. O'zbekistonda turizm salohiyati va uni rivojlantirishda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. // xizmat ko'rsatish va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. - T.:Iqtisodiyot va moliya, 2008. - b. 61-70.[2]

3.Hayitboyev R., Sattarov A. Turizm marshrutini ishlab chiqish texnologiyasi. Samarqand, 2011 yil.[3]

4.Matyakubov U.R. —Ekologik vaziyatni hisobga olgan holda turizmning samaradorligi takomillashtirish yo'nalishlari va istiqbollari mavzusida. nomzodlik dissertatsiyasining konspekti. – Samarqand, 2011. – 12 b.[4]

5.Halikulov A.N. —Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlar dissertatsiya konspekti. Abstrakt. – Samarqand, 2010. – 25 b.[5]

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti turizm yo`nalishi talabasi

Ahmedov Azimjon

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti turizm yo`nalishi talabasi

Toxtayev Temur

Annotatsiya: Turizm butun dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi va tashrif buyuruvchilar oqimidan tashqarida ko'p sonli imtiyozlarni taqdim etadi. O'sish, daromad olish va ish o'rinlari yaratishning asosiy omili sifatida turizmning iqtisodiyotga ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Mahalliy va xalqaro sayyohlarni jalb qilish, bandlik imkoniyatlarini yaratish, infratuzilma va xizmatlarga sarmoya kiritishni rag'batlantirish orqali turizm sohasi iqtisodiy rivojlanish va farovonlik uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ushbu maqolada biz turizmning o'sish va barqaror rivojlanish katalizatori sifatidagi ahamiyatini ko'rsatib, mamlakatlarning iqtisodiy farovonligiga ta'sir qilish va hissa qo'shishning ko'p qirrali usullarini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: turizm, iqtisodiyot, sayyohlik agentliklari, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy xizmatlar.

Abstract: Tourism plays a crucial role in shaping the economic landscape of countries around the world and provides numerous benefits beyond the flow of visitors. As a key driver of growth, income generation and job creation, the impact of tourism on the economy cannot be denied. By attracting local and international tourists, creating employment opportunities, and encouraging investment in infrastructure and services, the tourism sector provides ample opportunities for economic development and prosperity. In this article, we will highlight the importance of tourism as a catalyst for growth and sustainable development, and examine the multifaceted ways in which it can influence and contribute to the economic well-being of countries.

Key words: tourism, economy, travel agencies, economic growth, economic services.

Аннотация: Туризм играет решающую роль в формировании экономического ландшафта стран по всему миру и обеспечивает многочисленные преимущества, помимо потока посетителей. Влияние туризма на экономику как ключевого фактора роста, получения доходов и создания рабочих мест нельзя отрицать. Привлекая местных и иностранных туристов, создавая возможности трудоустройства и поощряя инвестиции в инфраструктуру и услуги, туристический сектор предоставляет широкие возможности для экономического развития и процветания. В этой статье мы подчеркнем важность туризма как катализатора роста и устойчивого развития, а

также рассмотрим многогранные способы, которыми он может влиять и способствовать экономическому благополучию стран.

Ключевые слова: туризм, экономика, туристические агентства, экономический рост, экономические услуги.

KIRISH.

O'zining boy tarixi, ajoyib me'morchiligi va samimiy mehmondo'stligi bilan mashhur bo'lgan O'zbekistonda turizm iqtisodiy o'sish va madaniy almashinuvning kuchli haydovchisi sifatida paydo bo'ldi. Turizm sohasi gullab-yashnashda davom etar ekan, uning iqtisodiyotga ta'siri tobora kuchayib bormoqda va bu mamlakat va uning aholisi uchun ko'plab imtiyozlarni taqdim etadi.[5]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Turizmning O'zbekiston iqtisodiga eng sezilarli ta'siridan biri bu uning oladigan katta daromadidir. Dunyoning turli burchaklaridan sayyohlar O'zbekistonga kelib, uning qadimiy shaharlari, jo'shqin bozorlari va hayratlanarli manzaralarini o'rganishadi va shu orqali valyuta tushumlarining kirib kelishiga hissa qo'shadilar. Turar joy, transport, ovqatlanish va unutilmas tajribalar uchun sarflangan xarajatlar mamlakat iqtisodiy farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Turizm industriyasi O'zbekistonda asosiy ish beruvchi bo'lib xizmat qiladi va o'z fuqarolariga turli xil ish imkoniyatlarini taklif etadi. Mehmonxona xodimlari va ekskursiya gidlaridan tortib hunarmandlar va transport operatorlarigacha turizm barqaror hayot kechirish va iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish yo'llarini yaratadi. Ishsizlik darajasini pasaytirish va tadbirkorlikni rag'batlantirish orqali ushbu soha ko'plab o'zbekistonliklarning umumiy turmush darajasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. O'sib borayotgan sayyohlar oqimini qondirish uchun O'zbekiston infratuzilmani rivojlantirishga katta sarmoya kiritdi. Yaxshilangan transport tarmoqlari, zamonaviy turar joy binolari va sayyohlik diqqatga sazovor joylarining barchasi tashrif buyuruvchilarni yanada muammosiz va yoqimli his qilish imkonini beradi. Qolaversa, bu infratuzilmani yaxshilash nafaqat sayyohlarga foyda keltiradi, balki tovarlar va xizmatlarga talabni yuzaga keltirish orqali mahalliy iqtisodiyotni ham oshiradi.[4]

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Turizm O'zbekistonning boy madaniy merosini dunyoga namoyish etish uchun kuchli platforma bo'lib xizmat qiladi. Samarqand shahridagi mahobatli Registon maydonidan tortib Farg'ona vodiysining sokin manzaralarigacha sayyohlar mamlakatning betakror tarixi, an'ana va urf-odatlar bilan tanishish imkoniga ega. Turli millat vakillari o'rtasida madaniy almashinuvni rag'batlantirish va o'zaro tushunishni rivojlantirish orqali turizm O'zbekistonning o'ziga xosligi va merosini saqlashda muhim rol o'ynaydi. O'zining bevosita iqtisodiy ta'siridan tashqari, turizm O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishda ham muhim rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligi va

tog'-kon sanoati kabi an'anaviy tarmoqlarga qaramlikni kamaytirish orqali turizm sanoati yanada muvozanatli va mustahkam iqtisodiy poydevor yaratishga yordam beradi. Bu diversifikatsiya nafaqat mamlakatning iqtisodiy barqarorligini oshiradi, balki uning tashqi zarbalar va jahon bozorlaridagi tebranishlarga nisbatan zaifligini ham kamaytiradi.

Turizmning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri katta va ko'p qirrali. Mamlakatning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida turizm iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ish o'rinlari yaratish, valyuta tushumlarini yaratish va madaniy almashinuvni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Turizm O'zbekiston uchun asosiy daromad manbai bo'lib xizmat qiladi, chunki u turar joy, transport, oziq-ovqat, esdalik sovg'alari va tarixiy obidalarga kirish to'lovlari xarajatlari hisobidan valyuta daromad keltiradi. Xorijiy valyutaning bu oqimi mamlakat to'lov balansiga hissa qo'shadi va uning umumiy iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. O'zbekistondagi turizm sanoati mehmonxona xodimlari va ekskursiya gidlaridan tortib, hunarmandlar va transport provayderlarigacha bo'lgan keng ko'lami ish imkoniyatlarini taqdim etadi. [3]

Sektorning o'sishi mahalliy aholi uchun ish o'rinlari yaratib, shahar va qishloqlarda ishsizlik darajasini pasaytirish va turmush darajasini yaxshilash imkonini bermoqda. O'sib borayotgan turizm sektorini qo'llab-quvvatlash uchun O'zbekiston transport tarmoqlari, joylashtirish vositalari va turistik diqqatga sazovor joylar kabi infratuzilmani rivojlantirishga sarmoya kiritadi. Bu yaxshilanishlar nafaqat sayyohlarga foyda keltiradi, balki aholining umumiy hayot sifatini oshiradi va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Turizm O'zbekistonning boy madaniy merosini, jumladan, uning tarixiy joylari, an'anaviy hunarmandchilik, musiqa, raqs va oshxonasini targ'ib qilish platformasi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu madaniy boyliklarni global auditoriyaga namoyish etish orqali turizm O'zbekistonning o'ziga xosligini saqlab qolish va nishonlashga yordam beradi, shu bilan birga madaniyatlararo tushunish va qadrlashni kuchaytiradi. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va qishloq xo'jaligi va tog'-kon sanoati kabi an'anaviy tarmoqlarga qaramlikni kamaytirish orqali turizm O'zbekiston uchun yanada mustahkam va barqaror iqtisodiy poydevor yaratishga hissa qo'shadi. Sanoatning o'sishi umumiy iqtisodiy portfelni muvozanatlash va tashqi ta'sirlarga nisbatan zaiflikni kamaytirishga yordam beradi. Turizm O'zbekistonda iqtisodiy rivojlanish, madaniy merosni targ'ib qilish, bandlik imkoniyatlarini yaratish va umumiy farovonlikni oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mamlakat o'zining sayyohlik salohiyatiga sarmoya kiritishda va tashrif buyuruvchilar tajribasini yaxshilashda davom etar ekan, iqtisodiyotga ijobiy ta'sir kuchayib, hukumatga ham, mahalliy hamjamiyatlarga ham foyda keltirishi kutilmoqda. [1]

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, turizmning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri juda chuqur va keng ko'lamli. Turizm sohasi daromad olish va ish o'rinlari yaratishdan tortib infratuzilmani rivojlantirish va madaniy targ'ibotga qadar mamlakatning umumiy farovonligi va farovonligiga katta hissa qo'shmoqda. O'zbekiston sayyohlik industriyasining salohiyatidan foydalanishda davom etar ekan, uning iqtisodiyotiga ijobiy ta'siri yanada oshib, hukumatga ham, fuqarolarga ham foyda keltirishi kutilmoqda.[2]

Turizmning iqtisodiyotga ta'siri chuqur va ko'p qirrali bo'lib, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun ham keng ko'lamli ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotlarda taqdim etilgan turli xil tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va daromad olishning kuchli haydovchisi bo'lib, iqtisodiyotning mehmondo'stlikdan tortib transport va chakana savdogacha bo'lgan turli tarmoqlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, turizm madaniy almashinuvni rivojlantirish, barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va mahalliy jamoalar uchun umumiy hayot sifatini yaxshilash salohiyatiga ega. Mamlakatlar turizmning qiymatini strategik iqtisodiy aktiv sifatida tan olishda davom etar ekan, o'ylangan siyosat tashabbuslari, infratuzilmaga sarmoya kiritish va manfaatdor tomonlarning hamkorligi orqali sektor salohiyatidan foydalanish zarur. Turizmning o'zgaruvchan kuch sifatidagi kuchidan foydalanib, davlatlar farovonlik, innovatsiyalar va inklyuziv o'sish uchun yangi imkoniyatlarni ochib, kelajak avlodlar uchun barqaror va jonli iqtisodiy kelajakni ta'minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.Tuxliyev I.S., Xaitboyev R., Tursunova G.R. Turizm asoslari. O'quv-uslubiy murakkab. - Samarqand, SamISI, 2013. - 372 b.[1]

2.Qudratov G.H., Pardayev M.Q., Otaboyev R. O'zbekistonda turizm salohiyati va uni rivojlantirishda davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. // xizmat ko'rsatish va turizm sohasini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. - T.:Iqtisodiyot va moliya, 2008. - b. 61-70.[2]

3.Hayitboyev R., Sattarov A. Turizm marshrutini ishlab chiqish texnologiyasi. Samarqand, 2011 yil.[3]

4.Matyakubov U.R. —Ekologik vaziyatni hisobga olgan holda turizmning samaradorligi takomillashtirish yo'nalishlari va istiqbollari mavzusida. nomzodlik dissertatsiyasining konspekti. – Samarqand, 2011. – 12 b.[4]

5.Halikulov A.N. —Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlar dissertatsiya konspekti. Abstrakt. – Samarqand, 2010. – 25 b.[5]

DORIVOR QASHQARBEDA (MELILOTUS OFFICINALIS) O'SIMLIGINING TARQALISHI VA KO'PAYTIRISH USULLARI

Yursunova O'g'iloy Mamitali qizi

Farg'ona Davlat Universiteti biologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Dorivor qashqarbeda (*Melilotus officinalis* (L.) Pall.). Ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, vatani Evropa, Kichik, O'rta va Markaziy Osiyo, Kavkaz hisoblanadi. Britaniya



orollari, yangi Zelandiya, Shimoliy Amerika va Janubiy Amerikada introduksiya qilingan. Asosan cho'l, bo'z yer va maysazorlarda o'sadi. Ba'zi hollarda madaniylashtirilgan. Ko'pchilik hollarda morfologik jihatdan o'xshash bo'lgan oq qashqarbeda bilan aralash tarzda o'sadi.

Botanik tavsifi. Dorivor qashqarbeda (sariqbeda) – (*Melilotus officinalis* Desr.); dukkakdoshlar – Fabaceae oilasiga kiradi. Ikki yillik, bo'yi 50-100 sm ga (ba'zan 2 m ga) yetadigan o't o'simlik. Ildizi sershox, o'q ildiz. Poyasi bitta yoki bir nechta, qirrali bo'lib, yuqori qismi shoxlangan. Bargi uch plastinkali murakkab barg, poyada bandi bilan ketma-ket o'rnashgan. Gullari mayda, sariq, shingilga to'plangan. Gulkosachasi yarmisigacha uchburchak lansetsimon shakldagi 5 bo'lakka qirqilgan. Iyun-sentabr oylarida gullaydi, urug'i esa avgust oyidan boshlab yetiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-sonli qaroriga asosan dorivorlik xususiyatga ega o'simliklarni keng ko'lamda yetishtirish nazarda tutilgan. Shu qatorda qashqarbeda ham dorivorlik xususiyatlarni namoyon qiladi.

Qashqarbeda katta maydonlarga urug'idan ekiladi. Ya'ni, qashqarbeda ekiladigan maydon 25-30 sm churqulikda shudgor qilinadi, molalanadi va 60-70 sm qator oraliqlari tortiladi. Qashqarbeda urug'i, beda urug'i ekiladigan seyalkalar yordamida tuproqqa ekiladi. O'simlik mezofit o'simlik sifatida yil davomida 5000-6000 m³ yoki 5-6 marta sug'orishni talab etadi. O'simlik begona o'simliklarga nisbatan raqobatbardosh hisoblanadi. Yil davomida 2 marta kultivatsiya qilinadi va begona o'tlardan tozalanadi. O'simlik iyun-iyul oylarida yalpi gullash fazasiga kiradi va avgust

oyidan boshlab urug' fazasi boshlanadi. Hosildorlik gektar hisobida 8-10 sentnerni tashkil etadi.

Xom-ashyo tayyorlanishi va uning sifati. Qashqarbeda gullash fazasi vaqtida o'rib olinadi. Maxsus kesgichlarda uning er ustki qismi 5-10 sm uzunlikda qirqiladi va quritish uchun angarlarda stellash-setka ustiga yoyiladi. 8-10 kun davomida xom-ashyo tayyor holatga keladi. Tayyor bo'lgan xom-ashyo 10 kg miqdorlarda qoplariga joylashtiriladi.

Tibbiyotda qo'llanilishi va kimyoviy tarkibi. Asal shira beruvchi o'simlik. Qashqarbeda o'simligi ta'm va sifat ko'rsatkichi bo'yicha yuqori o'rinlarda turadi. Ushbu o'simlikdan olingan asal rangi och – sarg'ish yoki oq rangda, vanil hidini eslatuvchi xushbuy hidli hisoblanadi. Uning tarkibida 39.59 % fruktoza va 36.78 % glyukoza mavjud. Bir gektar maydonda o'sgan dorivor qashqarbeda o'simligidan 550-600 kg.gacha asal olinadi.

Dorivor qashqarbeda o'simligi – ko'pchilik oziqa vositalari va tovuq go'shtlariga xushbuy xid beruvchi ziravor (aromatizator) hisoblanib, uni ayrim markaga ("Selsiy", "Ukraina") ega bo'lgan sharoblarga qo'shishga ham ishlatiladi.

Uning tarkibida 0.4-0.9% kumarin, kumarin kislotasi, dikumarol, melilotin, efir moyi mavjud. Yurak tomirlari trombozi va stenokardiya tomir tortishi kasalliklarida foydalaniladi. Revmatizm va yiringli yaralarni engillashtiruvchi vositalar qatoriga kiradi. Bemorlarda leykotsitlar miqdorini oshirishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4670-sonli qarori.
2. O'.Axmedov, A.Ergashev, A.Abzalov Dorivor o'simliklar va ularni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 2018.
3. O'zbekiston florasida 5 tom 45-49 b.
4. X.Xolmatov, O'.Ahmedov "Farmakognoziya" Toshkent 1997.
5. A.Fahn. Plant Anatomy. USA New York. 2011. (darslik)
6. Prator O'., Shamsuvalieva L. va boshqalar. "Botanika" – T.: "Ta'lim nashriyoti", 2010. (darslik)
7. Mustafaev S.M. "Botanika" – T.: "O'zbekiston", 2002. (darslik)
8. To'xtaev A.S. "O'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi" – T.: "TDPU" 2001. (ma'ruzalar matni)
9. Toshmuxamedov R.I. "O'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar" – T.: "O'zbekiston", 2006. (o'quv qo'llanma)
10. Xo'jaev J. "O'simliklar fiziologiyasi" – T.: "O'qituvchi", 2004. (darslik)

ФАРҒОНА ШАҲРИ ХУДУДИДА ТАРҚАЛГАН ҚИЗИЛ ТАСМА (POLYGONUM AVICULARE) ЎСИМЛИГИНИНГ КИМЎВИЙ ТАРКИБИ ВА ДОРИВОРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Юрсунова Ўзгилрой Мамитали қизи

Фарғона Давлат Университети биология йўналиши

1-курс талабаси

Торон туркуми (Polygonum) – туркум номи “юнон” тилидан олинган бўлиб “poius” –кўп, “gony” – бўғин “кўп бўғинли” деган маънони англатади. Бу туркум вакиллари пояси тик, ер бағирлаб ёки чирмашиб ўсадиган найчали, барглари бутун, бир йиллик, кўп йиллик, баъзан бутача ўсимликлардир. Ўсимлик пояси қатор тугунлардан иборат бўлиб, оралиғида бўғинлар жойлашган. Уларнинг гуллари икки жинсли, барг қўлтиғидан чиққан ёки поянинг учидаги шингил ёки рўваксимон тўпгулда етилган. Гулкўрғон баргчалари доирада бештадан бўлиб кўринса ҳам аслида сипираль бўлиб жойлашган, чунки бу авлодда учлик типидagi гулкўрғонларнинг аста-секин бешлик типдаги гулкўрғонларга ўтиши кузатилади. Уруғчиси 5-8 та, чангчиси 2 ёки 3 мевабаргчалидир. Меваси уч қиррали, гулкўрғон билан ўралган ёнғоқчадир. Бу туркумга кирувчи вакилларида бири Қизил тасма (polygonum aviculare) ўсимлиги туридир.

Қизил тасма(P. aviculare) тур ўсимлиги– тур номи “avicularis”- ўсимлик уруғи қушларга дон бўлгани назарда тутилиб шундай аталган. Ер юзида кенг тарқалган бўлиб, асосан бир йиллик ўт ўсимлик ҳаётий шаклига эга. Деярли барча минтақаларда учратиш мумкин. Фақатгина Арктикада ва Антарктидада учрамайди. Ўзбекистон Республикаси флорасида бу турнинг 45 турини учратиш мумкин. Ўзбекистон ҳудудида Тошкент, Фарғона, Наманган, Андижон, Самарқанд, Қашқадарё, Сурхандарё ва Бухоро вилоятларида тарқалган. Қизил тасма(P.aviculara) ўсимлиги нам тупроқларда, соя –салқин жойларда ўсишга мослашибгина қолмай балким улар қуёш нури тўғридан- тўғри тушадиган қуёшли жойларда ҳам бемалол яхши ривожлана олади.

(P. aviculara) ўсимлигининг гуллари ранги оқиш, кўкимтир, пушти рангда бўлиб июлдан кеч кузгача гуллашда давом этади. Меваси гулкўрғонига ўралиб турадиган қора ва тўқ жигарранг вертикал тушган чизиклардан иборат уч қиррали ёнғоқчадир. Мевасининг бўйи 3-мм, эни эса 1.7мм гача бўлиб сентябрнинг охири ва ноябрнинг бошигача пишиб етилади Қизил тасма(П.ависуларе) ўсимлиги доривор ўсимлик сифатида, ем-ҳашак ва майсазор сифатида экиб ўстирилади. Баъзи давлатларни аҳолиси орасида озик –овақат санотида фойдаланилади. Қизил тасма(P. aviculare) ўсимлиги уруғларининг ҳаётчанлиги 5 йилгача давом этади. Униб чиқиши учун +1 +2° С ҳарорати этади.

Кимёвий таркиби: Таркибида биологик фаол моддалар танинлар (0.19%), флаваноидлар (авикулярин, меритсин, камферол), эфир мойи, ошловчи моддалар, кумаринлар, сапонинлар (57-450 мг), каротин(курук баргларида 4.9 мг % гача), пектин, антрагликозидлар, шилимшиқ моддалар, кремний кислотаси бирикмалари, аскорбин кислотаси, органик кислота бирикмалари, полисахарид комплекси, С, К витаминлари, микро ва макро элементлари (темир, магний, кадмий, рух) ва бошқа моддалардан иборат. Табобатда ва Фармасевтика саноатида ўсимликнинг хамма қисимлари ишлатилади. Бу шифобахш ўсимликни куруқ об-ҳаво шароитида эндигина гулашга кирган ва поялари хали новда вақтида еғиб олинади. Чунки гуллаш тугагандан сўнг ўсимликнинг поялари қаттиқлашади. Бу ўсимлини еғиб олишда ҳам бир неча нарсаларга эътибор қаратган ҳолатда, транспорт ҳаракатланадиган ёъл ёқасидан, чангли ёъллардан, шовқин жойлардан, завод фабрикаларни олдида еғиш умуман тавсия этилмайди. Уларни яхшиси ўрмон, дала, дарё бўйлари, қирғоқ бўйларида еғиб олиш маъқулроқдир. Улар еғиб олиниб вентиляцияли ҳоналарда қурутилади. Тайёр хом ашёни уч йилгача сақлаш мумкин.

Таъсир қилиши: Қизил тасма(*P. aviculara*) ўсимлигидан Сийдик йўллари ва сийдик пуфаги касалликларида даволашда самарали восита бўлиб буйрак тошлари пайдо бўлганда тошларни эритиб ташқарига чиқишини рағбатлантириб, сийдик микдорини ошириш билан биргаликда, сийдикдаги ортикча натрий ва хлор ионларини чиқариб юборади. Бундан ташқари буйракда филтрацияни оширади реабсорсияни камайтиради. Бачадонни қисқаришини таъминлаб яллиғланишига қарши антитоксик таъсир қилади. Жинсий аъзоларнинг сурункали яллиғланиш касалликларида яхши самара беради. Оғиз бўшлиғида стоматит, тиш гўшти оғиз бўшлиғининг яллиғланиш касалликларида даволовчи ҳисобланади, Ошқозон –ичак ёълларини функционал ҳолатини яхшилади, шиллиқ пардаларни ёпади, уларни тирнаш хусусиятини берувчи омиллардан химоя қилади. Шу билан бирга ичакда сўрилиш жараёнини норманлаштиради.

Жигар ва ўт ёъллари касалликларида холеретик таъсир кўрсатади. Метаболизмни яхшилади сув-туз балансини нормаллаштириб тиклайди. Қон томири деворларини ўтказувчанлигини пасайтиради, қон ивишини кучайтиради. Қон кетишини тўхтатади. -Юрак неврози, юрак урушида (тахикардияда), полиартрит (бўғимларни яллиғланиши), сил, бронхит, бронхиал астма, кўк – ёьтал, безгак, шамоллаш ва юқори нафас ёълларини яллиғланиш касалликларини даволашда самарали фойда беради.

Қизил тасма(*P. aviculara*) ўсимлиги сурункалик касалликлари учун жуда маъбул ҳисобланиди чунки у танадаги кераксиз суюқликларни ва токсинларни

чиқариб ташлашни тезлаштиради, бунинг сабаби унинг таркибидаги кремний кислотаси тузларининг борлигидадур.

Ишлатилиши: Халқ табобатида бу ўтдан тайёрланган қайнатма ва дамламалар ичкетарда ични қотиришда. Бу ўтдан тайёрланадиган қайнатма ва дамламаларини энди касалликдан турган инсонларга қувватга киргаздиган дори сифатида ичилади. Шунингдек иссиқни туширадиган, қон оқишни тўхтатадиган, сийдик ҳайдайдиган ва гижжа тушурадиган восита сифатида буюрилади. Темиртки касаллигида ва болларда тошма тошганда шу ўтдан ванна қилиш тавсия этилади. Янги терилган ўт эса яра ва жароҳатларга бўшиб қўйилади. Қизил тасма ўсимлигини барглари сувли экстракти микробларга қарши антимиқробиял хусусияти шу билан биргаликда бактерияларга ҳам қарши ҳисобланади.

Тиббиётда Қизил тасма(*P. aviculare*) ўсимлигининг препаратларидан ошқозон яллиғланиши (гастрит) ошқозом –ичак тракти ўн икки бармоқ ичакнинг яллиғланиши (дуоденит) ва ярасини даволашда ишлатилади. Сийдик ёъллари операцияларидан кейин релапсларни олдини олишда уролитиёз бўлса ёъқотишга ёрдам беради. Бундан ташқари бачадон миёмасини ёъқотишда, климактерик ва балоғатга етмаганлар аёлларда гиперменорея ҳолатида қисқаришни бошқаради. Бу ўсимликнинг сув ва сипиртдан тайёрланган экстрактлари қон босимини пасайтириб, қон ивишини тезлаштиради. Бу ўсимликнинг “Гален” перепаратларидан жигар, буйрак, қовуқ касалликларида, сийдик-тош ва ўт-тош касаллигида, подагра, полиартритда қўлланилади. Баргларининг суви сезиларли даражада фитонсид ҳоссасига эга.

Замонавий тиббиётда Қизил тасма(*P. aviculara*) ўсимлигининг уруғи бепуштликда самарали эканлиги аниқланди ва тасдиқланди. Ўсимлик уруғи тухумдонларни ишини фаоллаштириб яллиғланишини бутунлай кетказди ва ҳомиладорликни рағбатлантиради. Қизил тасма ўсимлигидан деярли бутун дунё табобатида кенг фойдаланади масалан: Хитойда- қайнатма ва дамламаси организмни қувватга киргазувчи сифатида. Тибет табобатида сероз, қон кетишида, септикопиемияларда ишлатилади. Европа мамалакатларида экстракти ва дамламаси яллиғланишни қайтаришда, сийдик хайдашда, силда, гипертоник касалликларда. Ўрта Осиёда эса ўсимлик қурутилиб, чарчаган пайтда тамаки қилиб чекилади.

Қизил тасма (*P. aviculare*) ўсимлигидан косметологияда ҳам фойдаланилади. Ундан тайёрланган косметик ласёнлар , ниқоблар, компресслар тайёрланади. Ласёнлар ниқоблар компресслар қуруқлашиб кетган терини намлантиради ва озиклантиради. Бундан ташқари Қизил тасма(*P. aviculare*) ўсимлигидан тайёрланадиган ўсимлик тониклари мавжуд. Бу тониклар ёшартирувчи хусусиятга эга. Булардан фойдаланган терида метаболик жараёнлар яхшиланади, теридаги тирналишларни кетказди. Қуруқлашган ва

ёрилган терини камайтириб уни намлантиради ва юмшатади. Қизил тасма (*P. aviculare*) ўсимлиги сочларни парвариш қилишда ҳам фойдали бўлиб, ўсимликдан қайнатиб тайёрланган сувидан мунтазам равишда сочни чайиб ювиш натижасида, соч фолликулаларини мустаҳкамлайди ва соч тўкилишини олдини олади.

Дори тайёрлаш ва ишлатиш: ўсимлик оғиз орқали бемалол исьтемом қилиниши мумкин, қайнатма ҳолида, капсула ҳолатида, экстракт ҳолатида. Асосан еғма чойлар таркибига киради.

1) Қизил тасма (*P. aviculare*) ўтидан 15гр (уч ош қошиқ) миқдорида олиб сирланган идишга солинади ва устидан қайнаб турган 200 мл – 1 стакан сув солинади ва идиш қопқоғи беркитилиб, бошқа идишда қайнаб турган сув устидан 15 дақиқа қайнатилади. Кейин ундан олиниб, хона ҳароратида совутилади, сузгичдан ўтказилиб, сиқиб олинади. Олинган дамлама устига қайнаган сув қўшиб, ҳажми 200-мл гача етказилади ва бу дамлама буйрак, қовуқ тошларига қарши овқатдан олдин 1 -2 стакандан кунига 2- 3 маҳал ичилади. 2) Қизил тама ўсимлигидан и 500 граммни 4 литр сувда, 15 дақиқа мил- мил қайнатиб, қайнатмасини 15 кун 3 маҳал 3ош қошиқдан оч ҳолда парҳези билан ичилса, ич кетишини қолдириш, ичак касалликлари, қорин оғриғи ва ичак яраларига фойда қилади

3) Қайнатмаси қон кетиш , айниқса бачадондан қон кетишида , камқонлик, ўпка касалликларида, кўк ётал касалликларида 20 кун 2 маҳал 2 ош қошиқдан парҳези билан ичилса тузалади. 4) Бундан ташқари қизил тасма қайнатмасини 10 кун 3 маҳал парҳези билан ичилса жигар, буйрак касалликларини тузатади. 5) Қайнатмасидан 15кун 3маҳал оч қоринга 50 грамдан ичилса сийдик ёғли, ўт ёлидаги тошларни бўғим оғриғи ва полиартирид касаллигидан ҳалос бўлади. 6) Темираткида, болаларда тошма тошганда 10 кун 3 маҳал 25 дақиқадан ўсимлик солиниб қайнатилган сувларда ванна қилинса тузалади. 6) Ўсимликни қайнатмасидан 20 кун 3 маҳал 50 грамдан ичилса жигар сўлиши (серроз)да даволайди. Тенг қисимларда олинган сариқ чой, савринжон, қончўп, қайин куртаклари, мойчечак, тирноқгул, зира гулларидан тайёрланган йиғманинг уч чой қошиғи устига 3 стакан сув қуйилиб, 10-15 дақиқа қайнатилади кейин сузиб олинади. Ўт-тош касалликларида (калькулиёз, холестит), тепатохолестит касалликларида 1- 2 ой давомида овқатдан 1соат олдин ярим стакандан 3 маҳал ичилади.

Қуйидаги препаратларни ҳомиладор аёлларга тавсия этилмайди. Шунингдек қон ивиши кучайганларга тромбозли , тромбофлебитли касалликларга учраганларга, шу билан бирга юрак ҳуружи борлар ва инсулт касаллигига чалинган инсонларга тавсия этилмайди ва қабул қилишлари тақиқланади.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Глик Б., Дж. Пастернак “Молекулярная биотехнология: Принципы и применение” пер.с англ. –М.: Мир, 2002 г.-589 стр.
2. Кучеров Е. В. Горец птичий (*Polygonum aviculare* L.), его распространение и использование в Республике Башкортостан // Пробл. изуч. адвентив. и синантроп. флоры в регионах СНГ. М.; Тула, 2003. С. 60-66.
3. Patra A, Rai B, Rout GR, Das P. Successful regeneration from callus cultures of *Centella asiatica* (L.) Urban. *Plant Growth Regul.* 1998; 24:13-16.
4. Rout GR, Das P. In vitro organogenesis in ginger (*Zingiber officinale*). *J. Herbs, Spices Med. plants.* 1997; 4(4):41-51.

KOVRAK O'SIMLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING TURLARI

Yursunova O'g'iloy Mamitali qizi

Farg'ona Davlat Universiteti biologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada soyabonguldoshlar oilasi vakili kovrak (Ferula) ning tarqalgan hududlari, uning dorivor xususiyatlari, xalq tabobatida qo'llanishi, sanoatda qo'llanishi va turli xususiyatlari qisqacha yoritiladi.

Kalit so'zlar: soyabonguldoshlar oilasi, ko'p yillik o't, smola hosil qiluvchi, kovrak, sirka, murch, gul, ildiz, barg. ferula, hom- ashyo, endem, Ferula foetida, Ferula karatavica, Ferula sumbul, Ferula tadshikorom, Fefula kuhistanica, monokarp, polikarp, efir, kraxmal.

Annotation: In the article, the representative of the umbel family is the blanket (Ferula) distribution areas, its medicinal properties, its use in folk medicine, its use in industry, and its various properties are highlighted.

Key words: umbelliferous family, perennial, grass, tar marigold, umbel family, vinegar, pepper, flower, root, leaf. Ferula, Raw material, endemic, Ferula foetida, Ferula karatavica, Ferula sumbul, Ferula tadshikorom, Fefula kuhistanica, monocarp, polycarp, ether, starch.

Respublikamiz tabiiy dorivor o'simliklar resursiga juda boy hisoblanadi. Tabiatda shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan, xalq xo'jaligiga foyda keltiradigan, insonlarning ehtiyojini qondiradigan o'simliklarni izlab topish ularni o'rganish va muhofaza qilish chora tadbirlarni ishlab chiqish, fan yutuqlarini amalda qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Apiaceae oilasiga mansub Ferula L.turkumi turlari shunday o'simliklar guruhiga kirib, ular efir moyli, yem-xashak, asalchil, shifobaxsh, kraxmal beruvchi, aromatik,ozuqabop va texnika o'simliklari hisoblanadi. Respublikamizda kovrak yetishtirishni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev Surxondaryo viloyatiga tashriflaridan birida kovrak yetishtiruvchilar assotsiatsiyasini tuzish taklifini o'rtaga tashlagan edilar. Darhaqiqat, yurtimizda kovrak dorivor o'simligini tabiiy ravishda keng tarqalganligi va qo'shimcha ravishda sun'iy ekib ko'paytirish imkoniyatlarining mavjudligini inobatga olib, keng istiqbolli rejalarni nazarda tutgan edilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-martdagi — Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom - ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish hamda eksport qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3617 Qarori asosida kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom -ashyosini qayta

ishlash uyushmasi tashkil etilgan va hozirgi kunda keng ko'lamli kovrak plantatsiyalari yaratilmoqda. Kovrak (Ferula L.) turkumi turlari vakilari Ziradoshlar (Apiaceae L.) oilasiga mansub bo'lib, ular O'rta Osiyoda 114, O'zbekistonda 48 turi uchraydi. Bu turkum vakillarining shundan 32 turi monokarp, 16 turi polikarp turlardir. Shundan 27 turi Pomir Oloy, 21 turi Tyan-shan endemigi hisoblanadi.

Turkum turlarining 8 turi cho'lda, 4 turi cho'l-adirda, 9 turi adirda, 12 turi adir-tog'da, 23 turi tog'da, 1 turi adir-tog'-yaylovda, 6 turi tog'-yaylovda uchraydi. Tabiiy hududlarda o'suvchi kovrakni esa asrab-avaylash, yo'qolishiga olib keluvchi har qanday harakatlarga yo'l qo'ymaslik bugungi kunda dolzarb masaladir. Shundan kelib chiqib viloyatimizda kovrak etishtirish uchun qulay iqlim sharoiti mavjudligi, kam sarfli ekinligi bois plantasiyalar tashkil qilib, mavjudlarini yanada kengaytirish alohida ahamiyatga egadir. Kovrak - (Ferula) turkumi selderdoshlar (soyabonguldoshlar)- Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik o't o'simligi. Kovrakning yer yuzida 160 dan ziyod turlari, O'rta Osiyo respublikalarida 104, mamlakatimizda esa 50 turi uchraydi. Smola - yelim olishda sassiq kovrak, Kuhiston kovragi kabi turilari ishlatiladi.

Bu o'simlik turkumidan tojik kovragi O'zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan. Aynan qizil kitobga kiritilgan turining soni kamayishiga sabab undan smola olish hamda kamayib borayotgan kovrak turlarini tiklash uchun urug'lardan foydalanmaslik asosiy sabab boldi. Kovrak (ferula) turkumiga taalluqli turlar O'rta Osiyoda keng tarqalgan ularning O'zbekistonda F.Jaeschesna- chayir, F.Carelinii-itsigek, F.Sumbul- sumbul (F.assa-foetida) sassiq kovrak nomi bilan yuritiladigan turlari cho'l-adir tog' mintaqalarda tarqalgan ular orasida ko'p yillik monokarp - o'simliklar hisoblanmish sassiq kovrak e'tiborga molikdir. Masalan, Sassiq Kovrakning bo'yi 1 gacha yetadi ildizi sholg'omsimon, diametri esa 15 smga yetadi undan ham o'sishi mumkin, Poyasi tik o'suvchi yo'g'on, ichi kovak bo'ladi yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi barglari bandli bo'lib, 3 bo'lakli, poyadagilari maydaroq bo'lib ular poyada ketma-ket joylashgan hisoblanadi. O'simlikning to'pguli yirik, sharsimon, diametri 20 sm va undan ham oshishi mumkin. Erta bahorda gullashni boshlaydi may iyun oylarigacha gullab urug' hosil qiladi. Sassiq kovrak dorivor o'simlik sifatida Respublikamizning Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston respublikasining qumli cho'llar, adirlar, tog'lar va tog'oldi yalangliklarda, soz tuproqli yerlarda o'sadi. Ibn Sino bobomiz bu o'simlikka shunday ta'rif berganlar:

Kovrak urug'ining qaynatmasi (urug'i xuddi supurginikiga o'xshash malla rang, shakli ham shunga o'xshab ketadi) 3 mahal 50 grammdan ichilsa, ona suti ko'payadi. Shirasiga anjir qo'shib yeyilsa, sariq (gepatit) kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo'shib, yomon sifatli yaralarga surilsa, foyda qiladi. Soch to'kilishiga ham o'ta foydalidir.

O'simlik xalq tabobatda ishlatiladi. Tabobatda bemor organizmiga ijobiy ta'sir etuvchi biologik faol modda hisoblanadi. Dorivor vositalar sifatida o'simliklarning ildizi, bargi, po'stlog'i, guli, mevasi, shirasi va boshqa qismlaridan foydalaniladi. Ildizidan olinadigan yelim (smola)dam astma va bazi nerv kasalliklarida ishlatiladigan dori tayyorlanadi.

Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k-yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Ilmiy meditsinada kovrak yelim-smolasi – "assafetida" nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (nastoyka) holda og'riq qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi va ko'pgina davlatlar farmokopeyasiga kiritilgan.

Sharq mamlakatlarida Eron, Pokiston, Afg'oniston va Hindiston kovrak shirasi va ildizi oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida, kosmetika sanoatida attorlik vositalari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Endemiklar o'simliklar - ular alohida va ma'lum bir hududda tarqalgan, boshqa hududda ularni uchratib bo'lmaydigan o'simlik turlari hisoblanadi.

O'zbekiston florasida 4500 dan ortiq o'simlik tulari mavjud bo'lsa, ularning 10% i endemik hisoblanadi. Ana shunday o'simliklardan biri bu Ferula L. turkumining ko'plab vakillari jumladan, ferula tadshikorum turi endemik turdir. Ferula L. tadshikorum O'zbekiston hududida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida endemik o'simlik sifatida uchratish mumkin. Tadqiqotlar natijasida Surxondaryo viloyatida Kovrak (Ferula L.) turkumiga oid 13 ta turlar aniqlandi. F. foetida, F. karatavica, F. sumbul, F. tadshikorum, F. kuhistanica va boshqalar shular jumlasidandir. Bu turlar ikkiga ya'ni monokarp va polikarp turlarga bo'lib o'rganiladi. Aniqlangan Kovrak (Ferula L.) turkumi turlari - ko'p yillik, o'tsimon, geofit o'simlik. Mavsumiy rivojlanish ritmi bo'yicha ular efemeroidlardir. Kovrak (Ferula L.) turkumiga oid monokarp turlarda asosiy novdaning o'sishi monopodial tarzda bo'ladi: dastlabki 5-6-yillarda qisqa vegetativ davrda faqat to'pbarglar hosil qilib – gullash va urug'lash yilida esa yerustki ortotrop poya hosil qiladi.

Bu poya (novda) politsiklik kategoriyasiga kirib, o'simlik esa yarim to'pbarg hosil qiluvchi guruhga kiradi. Ular asosan bir, ba'zi hollarda, poya shikatslanganda 2 dan 6 tagacha generativ novda hosil qiladi. Surxondaryo viloyatida o'sadigan Ferula turkumi turlari O'simlikning yer ostki organlari oziq moddalarini zahira (zapas) holda saqlaydigan ildiz va ildizpoyadan iborat bo'lib, ular tunganaksimon yo'g'onlashgan. O'simlik poyalarining balandligi har xil: gigant-poyasi 3 metrgacha etadigan turlardan (F. gigantea, F. foetida, F. penninervis, F. kuhistanica, F. malacophilla, F. varia, F. sumbul) tortib, pastki (karlik) –bo'yi atigi 30 sm gaetadigan turlar (F. karataviensis, F. nuda) ham uchraydi. Har bir turning balandligi ob-havo, ekologik sharoitga qarab

ham o'zgarib turishi xam aniqlandi. Barglari asosan to'pbarglardan iborat bo'lib, ular ildiz bo'g'zida joylashadi.

Xulosa qilib aytganda yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12ming turi bor. 1000 dan ortiq o'simlik turlarining kimyoviy, farmokologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 577 turi mavjud. Shulardan hozirgi vaqtda 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda. Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ularning tarkibidagi birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simliklarning har xil qismlaridaturli miqdorda to'planadi. Bundan ko'rinib turibdiki yer yuzida tarqalgan ko'pchilik o'simliklar dorivordir. Ko'p o'simliklardan mikroorganizm va viruslarni yo'qotadigan antibiotiklar va fitonsidlarga boy preparatlar tayyorlanadi. Shuningdek bizning asosiy obektimiz

Kovrak o'simligi bo'ldi uning turlarini asrab avaylash har bir insonning vazifasi desak ham boladi. Chunki bu o'simliklar ham tabiatda o'z o'rniga ega bu o'simliklardan tibbiyotda ,farmotsevtikada va tabobatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan o'simlik hisoblanadi.Demak hulosa qilib aytganda.Tabiiy hududlarda o'suvchi kovrakni esa asrab-avaylash, yo'qolishiga olib keluvchi har qanday harakatlarga yo'l qo'ymaslik bugungi kunda dolzarb masaladir. Shundan kelib chiqib viloyatimizda kovrak etishtirish uchun qulay iqlim sharoiti mavjudligi, kam sarfli ekinligi bois plantasiyalar tashkil qilib, mavjudlarini yanada kengaytirish alohida ahamiyatga ega hisobladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mustafoev S. M. Botanika. Toshkent. «Ozbekiston» 2002
- 2.Sahobiddinov S. S. Gulli osimliklar sistematikasi. T. «O'qituvchi» 1966
- 3.Shostakovskiy S. A. Sistematika vosshix rasteniy. M. Vosshaya shkola.
- 4.O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi Toshkent 2020
- 5.X.X.Xolmatov, A.I.Qosimov Ruscha-Lotincha-O'zbekcha dorivor o'simliklar lug'ati, Toshkent-1992.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ТРАНСПОРТНОГО СРЕДСТВА

Аспирант - К.К.Юлдашов

Ферганский политехнический институт

Студент Орзаматов К.

Студент Янгибоев Э. Ж

Джизакский политехнический институт

Требования к конструкции автомобиля многочисленны, разнообразны и касаются вопросов производительности, экономичности, безопасности, надежности, комфорта, информативности автомобиля. Требования могут существенно отличаться в зависимости от того, кто их выдвигает. В рыночной экономике требования владельца автомобиля считаются наиболее важными.

Автомобиль, удовлетворяющий в максимальной степени существующим требованиям, считается наиболее качественным. Качество автомобиля определяется совокупностью его свойств, определяющих способность удовлетворять заданным требованиям в определенных условиях эксплуатации.

Все параметры и показатели, приводимые в технических требованиях, не являются окончательными, они корректируются на последующих этапах.

После составления технических требований, а чаще всего, параллельно начинается работа над созданием эскизного проекта.

Выполняемая на этапе эскизного проекта эскизная компоновка автомобиля должна содержать схему вместимости и схему шасси для выбранной компоновки автомобиля (рис. 1).




Рис. 1. Компоновочные схемы автомобилей: а – классическая; б – переднеприводная; в – заднемоторная; г – среднемоторная

На основании проработанных макетов оригинальных узлов и агрегатов создаются их рабочие макеты, которые устанавливаются на так называемых ходовых макетах для определения их работоспособности. По решению заказчика проекта может быть разработан демонстрационный ходовой макет.

Схема вместимости определяет:

- основные геометрические параметры автомобиля;
- размещение в салоне людей различной репрезентативности;
- требования по досягаемости и обзорности;
- расположение органов управления;
- габариты моторного и багажного отделений;
- размещение топливного бака и запасного колеса.

Схема шасси отражает информацию: по расположению двигателя и агрегатов трансмиссии; по приводу ведущих колес; по передней и задней подвескам; по рулевому механизму и приводу.

✓ Matematika darslarida o'rganiladigan har bir matematik xulosa qat'iylikni talab qiladi, bu esa o'z navbatida juda ko'p matematik tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi. O'quvchilar ana shu qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganishlari davomida ularning mantiqiy tafakkur qilishlari rivojlanadi, matematik xulosa chiqarish madaniyatlari shakllanadi. O'quvchilarni biror matematik qonuniyatni ifoda qilmoqchi bo'lgan fikrlarni simvolli tilda to'g'ri ifodalay olishlari va aksincha simvolli tilda ifoda qilingan matematik qonuniyatni o'z ona tillarida ifoda qila olishlariga o'rgatish orqali ularda matematik madaniyat shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "PEDAGOGS" international research journal

ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995, Ro'ziyev Azizjon Qobul o'g'l,

MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING ZAMONAVIY

TEKNOLOGIYALARI VA METODLARI, 165-b

2. Academic Research in Educational Sciences

VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021 ISSN: 2181-1385, Dildora O'ktam qizi Xasanova,

MATEMATIKA FANINI O'QITISH METODLARI, 1096-b

3. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal

ISSN: 2181-1601 Volume: 1, ISSUE: 5, Gulchehra Samatova,

MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING DOLZARB

MASALALARI, 326-b

INGLIZ VA O'ZBEK TILARIDA SOMATISM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TADQIQI

Muxiddinova Marjona Nodirbek qizi

*Andijon davlat chet tillari instituti Roman-german va
slavyan tillari fakulteti talabasi*

Axunov Muqimjon Muhammadaminovich

Ilmiy maslahatchi

ANNOTATSIYA

Ingliz va O'zbek tillarida somatism komponentli frazeologik birliklari keng tarqalgan til hodisalaridan bo'lmish komponentli frazeologik tahlili, ularning tarkibiy tuzilishi va shu bilan bog'liq bo'lgan semantikasini o'rganish va shu asosda ularni Ingliz va o'zbek tillarida komponentli frazeologik bilan qiyoslash, har ikkala til uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarni umumlashtirish va shu asnoda qiyoslanayotgan tillarning har biriga xos bo'lgan xodisalarni ochib berishdir.

Kalit so'zlar: frazeologik, somatism, komponent, ibora, tushuncha, tilshunoslik

Frazeologizmlar asosan shaxs tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, qandaydir tasavvurni ifodalaydi, insonning xulq-atvori, fiziologik va ruhiy holati ham shular jumlasidandir. Ushbu iboralarning tilga birikma sifatida shakllanilishida asosiy manbaa bo'lib hizmat qiluvchi badiiy asarlarning o'rni juda beqiyosdir, zeroki bu til hazinalarini o'zida mujassam etgan xalq orasida bot-bot qo'llaniluvchi til birliklari keyinchalik tilshunoslikning frazeologiya bo'limida o'rganiluvchi obekt sifatida fanga kiritiladi. Iboralar asosan turg'un birikma hisoblanib ular dunyoning barcha tillarida bir butun holda bir ma'no anglatadi. Masalan "Ko'rpanga qarab oyoq uzat" iborasi, o'zbek tilidagi so'zma so'z tushiniladigan ma'nosidan farqli o'laroq, "o'z sharoitingga ko'ra ish ko'r" ma'nosi anglatadi. Shuningdek ushbu vaziyat ingliz tili lingvistikasiga ham xos xususiyatdir. Masalan "An old hand at" iborasi biror bir bilim yoki maxoratni miridan sirigacha bilishni ifodalab, so'zma-so'z tarjimadagi lug'aviy ma'nosidan tubdan farq qiladi.

Jahon tillar frazeologiya maydonida somatik frazeologizmning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Somatism grek tilidan olingan bo'lib, "soma" -"tana" ma'nosini anglatadi. Frazeologik birliklarning insoniyat va uning hayotiy faoliyati va inson tana a'zolaribilan uzviy bog'liq va bunday tematik guruhlariga birikkan frazeologizmlarni somatik frazeologiyalar deyiladi.

"Somatism" so'zi ingliz tili "Collins English Dictionary"da "materialism" so'zi bilan sinonim sifatida keltirilgan va quyidagi ma'nolarni anglatadi:

1. "Interest in and desire for money, possessions, etc, rather than spiritual or ethical values" ya'ni "ma'naviy va madaniy qadriyatlardan ko'ra pul va boylikka bo'lgan ishtiyoq" deb keltirilgan.

2. Falsafada "the monist doctrine that matter is the only reality and that the mind, the emotions, etc, are merely functions of" ya'ni "monistik ta'limot: materiya yagona voqelik va aql, his-tuyg'ular va hoka itzolar faqat uning funktsiyalari" deb tushiniladi.

Somatism istilohiy ma'noni, biologik va fiziologik qobiliyatlar va xususiyatlarni ta'kidlash uchun ishlatiladigan so'zdir. Bu so'z odatda jismoniy faoliyat, fiziologik tuzilmalar, organlar va sistemalar bilan bog'liq bo'lgan narsalarni ifodalaydi. Somatism tibbiyot, fiziologiya, psixologiya va boshqa sohalarda ishlatiladi.

Lingvistikada esa somatizm so'zi grekchadan olingan bo'lib, "soma"- "tana" ma'nosini anglatadi. Jahondagi ko'pchilik tillar maqollarinig asosiy qismini somatik birliklar tashkil etadi. Oxirgi yillarda somatik birliklar ishtirok etgan maqollar va iboralar turli xil tillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning bosh mavzusi bo'lib kelmoqda. Ular shu xalq dunyo qarashini, dinini, urf-odatini, yashash tarzi va tarixini o'zida mujassamlashtiradi.

Somatism tilshunoslikda jismoniy holatlar, tuzilmalar va faoliyatlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni tushunish uchun ishlatiladi. Somatism tilshunoslikda, kishilarning jismoniy hissiyotlari, ahamiyati, fizikaviy qobiliyatlarini va boshqa jismoniy xususiyatlari o'rganiladi. Bu so'z psixologiya va tilshunoslik sohalarda jismoniy faktorlarni ta'kidlash uchun ishlatiladi. Somatism tilshunoslikda jismoniy va psixologik holatlar orasidagi aloqalar va ta'siratni tushunishda yordam beradi.

"Iboralar" so'zi "tilshunoslik" yoki "lingvistika" sohasida foydalanilib, asosan xalq orsida keng tarqalgan bo'lib ular turgun birikma sifatida tilga kirib keladi. Har bir ti o'ziga xos iboralariga ega jumladan ingliz tilida ham yillar davomida xalq orasida keng tarqalgan ajralmas so'z birliklari ibora sifatida shakillangan. Ushbu iboralar inson tanasi ishtirok etgan birliklarni ham o'z ichiga olgan va ushbu birliklar somatism komponentli birikmalar deb ataladi. Somatik birliklar qo'l (hand), oyoq (foot or leg), oshqozon(stomach), bosh (head), barmoq (finger), ko'z (eye), yuz (face), burun (nose), tirnoq (nail), quloq (ear) kabi tana a'zolarini o'z ichiga oladi.

Somatik iboralar tilga stilistik boyoq berishda va badiiy asarlar yozishda katta ahamiyatga ega, ular turli ma'noda keluvchi so'zlarni birlashtirib tag zamirida katta ma'no hosil qiladi. Hamda ushbu iboralar tilshunoslikdagi muhim ma'lumotlar, qonuniyatlar, o'zgarishlar va tarixiy o'zgarishlarni ta'riflashda yordam beradi.

Iboralar tushuntirilishi kerak bo'lgan tilning tarixi, qoidalar va qonuniyatlarini tushuntirishga yordam beradi. Tilshunoslikda iboralar tilning qismlarini, ularning funktsiyalarini va ulardagi o'zgarishlarni tushuntirish uchun ham ishlatiladi. Iboralar so'zi lingvistika sohasida foydalaniladi va tilshunoslikning muhim qismlaridan biri

hisoblanadi. Bu so'z tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarda, darsliklarda va maqolalarda ko'p foydalaniladi.

Hamma o'zining nutqi boy, hissiy va ifodali bo'lishini istaydi. Bunga erishishning asosiy usullaridan biri bu turli xil frazeologik iboralar, maqollar, so'zlar, rangli iboralarni oqilona ishlatishdir. XXI asrda tilshunoslikning eng aniq yo'nalishlaridan biri bu tilshunoslik va pragmatikaning tuzilishi va mantiqiy ma'nosidagi bog'liqligi. Pragmatika falsafasi bilan bog'liq asosiy parametrlar 1920-yilda Morris tomonidan ishlab chiqilgan. Keyinchalik zamonaviy lingvistik yo'naltirilgan pragmatika Nitgenshteynning ta'sirli g'oyalari va nutq aktlari nazariyasi asosida ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A., Nurmonov A. va b. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati – Toshkent: Sharq, 2001. – 336 b.
2. Hojiyev A. Lingvistik terminlar izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. –144 b.
- 3 . Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк.Тошкент, I том, 1960. –250б; II том,1961. –214б; III том, 1963. –257 б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –231 б.
- 5 . Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
6. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg'u bilig”.- Toshkent, 1991
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. –Тошкент: Давлат илмий нашриёти, А ҳарфи. – 879 б. www.ziyouz.com кутубхонаси.
- 8 . Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент 5 жилдлик. – Тошкент, 2006.
9. M. Abduraximova. Qisqa o'zbekcha va ruscha izohli lug'at – Tashkent “O'qituvchi” nashriyoti, 1980
- 10.I .A.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” Ma'naviyat .2008.39 b

BUTUNDUNYO POCHTA ALOQALARI TARIXIDA XIZMAT TURLARI RIVOJI

Zebo Yaxshiyeva

*TATU Qarshi filiali "Axborot ta'lim
texnologiyalari va GF" kafedrasini mudiri*

Noila Xushvaqtova

Pochta aloqalari texnologiyalari yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pochta aloqalar tarixida Movorounnahr hukmdori Amir Temurning xizmatlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, pochta aloqalari sohasida muhim rol o'ynovchi jihatlardan pochta bo'limining vazifalari va pochta indekslari haqida ma'lumotlar berilgan.

Key words: *Pochta aloqalari, Amir Temur, pochta indekslari, pochta jamg'armalari yoki bank to'lovlari, Tasvir, Perforatsiya, Nominal*

Bu soha rivoji tarixiga nazar tashlasak, turli millat vakillari aloqa almashinuvida turli mamlakat va diyoralarda bu vazifa turlicha amalga oshirilgan, ular ba'zan kabutarlar, ba'zan choparlar, elchilar, vakillar, xatto iste'mol mahsulotlari orqali amalga oshirganliklarining ham guvohi bo'lamiz. Jumladan, Movorounnahr tarixida o'z qurgan saltanatda xat almashinuvigina emas, balki aloqa, ma'lumot almashinish vositalarining turli tumanligi va g'ayritabiiyligi bilan bugungi kunda ko'pchilik olimlar va soha vakillarini hayratlantirgan Amir Temurning tadbirlari talaygina. Jumladan, Amir Temur saroyida mehmon bo'lgan Rui Gonsales de Kalavixoning sayohat kundaliklarida keltirilishicha, Temur saroyida xatlar shunchalik tez yetkazilar ediki, unshu xatlarni yetkazuvchi choparlar, har bir davlatda minib kelgan ulovlarini almashtirish imkoni mavjud edi. Shuningdek, afsonalarga ko'ra yigirma olti davlatni muxtasar aylagan Amir Temur davlatida osoyishtalik va karvon yo'llaridagi qaroqchilarga qarshi kurashish choralari bu xat tashuv aloqalarida as qotar edi. Bugungi kunda mana shunday aloqalar bilan shug'ullanuvchi soha Pochta bo'limlari nomi bilan yuritilib kelmoqda. Ular aslida qadimdan boshqa davlatlarda qanday vazifani bajarib kelgan?

Pochta bo'limi 150 yildan ortiq vaqtdan beri mavjud bo'lib, aloqa va kichik konlarda katta rol o'ynaydi. U butun mamlakat bo'ylab aloqa to'siqlarini engib o'tdi, bu esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam berdi. Hukumat pochta bo'limlarini omonatlarni qabul qiladigan banklar qilib qo'ydi. Pochta bo'limlari turli xizmatlar ko'rsatadi. Ular nafaqat pochta jo'natmalarini yetkazib berish bilan shug'ullanadilar, balki omonatlarni qabul qiladilar, blankalarni sotish, hisob-kitoblarni

yig'ish va h.k. kabi chakana xizmatlarni taqdim etadilar. jamg'arma sxemalari, hayotni sug'urtalash to'lovlarini taqdim etadilar.

Pochta bo'limi — xatlar va posilkalarni qabul qilish, pochta qutilari bilan ta'minlash, pochta markalari, qadoqlash va kantselyariya buyumlarini sotish kabi pochta xizmatlarini ko'rsatuvchi jamoat ob'yekti va chakana sotuvchi. Pochta bo'limlari qo'shimcha xizmatlarni taklif qilishi mumkin, ular mamlakatga qarab farqlanadi. Bular hukumat shakllarini (masalan, pasport dasturlari, davlat xizmatlari va yig'implarni qayta ishlash (yo'l solig'i, pochta jamg'armalari yoki bank to'lovlari kabi). Pochta bo'limining bosh administratori pochta ustasi deb ataladi.

Pochta indeksleri va pochta bo'limi paydo bo'lishidan oldin, pochta tizimlari qabul qilish yoki yetkazib berish uchun ma'lum bir pochta bo'limiga jo'natar edi. 19-asrda Qo'shma Shtatlarda bu ko'pincha kichik jamoalar o'z pochta bo'limlari nomi bilan atalishiga olib keldi, ayniqsa, Pochta bo'limi shtat ichida pochta bo'limlari nomlari takrorlanmasligini talab qila boshlaganidan keyin.

“Pochta bo'limi” atamasi odatda mijozlarga xizmat ko'rsatadigan davlat pochta ob'ektlariga ishora qiladi. “Bosh pochta bo'limi” ba'zan pochta xizmatining milliy shtab-kvartirasi uchun ishlatiladi, hatto bino mijozlarga xizmat ko'rsatmasa ham. Faqatgina pochta jo'natmalarini qayta ishlash uchun foydalaniladigan pochta ob'ekti o'rniga saralash idorasi yoki yetkazib berish idorasi sifatida tanilgan bo'lib, unda saralash yoki pochta zali deb nomlanuvchi katta markaziy maydon bo'lishi mumkin. Pochtalarni qayta ishlashni temir yo'l stantsiyalari yoki aeroportlar bilan birlashtirgan integratsiyalashgan ob'ektlar pochta almashinuvi deb nomlanadi. Bu faoliyatni Butunjahon pochta ittifoqi tartibga solib turadi Butunjahon pochta ittifoqi frans. Union postale Universelle) — 1874-yili Bern shartnomasi imzolanishi natijasida tashkil qilingan, Birlashgan Millatlar tashkilotining (BMT) ixtisoslashgan muassasasi hisoblanadi. Ittifoq vazifasi a'zo davlatlar o'rtasida pochta aloqalarini muvofiqlashtirishdan iborat.

Pochta aloqalari rivojida pochta omonat kassalarining o'rni va roli katta Ular turli vazifalari va faoliyatni o'z ichiga oladi:

1) Investorlar uchun turli imtiyozlar:

Bu investorlarga Done turli xil imtiyozlarni beradi. Markaziy hukumat pochta bo'limlariga rejalashtirilgan banklarga nisbatan yuqori foiz stavkasini berib, Milliy jamg'arma harakatini ommalashtirishga harakat qildi. Bu kam daromadli odamlarning jamg'armalarini safarbar qilishga yordam berdi.

2) Turli jozibali sxemalar:

Pochta bo'limlari investorlarning talabiga binoan turli xil sxemalarni taqdim etadi. Soliq tejash, kichik jamg'armalarga qaraganda yuqori daromadli guruhlarda juda mashhur.

3) Har xil soliq imtiyozlari:

Pochta bo'limlarida amalga oshirilgan investitsiyalar investorlarning soliqlarini tejashga yordam beradigan turli xil sxemalarni taqdim etadi, chunki ma'lum chegaralar bo'yicha investitsiya hissasi yoki foiz daromadi soliqdan yoki ikkalasidan ham turlicha ozod qilinadi.

4) Pochta bo'limi investorlarning jamg'armalari bo'yicha jozibador stavkani taqdim etadi, bu esa nominatsiya qilish imkoniyatini ham ta'minlaydi. Ushbu jamg'armalarni Hindiston bo'ylab boshqa pochta bo'limlariga o'tkazish mumkin.

5) Xavfsiz investitsiyalar:

Ular Hindiston hukumati qaroriga binoan aholiga xavfsiz va jozibador investitsiya imkoniyatini taqdim etadi.

6) Resurslarni safarbar qilish:

Pochta bo'limlari davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ulkan resurslarni safarbar qilish uchun ishlatilishi mumkin.

7) jamoatchilikni jalb qilish:

Pochta bo'limining turli sxemalari soliq imtiyozlari va yuqori daromad olish uchun pochta bo'limi hisoblarini ochishga ko'proq jamoatchilikni jalb qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Pochta markasi - pochta xizmatiga oldindan to'lash uchun sotib olinadigan va pochta jo'natmalariga yopishtiriladigan qog'oz. Odatda, to'rtburchak yoki kvadrat shaklda bo'ladigan bu markalar konvertga yopishtirilib, bu o'sha jo'natma uchun yuboruvchi tomonidan qisman yoki to'liq to'langanini isbotlaydi.

Bugun kunda bizga mashhur pochta markalarida quyidagi qismlar mavjud:

1. Tasvir
2. Perforatsiya
3. Nominal
4. Mamlakat nomi

Bugun barcha sohalar bilan bir qatorda pochta aloqasi sohasida ham ulkan o'zgarishlar ro'y berayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Insonlar hayotida pochta aloqasi alohida ahamiyatga egadir. Barcha ijtimoiy qatlamlariga pochta xizmatlarining keng tarqalganligi, qamrovliligi hamda uning xizmatlaridan barcha aholi foydalanishi mumkin bo'lganligi sababli, O'zbekiston pochta xizmati faoliyati jamiyatimizda katta ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Oxirgi yillarda respublikamiz pochta aloqasi xizmati milliy operatori hisoblangan "O'zbekiston pochta xizmati".

Hozirgi kunda pochta aloqasining an'anaviy xizmatlarini takomillashtirish, ularni raqamlashtirish, jo'natmalarni qabul qilish, kuzatib borish va yetkazish jarayonlariga axborot texnologiyalari va tizimlarini joriy etish maqsadida, "Pochta xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimi" ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda 860 ta pochta aloqa obyektlarida "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali" dan foydalanilgan holda 33 turdagi davlat xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yildi. 110 ta

pochta aloqasi ob'ektlarining binosini davlat-xususiy sheriklik asosida zamonaviy ko'rinishga keltirish yuzasidan ro'yxatlar shakllantirildi va 31 ta pochta aloqasi obyektlarining binosini zamonaviy ko'rinishga keltirish yuzasidan ta'mirlash va qayta qurish ishlari boshlangan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bozor iqtisodiyoti sharoitida raqabatbardoshlikka intilayotgan "O'zbekiston pochta" AJ, hozirgi kunda pochta xizmatlarini ko'rsatayotgan ko'plab mahalliy pochta kuryerlik kompaniyalari, yurtimizda ushbu faoliyatni yuritayotgan xorijiy kompaniyalar uchun anchadan buyon intiqib kutilayotgan qaror bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda belgilangan vazifalarni bajarish barcha soha mutaxassislari, xodimlari, mutasaddi korxonalar va tashkilotlar oldida turgan muhim va dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan hisoblanadi, chunki, yurtimizda pochta xizmatlaridan foydalanish aholimiz kundalik hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Броди Ян. Продающие рассылки. Москва. 2014. 208 С
2. <https://en.wikipedia.org>
3. manba uza.uz
4. Mirsaid Aripov. Internet va pochta aloqalari asoslari: Toshkent: 2000. 132 P.
5. Z. Yaxshiyeva. DEVELOPMENT OF A MULTIMEDIA E-LEARNING RESOURCE FOR LEARNING ENGLISH. GOLDEN BRAIN, 2023.
6. Z.R.Yaxshiyeva. HISTORICAL REALITY AND ITS ARTISTIC INTERPRETATION. NeuroQuantology, 2022.
7. YZ Rashidovna. INGLIZ ADABIYOTSHUNOSLIDGIA TEMUR OBRAZI YORITILISH USLUBLARI.
8. Z Rashidovna - «RAUF PARFI IJODINING MA'NAVYIY-MA'RIFIY OMILLARI, 2023.
9. YZ Rashidovna. JAHON ADABIYOTSHUNOSLIGIDA AMIR TEMUR OBRAZI TALQINLARINING QIYOSIY TADQIQI.
10. Z Yaxshiyeva - XVI ASR INGLIZ ADABIYOTIDA YORITILGAN TEMUR OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI. - Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. 2023.

IRSIYAT QONUNIYATLARI USTIDA OLIMLARNING OLIB BORGAN TADQIQOTLARI

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani
2-son kasb – hunar maktabi
Biologiya fani o'qituvchisi
Davrona Marfuza A'zamjonovna*

Annotatsiya: Irsiyat — organizmning o'z belgilari va xususiyatlarini kelgusi avlodlarga o'tkazish, ya'ni organizmlarning o'ziga o'xshash nasllarni bunyod etish xossasi. Irsiyat tufayli avlodlararo moddiy va funksional izchillik ta'min etiladi. Irsiyat har xil turlarga mansub organizmlar belgi va xususiyatlaridagi tafovutlarning avlodlar osha saqlanib qolishini ham ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Irsiyat qonuniyatlari, DNK molekulalari, xromosomlar, Ginko biloba, Genetik tadqiqotlar, Mendel tadqiqotlaridan, Morgan tadqiqotlari.

Аннотация: наследственность — это свойство организма передавать свои признаки и свойства будущим поколениям, то есть организмы производят потомство, идентичное им. Благодаря наследственности обеспечивается материальная и функциональная согласованность между поколениями. Наследственность организмов разных видов также гарантирует, что различия в признаках и характеристиках сохраняются из поколения в поколение.

Ключевые слова: законы наследственности, молекулы ДНК, хромосомы, гинко билоба, генетические исследования, исследования Менделя, исследования Моргана.

Organizmlarning o'zaro o'xshashlik va qarindoshlik darajasiga binoan oila, urug', tur kabi sistematik guruhlariga muayyan tartibda taqsimlanishining asosida ham irsiyat yotadi. Irsiyat tufayli bitta sistematik guruhga mansub organizmlar belgilarining turg'unligi, ya'ni o'zaro o'xshashligi bilan birga ularning bir-biridan farq qiladigan belgilar ham saqlanib qoladi. Irsiyat ning muayyan bir yo'nalishda ta'siri tufayli organizm belgilarining avlodlar osha turg'unligi ta'min etiladi. Irsiyat organizmlar ontogenezining turg'unligi, ontogenez bosqichlari ketmaketligini va bu jara-yonlarda moddalar almashinuvi xususiyatlarini belgilab beradi. Irsiyatning yana bir xususiyati uning o'zgaruvchanligidir. Binobarin organizmlar irsiy belgilarining turg'unligi mutloq bo'lmaydi.

Turli xil organizmlar bir-biridan turg'unlik darajasi bilan farq qiladi. Masalan, paleozoy erasi perm davridan saqlanib qolgan ochiq urug'lilar vakillaridan ginko (Ginko biloba) ni qazilma ajdodlari bilan solishtirilganda million yillar o'tgan bo'lishiga qaramay bir qancha irsiy belgilar deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolganligi

ko'zga tashlanadi. Xuddi shu tariqa panjaqanotli latimeriya balig'i (*Latimeria chalumnae*) ham million yillardan buyen deyarli o'zgarishsiz Hind okeanining jan.-g'arbiy qismida saqlanib qolgan. Lekin aksariyat hollarda irsiyatning turg'unligi muayayn darajada nisbiy bo'ladi. Organizm genetik omillar va yashash sharoitining o'zaro ta'siri natijasida rivojlanganligi tufayli irsiyat ham genotip va tashki sharoitning ta'sirida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Aksariyat hollarda irsiyat xromosomalar tarkibidagi DNK molekulasida joylashgan genlar orkali amalga oshadi. Bunday irsiyat xromosoma yoki yadro irsiyati deyiladi.



1-rasm. DNK molekulalar zanjiri

Genlarning nisbatan kam qismi sitoplazmada joylashgan pla-stidalar va mitoxondriyalarda, ya'ni xromosomalar bilan bog'liq bo'lmagan hujayra elementlarida joylashgan bo'ladi. Bu genlar faoliyati orqali amalga oshadigan irsiyat sitoplazmik Irsiyat deyiladi. Irsiyat tufayli organizmlar har xil guruhlarining nisbatan mustaqilligi, ularning yaxlit sistema (populyasiyalar, turlar) sifatida muayyan yashash sharoitiga moslashganlik xususiyatlari saqlab qolinadi. Ilmiy sababdan irsiyat evolyusion jarayonning eng asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Genetik tadqiqotlar natijasida qator irsiyat qonunlari kashf etildi.

Mendel tadqiqotlaridan kelib chiqadigan irsiyat qonunlari quyidagilardan iborat: organizm belgi va xususiyatlarining irsiy asosini genlar tashkil etadi; irsiyat birligi bo'lgan genlar nisbatan turg'unidir; har bir gen har xil allel (dominant va retsessiv) xrlatda bo'ladi; tana hujayralarida genlar jinsiy hujayradagiga nisbatan ikki hissa ko'p.

Qadimdan odamlar farzandlar: o'g'il yoki qizning o'z ota-onalariga o'xshashligini kuzatganlar. Lekin shunga qaramay, ko'p asrlar mobaynida irsiyat muammosi hal qilinmagan. Faqat XIX asming ikkinchi yarmiga kelib, irsiyat

qonunlarini ixtiro qilishga musharraf boiindi. Shu bobda irsiyatning duragaylash metodi, Mendelning irsiyat qonunlari odam irsiyatiga ham tegishli ekanligi isbotlangan. Nima uchun bug'doydan bug'doy, arpadan arpa hosil boiadi, qo'ydan qo'zichoq tug'iladi, har bir bola ota- onasiga o'xshash boiadi, degan masala ming yillar mobaynida odamlarni qiziqtirib kelgan. Faqat chex tabiiyotshunosi Gregor Mendel birinchi marotaba bu jumboqni yechdi va irsiyat qonunlarini ixtiro qilishga muvaffaq boiadi. Irsiyat qonunlarini yaratishga imkon bergan Mendel tadqiqotlarining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

- Birinchidan, Mendel o'z o'tmishdoshlaridan farqli ravishda ota- ona organizmlarning ko'p belgi-xossalarni birdan emas, balki ayrim belgilarining irsiylanishini tadqiq qildi.

- Ikkinchidan, Mendel duragaylash uchun irsiy jihatdan toza organizmlarni tanlab oldi.


- Uchinchidan, Mendel duragaylash uchun qarama-qarshi belgilarga ega organizmlarni jalb etdi.

- To'rtinchidan, u ota-ona belgilarning irsiylanishini duragaylarning bir necha avlodida o'rganishni maqsad qilib qo'ydi.

- Beshinchidan, Mendel duragaylar orasidan ota-onaga o'xshash individlarni hisoblab chiqishga va ularning nisbatini aniqlashga harakat qildi.

Bularning hammasi irsiyat qonunlarini ixtiro qilishga imkon yaratdi. Yuqoridagi talablarni o'simlik va hayvonlarga nisbatan qo'llash mumkin. Shu jihatdan qaraganda, odam genetik tadqiqotlarni olib borish uchun noqulay obyekt sanaladi. Shunga qaramay, tadqiqotchi olimlar tomonidan odamlarda ko'p belgi-xossalarning irsiylanishi aniqlangan.

Amerikalik T. Morgan tadqiqotlari negizida quyidagi irsiyat prinsiplari aniqlandi: gen xromosomaning lokus deb nomlangan ma'lum bir qismida o'rinishgan; allel genlar gomologik xromosomalarning aynan o'xshash lokuslarida o'rin oladi; genlar xromosomalarda muayyan tartibda bir qator bo'lib joylashgan; jinsiy hujayralarda xromosomalarni soni tana xujayralariga nisbatan ikki hissa kam (gaploid) bo'ladi. Zigotada genlar jinsiy hujayralarning xromosomalari qo'shilishi ham ikki baravar ortadi va somatik hujayralarda bo'lganidek diploid holatga o'tadi. Irsiyat prinsiplari negizida genlarning molekulyar genetik strukturasi va funksiyasi haqidagi ta'limot yotadi. I. qonuniyatlarini o'rganish qishloq xo'jaligi amaliyotida va tibbiyotda muhim ahamiyatga ega.



2-rasm. Jinsni bildiruvchi X va Y xromosomalar

Aniqlangan barcha ma'lumotlarni jamlagan holda Morgan gen X xromosomada joylashadi yoki u bilan juda ham mustahkam aloqada degan to'g'ri xulosaga keldi. Bu xulosaning tasdig'i keyinroq Morganning shogirdi Kelvin Bridj tomonidan o'z isbotini topdi. Bridj noyob va kutilmagan ko'z rangiga ega erkak yoki urg'ochi pashshalar meyozi jarayonida jinsiy xromosomalarning noto'g'ri ajralishi natijasida hosil bo'lishini ko'rsatdi, bu esa Morgan qonuni uchun istisno holatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bergmann, D. C. (2011). The chromosomal theory of heredity. In *Genetics lecture notes*. Biosci41, Stanford University, 21.
2. Morgan, T. H. (1910). Sex-limited inheritance in *Drosophila*. *Science* 32, 120-122 (page 1 of reprint). Retrieved from <http://www.esp.org/foundations/genetics/classical/thm-10a.pdf>.
3. Robbins, R. J. (2000). Introduction [to ESP edition of "Sex limited inheritance in *Drosophila*"]. In *ESP foundations reprint series*, v. Electronic Scholarly Publishing Project. Retrieved from <http://www.esp.org/foundations/genetics/classical/thm-10a.pdf>.
4. Morgan, T. H. (1910). Sex-limited inheritance in *Drosophila*. *Science* 32, 120-122 (page 4 of reprint). Retrieved from <http://www.esp.org/foundations/genetics/classical/thm-10a.pdf>.
5. Morgan, T. H. (1910). Sex-limited inheritance in *Drosophila*. *Science* 32, 120-122 (page 6 of reprint). Retrieved from <http://www.esp.org/foundations/genetics/classical/thm-10a.pdf>.
6. Robbins, R. J. (2000). Introduction [to ESP edition of "Sex limited inheritance in *Drosophila*"]. In *ESP foundations reprint series*, vi. Electronic Scholarly Publishing Project. Retrieved from <http://www.esp.org/foundations/genetics/classical/thm-10a.pdf>.

ENERGETIKA TIZIMINING BOSHQA TIZIMLAR BILAN BOG'LIQLIGI VA ENERGIYA SAMARADORLIK ASOSLARI

Soliyev Murodjon

Farg'ona viloyati Oltiariq tumani

2-son kasb – hunar maktabi Ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Annotatsiya: Insoniyat taraqqiyotida kishilarning turli energiya manbalariga bo'lgan ehtiyojlari ularni tabiiy manbalar — o'tin, ko'mir, torf va boshqalar yoqilg'ilardan, shamol, suv oqimi energiyasi (mas, shamol va suv tegirmonlari) dan foydalanishga majbur qildi. Ushbu maqolada energiya tizining boshqa tizimlar bilan bog'liqligi, energiyaning samaradorlik asoslari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Energetika tizmi, energiya samaradorligi, energetika, energiya manbalari, energetik tejamkorlik, energetik tejamkorlikni boshqarish.

Annotation: in human development, the needs of people for various sources of Energy forced them to use natural sources — wood, coal, peat, etc. - from fuels, wind, water flow energy (mas, wind and water mills). This article presents the relationship of the energy knee to other systems, the basis of energy efficiency.


Keywords: energy Ridge, Energy Efficiency, Energy, energy sources, energy conservation, energy conservation management.

Energetika — energiyaning har xil turlarini hosil qilish, ularni bir turdan ikkinchi turga o'zgartirish, muayyan masofaga uzatish va yetkazib berish, ulardan barcha sohalarda foydalanishni hamda shular bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolarni hal qilishni o'z ichiga olgan xalq xo'jaligi, fan va texnika sohasi.

Energiya turlarining har biri o'z o'lchov birliklariga ega va ushbu ko'rsatkich orqali miqdoriy baholanadi. Masalan mexanik energiya 1 J (Joul) bilan o'lchanadi. Bu - 1 N (Nyuton) kuchni biron bir jismni kuch ta'siri yo'nalishi bo'yicha 1 m ga siljitishda bajargan ishi $1J=1N \cdot m$. Elektr energiya Vatt.soat yoki kVt.soatda ($1kVt.soat=3,6MJ$) baholanadi va iste'mol qilingan elektr energiyasiga xaq to'lashda qo'llaniladi.

Issiqlik energiyasini o'lchov birligi etib Kalloriya ($1 kal=4,1868 J$). 1 kal – 1 gramm suvni (normal bosimda) $14,5^{\circ}S$ dan $15,5^{\circ}S$ ga qizdirishga sarflangan energiya. Kvant fizikasida zarrachalar energiyasini o'lchov birligi etib elektron volt ($1 eV=1,60219 \cdot 10^{-19} J$) qabul qilingan.

Energiya manbalari bugungi kunda butun dunyoda energiya manbai sifatida uglevodorod yoqilg'ilardan (ko'mir, gaz va neft) va yadro yoqilg'isi keng foydalanilib kelinadi. Ko'pchilik birlamchi yoqilg'i resurslar, jumladan qazib olinadigan resurslar quyosh energiyasini turli vaqtda har xil vaqt oraliq'ida o'zgarishi mahsulidir. Birlamchi yoqilg'i resurslarning boshqa manbalari - Yer yadrosining yadroviy reaksiyasi, Yer, Oy va Quyosh orasidagi o'zaro ta'sir gravitatsion kuchlar, har xil moddalarning kimyoviy va yadro reaksiyalaridir.



Dunyoda kechayotgan jadal rivojlanish va aholi sonini muntazam ortib borishi mos ravishda energiyaga bo'lgan ehtiyojni ham ortishiga olib kelmoqda. Shu bilan bir qatorda qidirib topilgan an'anaviy uglevodorod yoqilg'i zaxirilari ekspertlar xulosisiga ko'ra 60 yilga yetishi bashorat qilinmoqda. Yuzaga kelgan ushbu holat, bugun keng foydalanib kelinayotgan, an'anaviy energiya manbalari bilan bir qatorda yangi noan'anaviy energiya manbalarini o'zlashtirishni, ulardan foydalanish texnologiyalarini rivojlantirishni birinchi darajali dolzarb muammo deb qarashlikni taqozo etadi. Ko'pchilik birlamchi energiya manbalari, jumladan qazib olinadiganlari quyosh energiyasini turli vaqt oralig'ida o'zgarishi mahsulidir.



Tabiatdagi mavjud birlamchi energiya manbalarini shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin: Qayta tiklanmaydigan va qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Qayta tiklanmaydigan energiya manbalari - inson tomonidan energiya ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin bo'lgan modda va materiallarning tabiiy zaxirasi. Bunga yadro

yoqilg'isi, ko'mir, neft, gaz misol bo'ladi. Qayta tiklanmaydigan energiya manbalari, qayta tiklanuvchan energiya manbalardan farqli o'laroq tabiatda bog'liq holda uchraydi va insonning maqsadli faoliyati natijisida ajratib olinadi. Qayta tiklanmaydigan energiya manbalari, qayta tiklanuvchan energiya manbalardan farqli o'laroq tabiatda bog'liq holda uchraydi va insonning maqsadli faoliyati natijisida ajratib olinadi. Qayta tiklanuvchan energiya manbalari (QTEM) - yer yuzasi va havoda moddalar, kuch va energiyalarni o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladigan tabiiy energiya oqimi bo'lib, inson faoliyati maxsuli emas.

Energiya samaradorlik asoslari asosan uch tartibga bo'linadi:

Energetik tejamkorlik: jarayon $kVt*s$; Gkal, m; sh.yo.b. energiya resurslarini qo'llashda mos ravishda foydali samarani saqlash (shu jumladan, ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar), foydalanilayotgan energetik resurslar hajmini kamaytirishga yo'naltirilgan tashkiliy, huquqiy, texnik, texnologik, iqtisodiy va boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Energetik samaradorlik: ko'rsatkich $kVt*s/t$; sh.yo.b./ Gkal... Mahsulotga, texnologik jarayonga, yuridik shaxsga, shaxsiy tadbirkorga nisbatan shunday samarani olish maqsadida ishlab chiqarilgan energetik resurslarni qo'llashdan energetik resurslar xarajatiga nisbatan foydali samarani ko'rsatadigan xarakteristika



Energetik tejamkorlikni boshqarish: ishlab chiqarish, qayta ishlash, transportda olib yurish, saqlash, taqsimlash va iste'mol faoliyat jarayonida energetik resurslarni qo'llash samaradorligini iqtisodiy asoslashni ta'minlashga yo'naltirilgan tashkiliy tadbirlar majmui.

Energiya samaradorlikni ta'minlashda tizimli yondoshuv.

- Energetik tekshiruv (energoaudit).
- Energetik menejment tizimini joriy etish.

- Energiya samaradorlikni oshirish dasturi.
- Dasturni bosqichma-bosqich amalga oshirish.
- Iqtisodiy samarani monitoring qilish.

Hulosa qilib shuni aytish kerakki, keyinchalik fan va texnika taraqqiyoti, fantexnika inqilobi tufayli 20-asrning 2-yarmidan boshlab asosan energetikaga ehtiyoj juda oshib ketdi. Shu sababdan energiyani samaradorligini oshirishdagi qonuniyatlarga amal qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. John Twidell and Tony Weir Renewable Energy Resources. Third edition. published 2015, 817 r. by Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon.
2. Radjabov A., Ibragimov M. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va foydalanish texnologiyalari. - T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2022. – 396 b.
3. Vardiyashvili A.B., Abduraxmonov A.A., Vardiyashvili A.A. Noan'anaviy va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishda energiya tejamkorlik. O'quv qo'llanma. Qarshi "Nasaf" nashriyoti, — 2012 yil. 184 bet.
4. Мухаммадиев М.М., Потаенко К.Д. Возобновляемые источники энергии. Учебное пособие, Ташкент, 2005. - 214 с.

OQSILLARNING ORGANIZMDAGI ASOSIY O'RNI

*Farg'ona viloyati Oltiariq tumani
2-son kasb – hunar maktabi
Biologiya fani o'qituvchisi
Davrona Marfuza A'zamjonovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oqsilning hususiyatlari, bugungi kunda barcha tirik organizmlarning asosiy qismi hisoblangan tiriklikka xos bo'lgan organik moddalar, oqsillar va ularning asosiy o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Oqsil, protein, qon plazmasi, fibrinogen, oksiprolin, oksilizin, diyodtirozin, fosfoserin.

Аннотация: В этой статье рассматриваются свойства белка, органических веществ, белков и их основное место в жизни, которые сегодня считаются основной частью всех живых организмов.

Ключевые слова: белок, протеин, плазма крови, фибриноген, оксипролин, оксилезин, диодтирозин, фосфосерин.

Organizmning oqsilga bo'lgan ehtiyojiga mavjud ozg'in tana massasini saqlash va o'smirning o'sish sur'ati davrida qo'shimcha yog'siz tana massasini oshirish uchun zarur bo'lgan Oqsil miqdori ta'sir qiladi. Oqsillarga bo'lgan talab 11-14 yoshdagi ayollar uchun va 15-18 yoshdagi erkaklar uchun eng yuqori bo'lib, bu eng yuqori balandlik tezligining odatiy vaqtiga mos keladi. Bolalar o'sishi va sog'lom rivojlanishi uchun etarli kaloriya va asosiy oziq moddalar bilan muvozanatli ovqatlanishni talab qiladi, ayniqsa o'smirlik davrida, katta o'sish va balog'atga etish ehtiyojlarini qondirish uchun oziqa ehtiyojlari ortib boradi. Oqsil mushaklarning rivojlanishi va tiklanishida katta rol o'ynaydi. Jinsiy balog'at davrida o'g'il va qiz bolalar otishma va rivojlanish jarayonida semirishadi. Bundan tashqari, o'g'il bolalar sezilarli miqdordagi yog'siz mushak massasini qo'yadilar, shuning uchun ularning oqsilga bo'lgan ehtiyoji qizlarga qaraganda yuqori. O'smir qizlar har kuni kilogramm vazniga taxminan 1/2 gramm oqsil kerak. Xuddi shu narsa o'g'il bolalar uchun ham amal qiladi.

Oqsilni ortiqcha iste'mol qilish foydali emas, chunki tana ortiqcha narsani oladi va uni energiyaga, ko'p hollarda yog'ga aylantiradi. Oqsillar turli o'lchamlarda va shakllarda uchraydi. Ayrimlari dumaloq (sharsimon) shaklda, boshqalari esa uzun, ingichka tolalar ko'rinishida bo'ladi. Misol uchun, qondagi kislorodni tashuvchi gemoglobin oqsili dumaloq oqsil deyiladi, teri tarkibidagi kollagen esa tolali oqsil hisoblanadi. Oqsil shakli uning vazifasi uchun juda muhim va keyingi maqolada biz oqsil shaklini saqlashda turli xil kimyoviy bog'lar muhim ahamiyatga ega bo'lishini ko'rib chiqamiz. Harorat va pH dagi o'zgarishlar, shuningdek, ayrim kimyoviy

moddalarning mavjudligi oqsil shaklining buzilishi va vazifasini yo'qotishiga olib kelishi mumkin, bu jarayon denaturatsiya deb ataladi.

Oqsillar hujayra tarkibiga kiradigan muhim modda hisoblanadi. Bolaning o'sishi, rivojlanishi organizmga yetarli miqdorda oqsil kirib turishiga bog'liq. Oqsillar aminokislotalardagi tuzilgan bo'lib, murakkab organik birikma hisoblanadi. Ular tarkibida 16% azot bo'ladi. Agar katta odam organizmiga kirgan azot chiqarilgan azotdan ortiqcha bo'lsa, azot balansi musbat bo'ladi, bunda organizmga kirgan oqsil miqdori parchalangan oqsil miqdoridan ko'payadi. Musbat azot balansi turli yosh davrlarida har xil bo'ladi. Organizmga kirgan azotning chiqarilgan azotdan kam bo'lishi manfiy azot balansi deyiladi. Bunda parchalangan oqsillar miqdori sintez qilingandan ortiqcha bo'ladi, natijada organizm hujayralaridagi oqsillar parchalanadi.

Hozirgi vaqtda oqsillar biologik funksiyasiga qarab quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Katalitik funksiya. Barcha biologik katalizatorlar – fermentlar – oqsil tabiatiga egadirlar. Hozirgi vaqtda 2100 dan ortiq fermentlar ma'lumdir. Oqsillarning bu funksiyasi noyob bo'lib, biologik sistemalardagi kimyoviy reaksiyalar tezligini aniqlab beradi.

2. Ozuqa (rezerv) funksiya. Bu funksiyani rezerv oqsillar amalga oshiradi, ular homilaning rivojlanishi uchun ozuqa manbai bo'ladilar, masalan tuxum oqsili (ovalbumin) bunga misol bo'ladi. Sutning asosiy oqsili kazein ham ozuqa vazifasini bajaradi. Boshqa qator oqsillardan, shubhasiz, organizm aminokislota manbai sifatida foydalanadi, ular o'z navbatida modda almashinish jarayonini boshqaruvchi biologik faol moddalarning o'tmishdoshi hisoblanadilar.

3. Transport funksiyasi. Qonning nafas funksiyasi, xususan kislorodning tashilishi eritrotsitlar oqsili gemoglobin molekulasida amalga oshiriladi. Lipidlarning tashilishida qon zardobining albumin oqsillari ishtirok etadilar. Boshqa qon zardobi oqsillari yog'lar, mis, temir, tiroksin, vitamin A bilan kompleks hosil qiladilar va ularni nishon-a'zolariga yetkazib berilishlarini ta'minlaydilar.

4. Himoya funksiyasi. Organizmda asosan himoya funksiyasini immun sistemasi bajaradi. U organizmga tushgan bakteriya, toksin yoki viruslarga qarshi himoya oqsil – qarshi tanachalarning sintezini ta'minlab beradi.

5. Qisqarish funksiyasi. Mushakning qisqarish va bo'shashish jarayonida juda ko'p oqsillar ishtirok etadilar. Lekin bu muhim jarayonda asosiy rolni aktin va miozin – mushak to'qimasining spetsifik oqsillari o'ynaydilar.

6. Struktur funksiya. Struktur vazifani bajaruvchi oqsillar odam organizmidagi boshqa oqsillarga nisbatan o'z miqdori jihatidan birinchi o'rinni egallaydilar. Ularga biriktiruvchi to'qima kollageni, soch, tirnoq va teridagi keratin, qon tomir devoridagi elastin va boshqalar kiradi. Uglevod va lipidlar bilan oqsillarning hosil qilgan kompleksi katta ahamiyatga ega.

7. Gormonal funksiya. Organizmdagi modda almashinuvi turli mexanizmlar yordamida boshqariladi. Bu boshqaruvda ichki sekretiya bezlarida ishlab chiqariladigan gormonlar asosiy o‘rinni egallaydi. Ko‘pchilik gormonlar oqsil yoki polipeptid tabiatiga egadirlar (gipofiz, oshqozon osti bezi gormonlari). 36 Lekin bu sanab o‘tilgan funksiyalar oqsillar bajaradigan barcha funksiyalar emas, haqiqatda oqsillar bajaradigan funksiyalar juda ko‘pdir. Hayvonlar to‘qima va a‘zolari oqsilga boydir. Ko‘pchilik bu oqsillar suvda yaxshi eriydilar. Lekin tog‘ay, soch, tirnoq, suyak to‘qimasidan ajratilgan suvda erimaydigan ba‘zi organik moddalar ham oqsillar guruhiga kiritilgan, chunki ular o‘zining kimyoviy tarkibi bo‘yicha mushak to‘qimasi, qon zardobi, tuxum oqsillariga yaqin. Oqsillar mushak, o‘pka, qora taloq, buyrak quruq massasining 70-80%ini, odam tanasi quruq vaznining 45%ni tashkil etadi. Hayvon to‘qimalaridan farqli ravishda o‘simliklarda oqsillar kam saqlanadi.

Oqsillarning kimyoviy tarkibi, tuzilishi va xususiyatlarini o‘rganish uchun odatda ularni suyuq to‘qimalar yoki oqsilga boy bo‘lgan hayvon a‘zolaridan, masalan: qon zardobi, sut, mushak, jigar, teri, soch, tirnoqdan ajratiladi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak oqsillar tirik organizmlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi, Hozirgi kunda O‘zbekistonda oqsillardan kimyo, biologiya qolaversa tibbiyot, qishloq xo‘jaligida ham turli maqsadlarda keng foydalanilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov U.Z., Abdumajidov A.A., Askaryans V.P. Bolalar fiziologiyasi. Toshkent. «Ibn Sino». 1999.
2. Klemesheva L.M., Almatov K.T., Matchonov A. Vozrastnaya fiziologiya. - Tashkent: NUUZ., 2002. - 123s.
3. Q.S. Sodiqov O‘quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi. Toshkent «O‘qituvchi» 1992.
4. Almatov X.T. Ulg‘ayish fiziologiyasi. M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU bosmoxonasi. T. – 2004-y.
5. A. Aripov, N. Shaxmurova. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. Toshkent. “Yangi asr avlodi” 2009.
6. Sodiqov B., Suchkarova L. Bolalar va o‘smirlar fiziologiyasi va gigiyenasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti. T. - 2005-y.

Internet saytlari:

1. www.bestmedbook.com/2004
2. www.ziyonet.com
3. www.arxiv.uz

G'AFUR G'ULOMNING HAYOT YO'LI VA ASARLARI HAQIDA

Odamboyeva Aziza Ahad qizi

*Nukus davlat pedagogika instituti Ellikqal'a pedagogika
fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotini o'z nodir asarlari bilan boyitgan ulug' hikoyanavis, shoir, qissanavis G'affur G'ulomning hayoti, ijod yo'li va asarlari haqida ma'lumotlar hamda adabiyotshunoslarning fikrlari bayon qilinadi.

Tayanch tushunchalar: so'z, qissa, adabiyot, hikoya, she'r, adabiy davr, "Vaqt" she'ri, ichki kechinma, "Shum bola" asari, "Netay" qissasi.

Nasr va nazmda o'zbek xalqi tarixini yoritgan, inson ichki kechinmalarini teran va nozik tarzda ifodalay bilgan, odamiylik, muruvvatni bayon qilgan o'tkir qalam sohib, XX asr o'zbek adabiyotining eng yorqin vakillaridan biri, atoqli shoir va yozuvchi, mohir tarjimon, yirik adabiyotshunos olim G'afur G'ulom o'z durdonalari bilan adabiyotimizni yanada yuksaklarga olib chiqdi.

Yozuvchining ijodi rang-barangdir. U yaratgan she'rlar, qo'shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar, qissalar barchaga birdek manzur keladi. Buyuk adib G'afur G'ulom haqida birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi:

"G'afur G'ulom shaxsi, xotirasi va merosi haqida gapirganda, biz bu ulug' insonni, avvalo, keng, tom ma'noda xalq shoiri, deb qiyos etamiz, uning o'lmas nomi va so'nmas ijodi oldida bosh egamiz." Darhaqiqat, o'ziga hos adabiy uslubga ega adibni bugun barchamiz e'tirof etar ekanmiz, asarlaridagi so'z qo'llash mahoratiga tan beramiz. Qissa va hikoyalarni o'qir ekanmiz eng kulgili joyida kulish bilan birga, kulgi ortida qandaydir g'ashlikni, asar qahramonlariga achinishni ham his qilamiz.

G'afur G'ulom 1903-yilning 10-may kuni Toshkentda, oddiy dehqon oilasida tug'ilgan. Otasi dehqon bo'lishiga qaramay, o'z davrining savodli kishilaridan bo'lgan. G'afur G'ulomni ijodga yaqin, ijodkorlar oilasida tug'ilgan desak ham bo'ladi. Chunki ko'plab manbalarda ularning uylariga

Furqat, Asiriy, Muqimiy, Xislat va boshqa shoirlar kelib turgani haqida ma'lumotlar bor. Bundan tashqari G'afur G'ulomning otasi o'zbek va tojik mumtoz adabiyotini o'qigan, rus tilini bilgan, o'zi ham she'rlar yozadigan savodli inson bo'lganligi aytiladi. U o'z tarjimai holida shularni yozgan: "Otam adabiyot bilan juda qiziqar edi, uyimizga o'zbek shoirlari va xattotlari kelib yurganini es-es bilaman. Amakim ham she'rlar yozar edi".

Ota-onasida erta yetim qolgan adib, turli qiyinchiliklarga yuzma yuz kelsa-da, hayotning past-u balandlari oldida bosh egib qolmasdan bilim olishga intiladi. Adib o'zining tarjimai holida bular haqida shunday yozadi: "Kirmagan eshigim, qilmagan

xizmatim, tutinmagan ishim qolmadi. Etikdo‘z kosibga shogird tushdim bo‘lmadi, Sariboy deganning olma bog‘ida qo‘riqchilik qildim bo‘lmadi. Keyin tunuka qirqib, mayda chega mixlar yasay boshladim: ish avval tuzuk edi, keyin mazasi qochdi, tirikchilik o‘tmaydigan bo‘ldi“. Aynan, G‘afur G‘ulom o‘z hayotidagi bunga o‘xshash vaoqealarni asarlariga ham olib kirdi va yuqoridagi holatini qisman bo‘lsa ham "Shum bola " qissasida yoritgan bo‘lsa, yetimlikda kechirgan qalb kechinmalanrini she‘rlarida ifodaladi.

G‘afur G‘ulom tabiatan hazilkash, kirishuvchan inson bo‘lgan. U haqida zamondoshlari juda ko‘p ma‘lumotlar, iliq fikrlar yozib qoldirishgan. Aynan, Said Ahma ham "G‘afur aka sira odamsiz turolmasdi. Hamma vaqt uyi to‘la odam bo‘lardi... Hazilni juda yaxshi ko‘rar edi ",- deb yozadi.[1]

Adib 1916-yil o‘qishga kiradi. Ham o‘qib, ham ishlagan. Yozuvchi o‘z hayotini ifodalagan “Feliks farzandlari” she‘rlaridan keyin, “Go‘zallik qayerda” nomli ikkinchi she‘ri nashr qilinadi. Shunda keyin adibning birin-ketin she‘riy to‘plamlari bosmadan chiqadi: “Dinamo”, “Xitoy suratlari”, “Biz sizlar bilan tirikmiz”, “Jonli qo‘shiqlar”, “Sizga”, “Sovg‘a”, “Tong qo‘shig‘i”, “Qo‘qon” va boshqalar. Urush yillarida esa G‘ofur G‘ulom “Sen yetim emassan”, “Seni kutyapman, o‘g‘lim!”, “Vaqt”, “Kuzatish”, “Ayol”, “Bizning ko‘chada ham bayram bo‘lajak” kabi ajoyib she‘rlar yaratgan. Shoirning o‘zi Bedil ijodiga ixlosmandligi barchamizga ma‘lumdir. O‘zbekiston xalq shoiri Ramz Bobojon G‘afur G‘ulomning Bedilga munosabatini xotirlar ekan: “...G‘afur G‘ulom adabiy uchrashuvlarda, do‘stona gurunglarda o‘zini Mirzo Abdulqodir Bedilning to‘qqizinchi nevarasi, deb atardi. Zero, bu bir qaraganda hazil-mutoyibaday tuyulsa ham, aslida chin! Bu gapning tagida olam-jahon haqiqat yotadi. G‘afur G‘ulom zuvalasiga Bedil xamirturishi, uning qalamiga Hazrati Navoiy nazari tushgan desam, adashmayman”,- deb yozadi.[2] Adibning "Vaqt " she‘ri haqiqiy adabiy durdona sanaladi.

*...Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g‘animatdir umrzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.*

Bu she‘r mahoratli shoirning falsafiy qudratini, so‘z san‘atkorligini, hayot hodisalarini nihoyatda chuqur bilishini namoyish qilgan edi”[3]. Aynan, "Vaqt" sheri haqida adabiyot ixlosmandlari tomonidan juda iliq fikrlar bildirilgan va shoirga yana bir bor tan berishgan. XX asr o‘zbek she‘riyatida G‘afur akaga yetkazib, “eng kichik zarradan Yupitergacha ...” deya keng nafasda so‘zlagan boshqa shoir uchramaydi” deb yozgan edi yozuvchi Omon Muxtor [4].

Shu bilan birga, G‘afur G‘ulom Pushkin, Shekspir, Dante, Lermontov, Griboyedov, Nizomiy, Mayakovskiy, Nozim Hikmat, Rustaveli, Bomarshe va boshqalarning asarlarini o‘zbek tiliga mohirona tarjima qilgan va adabiyotda tarjimon

sifatida ham nom qoldirgan.

G'afur G'ulom hikoya va qissalari har bir o'quvchining qalbidan joy olgan. "G'afur akan kulgi hikoyalar ustasi sifatida nom chiqargagan edi. O'ttiz ikkinchi yilda "Netay" qissasini yozdi. Ana shundan keyin uning faqat kulgili voqealarni tasvirlash bilan chegaralanmay, insondagi kuchli psixologik xolatlarni tasvirlashga ham nihoyatda ustaligi ma'lum bo'ldi. "Soyalar" hikoyasi undagi shu hissiyotni yaqqol ko'rsatdi. O'ttiz oltinchi yilga kelib u birdan ikki katta qissa e'lon qildi. Biri "Yodgor", biri "Shum bola".[5]

"Shum bola" qissasini o'qigan inson qalb kechinmalarida qaysidir ma'noda kontras yuzaga keladi. Chunki bir tarafdin voqealar rivoji, Qoravoyning sarguzashtlari kulgi uyg'itsa, bir tarafdin davr qiyinchiliklari, zamon og'irligi, hali o'yin yoshidagi o'yin bolalarining boshdan kechirganlari qiyinchiliklari, xalqning kambag'allashgani, pul topish ilinjida Qoravoyning qilgan ishlari yurakni ezadi. Bu nodir asar asosida sahnalashtirilgan spektakl va 1977-yil suratga olingan film ham tomoshabinlar qalbidan joy olgan.

G'afur G'ulomning hikoyanavislikdagi mahorati "Jo'rabo'za", "Yigit"(1931), "Kulgi hikoyalar" (1932), "Kim aybdor" (1932), "To'rt xangoma" (1941), "Mening o'g'rigina bolam" hikoyalarida o'z aksini topgan.

Nodir iste'dod sohibi haqida bugungi kunda adabiyotshunoslar tomonidan bir qancha risolalar yaratildi. Jumladan, Professor Hamdam Abdullaevning "G'afur G'ulom va Xorazm", Baxtiyor Nazarovning "G'afur G'ulom olami", Naim Karimov "G'afur G'ulom" nomli va shunga o'xshash ko'plab risolalarda ham adib haqida ma'lumotlar bisyordir.

Xalqning dardini qalban his qilgan yozuvchi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi G'afur G'ulom 60 yillik yubileyi munosabati bilan «O'zbekiston xalq shoiri» faxriy unvoniga sazovor bo'lgan. Bundan tashqari faylasuf shoirga «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berilgan. Bu buyuk siymo yaratgan asarlar adabiyotimizni yorituvchi mash'allardan biridir va har bir o'quvchi G'afur G'ulom asarlarini qunt bilan o'qib, uning tag zamiriga singdirilgan odamiylik, insonparvarlik, tinchliksevarlik kabi g'oyalarni targ'ib qiladi deb o'ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad S. "Yo'qotganlarim va topganlarim" 1998. 30-bet
2. Matyoqubova T. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2010 yil, 5-son
.Mazkur Deklaratsiya qoidalari davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan inson huquqlarini buzish uchun ishlatilishi mumkin emas. Har bir shaxs uchun o'zgalarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish jamiyat a'zolarining burchidir. Ushbu Deklaratsiya mustaqil O'zbekiston Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjatdir (1991-yil 30-sentabr). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Inson va fukarolarning asosiy huquklari, erkinliklari va burchlari" deb atalgan 2-bo'limi mazkur Deklaratsiya talablariga to'la moye bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqe'idan qat'i nazar, qonun oddida tengligi ta'kidlangan. Respublikada inson huquqlariga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilingan va ular xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirilgan. "Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili (ombudsman) to'g'risida" qonun qabul qilingan (1997-yil 24-aprel). Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni ta'minlovchi milliy institutlar — Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti ishlab turibdi. Toshkent shahrida hukumatga qarashli bo'lmagan "Human Rayts Votch Xelsinki" xalqaro tashkilotining vakili, chet el ommaviy axborot vositalarining vakillari faoliyat ko'rsatmoqda hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqa o'rnatilgan. Bu normal orqali har bir huquqning muhofazasi belgilanadi har bir inson o'zi va oilasining sihat-salomatligini va farovonligini asrash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga, shu jumladan oziq-ovqat, libos, uy-joy, tibbiy qarov va zarur ijtimoiy xizmat huquqiga hamda ishsiz qolganida, betobligida, nogironligida, beva bo'lib qolganida, qariganida yoki o'ziga bog'lik bo'lmagan holatlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag'i bo'lmay qolganida ta'minlanish huquqiga egadir. Onalik va bolalik alohida vasiylik va yordam huquqini beradi. Nikohda turib tug'ilgan va nikohsiz tug'ilgan barcha bolalar bir xil ijtimoiy muhofazadan bahramand bo'lishlari kerak. Har bir inson jamiyat oldida majburiyat olgan, faqat shu taxlitdagina inson shaxsi erkin va to'la-to'kis kamol topishi mumkin. Har bir inson o'z huquq va erkinliklarining ro'yobga chiqishda shunday cheklashlarga muhtalo bo'lishi mumkinki, bular qonun tomonidan belgilab qo'yilishi hamda bundan muddao — boshqalarning huquqlari va erkinliklari zarur darajada tan olinish va hurmat qilinishi hamda axloq-odobning adolatli talablari ijtimoiy tartib hamda demokratik jamiyatdagi bugungi farovonlikning adolatli talablari qondirilgan bo'lsin. Ana shu huquq va erkinliklarning amalga oshirilishi Birlashgan Millatlar Tashkiloti maqsadlari va prinsiplariga sira zid bo'lmashligi kerakdeb belgilab berilgan. Har bir davlat o'zining huquqiy amaliyotida uning jarayonlarini taminlashga yordam beradi¹. Sh sababli bu normalarning taminlanish jarayonida insonning asosiy huquqlarini naminlash jarayonida barcha choralarni ko'rish va bu huquqlarni a'tiy muhofaza qilinishini talab etadi. bu normani butun jahon hamjamiyati tomonidan

qo'llaniladi. Xalqaro huquqiy hujjatlarning ikkinchisi siyosiy va fuqorolik huquqlar to'g'risidagi pakt bo'lib unga ko'ra **Fuqarolik va siyosiy** _____

1. Danny Danziger & John Gillingham, „1215: The Year of Magna Carta“ (2004 paperback edition) p278

2. Isaac Lewin, The Jewish community in Poland, Philosophical Library, the University of Michigan, 1985 p.19

3. Polnoe naimenovanie na nemeskom yazike: *Dass eine christliche Versammlung oder Gemeine Recht und Macht habe, alle Lehre zu beurteilen und Lehrer zu berufen, ein- und abzusetzen: Grund und Ursach aus der Schrift*

huquqlar xalqaro tan olingan inson huquqlarining ikkita umumiy turidan biri. Ular davlatni himoya qiladi (masalan, adolatli sudlov huquqi, aybsizlik prezumptsiyasi, so'z erkinligi) va davlatdan ma'lum huquqiy hamda siyosiy variantlarni (masalan, ovoz berish huquqi, hakamlar hay'ati tomonidan adolatli sudlov huquqi) taqdim etishni talab qiladi. Ushbu huquqlar Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va Inso huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 1-21-moddalarida belgilangan.

• **Fuqarolik huquqlari** — bu odamlarning davlatda mavjud bo'lish imkoniyati, ularning jismoniy va biologik mavjudligini, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishni tavsiflaydi.

Fuqarolik huquqlari turli jamiyatlarda va turli davrlarda har xil bo'lishi mumkin:

• Qonunni to'g'ri qo'llash huquqi (odil sudlov huquqi),

• Siyosiy va ijtimoiy kamsitishlardan (jinsi, dini, irqi va boshqalar asosida) himoyalaniş huquqi,

• Siyosiy erkinliklar: fikr erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi, shuningdek, jamoat tashkilotlarida ishtirok etish huquqi, saylovlarda ovoz berish yoki saylanish huquqi (saylov huquqi) va boshqalar.

Fuqarolik huquqlari g'oyasi inson huquqlarining an'anaviy tan olinishidan (masalan, qonun oldida tenglik, so'z va vijdon erkinligi) siyosiy (masalan, saylovlarda ovoz berish huquqi) va ijtimoiydir (sog'liqni saqlash, pensiyalar va boshqalar). Jinsi, irqi, ijtimoiy mavqeyi yoki diniga qarab fuqarolik huquqlariga nisbatan har qanday cheklashlar fuqarolik maqomini buzish sifatida baholanadi. Bu esa demokratiya normalariga tamoman ziddir. Bunday harakatlarni amalga oshirish jarayonlarida eng muhim shartlaridan biridir uning amalga oshirish erkinligi shaxsni noqonuniy cheklanishini oldini oladi. Buning huquqbuzarliklar profelaktikasidagi ahamiyati ham shundaki huquqbuzarliklar profelaktikasi jarayonida bu huquqlar also noqonuniy cheklanishi yoxud buzulishiga yo'l qo'ymaslikdadir

Huquqbuzarliklar profelaktikasining xalqaro huquqiy asosining ikkinchi guruhiga 1999-yidagi O'zbekiston Respublikasi va Ozarbijon davlatlari o'rtasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash boirasidagi shartnomalarni misol qilib keltirish mumkin.

Keyingi asosiy huquiy asos bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. Konstitutsiya nafaqat huquqbuzarliklar profelaktikasi balki boshqa barcha huquq sohalari uchun asos bo'lib hisoblanadi. Uning normalari orqali huquqbuzarliklardan insonlar himoyaso davlatning vazifasi bo'lib davlat mexanizmi shu huquqlarni tamnlash uchun ishlaydi X bob. Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari deb atalib unda Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi. Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi. Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli. Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega kabi normalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi kodeklari orasida Jinoyat Kodeksi hamda Mamuriy javobgarlik to'g'risidagi kodejlar alohida o'rin tutadi aynan ularning ishlashi huquqbuzarliklarning bevosita oldini olishga yo'naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. 22-modda. Ma'muriy jazoning maqsadi deb nomlanib unga ko'ra jazoning maqsadi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsni qonunlarga rioya etish va ularni hurmat qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ana shu huquqbuzarning o'zi tomonidan ham, boshqa shaxslar tomonidan ham yangi huquqbuzarlik sodir etilishining oldini olishdir jinoiy jazoning maqsadlari ham shunga yaqindir unga ko'ra 42-modda. Jazo tushunchasi va maqsadlari Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir. Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Keyigi guruh eng muhim guruh hisoblaanib huquqbuzarliklar profelaktikasi to'g'risidagi qonun ham aynan sh guruhga mansub bu guruhagi bir qancca muhimqonunlar mavjud bo'lib ularda huquqbuzarliklar profelaktikasiga alohida to'xtalidi. Bunday qonunlar esa quyidagi turlari mavjud:

-Huquqbuzarliklar profelaktikasini bevosita amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi qonunlar

-Muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarni tarmoqlarni tartibga soluvchi

-Muayyan davlat organing faoliyatini tartibga soluvchi

Huquqbuzarliklar profelaktikasini bevosita amalga oshirish jarayonini tartibga soluvchi qonunlar qatoriga ikki muhim qonunlar Huquqbuzarliklar profelaktikasini to'g'risidagi qonun hamda 2010-yil 29-sentabrdagi voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profelaktikasi to'g'risidagi qonunlardir **voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi** — voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi; **nazoratsiz** — ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan; **qarovsiz** — aniq yashash joyi bo'lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan; **g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar** — voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug'ullanishida ifodalanadigan xatti-harakatlari, shuningdek o'zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari. deb tariflar berilgan.

Muayyan turdagi ijtimoiy munosabatlarni tarmoqlarni tartibga soluvchi qonunlarga 2000-yil 15-dekabrdagi terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonun, 2008-yil 17-aprel sanasidagi Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risidagi qonun, 2018-yildagi Ekstremizga qarshi kurash to'g'risidagi qonun, 2022-yil 31-maydagi Qurol to'g'risidagi qonunlarni misol keltirish mumkin. Yuqoridagi har bir faoliyat ularning tarifi va bu kabi harakatlarning oldini olish ularning qonun hujjatlari bilan belgilab berilgan

Muayyan davlat organing faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar asosan bu faoliyatni bevosita amalga oshiruvchilarning faoliyatini tartibga solishga qaratilgan Bunday normalar

O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son qonuni

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-son Qonunining

O'zbekiston Respublikasi "Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-471-son qonun

O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son qonun

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-son qonun

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi 474-I-son qonun. Bu qonunlarda har bir organning huquqbuzarliklar profelaktikasi borasidagi huquq va majburayatlari yana bir bor mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yagona muvofiqlashtiruvchi organidir bu O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-son Qonuni bilan belgilangan normadir O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-471-son qonunda esa bu faoliyat alohida prinsp sifatida belgila ngan qonunning 10-modda. Huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi ustuvorligi prinsipi bo‘lib Huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi, ularga imkon yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish Davlat xavfsizlik xizmatining jinoyatchilikka qarshi kurashishga doir faoliyatidagi ustuvorligini anglatadi Bojxona organlarihuquq va majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-son qonunning 8-moddasida belgilangan bular:

bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

bojxona to‘lovlari to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

bojxona nazoratini tashkil etishi;

tovarlarni va transport vositalarini olib o‘tish, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tish chog‘ida jismoniy va yuridik shaxslarni ularning huquq va majburiyatlari to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilishi;

o‘z xizmat vazifalarini bajarishi chog‘ida o‘ziga ma‘lum bo‘lib qolgan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma‘lumotlarni oshkor etmasligi;

BEDARAK YO`QOLGAN SHAXSLAR BO`YICHI QIDIRUV ISHLARINI TASHKIL QILISH

*Саъдуллаев Акмал Рустам угли
303 гурух Тезкор кидирув фаолияти*

Annotatsiya. Ushbu maqola bedarak yo'qolganlarni qidirish operatsiyalarini tashkil etishning muhim vazifasini ko'rib chiqadi. Bu qidiruv metodologiyalari bo'yicha mavjud adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi va ularning kuchli va cheklovlarini ta'kidlaydi. Keyinchalik, u strategik rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashtirishni o'z ichiga olgan qidiruv harakatlarini tashkil etishga kompleks yondashuvni taklif qiladi. Usullar bo'limida ushbu strategiyalarni amalga oshirishning amaliy bosqichlari, natijalar bo'limida esa bunday yondashuvlarni qabul qilishning potentsial natijalari muhokama qilinadi. Munozara bo'limi yo'qolgan shaxslarni qidirishdagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar haqida tushuncha beradi, bu esa qidiruv operatsiyalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy xulosalar va tavsiyalarga olib keladi.

Kalit so'zlar: bedarak yo'qolganlar, qidiruv operatsiyalari, tashkilot, strategiyalar, tavsiyalar.

Bir kishi yo'qolgan ketadi qachon, ularni topish uchun zudlik oliy bo'ladi. Bunday sharoitda samarali qidiruv operatsiyalari juda muhim bo'lib, puxta rejalashtirish, muvofiqlashtirish va bajarishni talab qiladi. Biroq, bedarak yo'qolganlarni qidirish ishlarini tashkil etish turli manfaatdor tomonlar va resurslarni jalb qilgan holda murakkab bo'lishi mumkin. Ushbu maqola qidiruv metodologiyalari bo'yicha mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, qidiruv operatsiyalarini takomillashtirish strategiyasini taklif qilish va yo'qolgan shaxslarni topish natijalarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berishga qaratilgan.

Yo'qolganlarni qidirish operatsiyalari bo'yicha mavjud adabiyotlar bir qator metodologiya va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. An'anaviy usullar ko'pincha qidiruv guruhlarini joylashtirish, qidiruv itlaridan foydalanish va dronlar va GIS xaritalash kabi texnologik vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu usullar ko'p hollarda samaradorligini isbotlagan bo'lsa-da, ular cheklovlarga ham ega. Masalan, qidiruv operatsiyalari qo'pol erlarda yoki noqulay ob-havo sharoitida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa er usti guruhlari va texnologik vositalarning samaradorligiga to'sqinlik qiladi.

Texnologiyadagi so'nggi yutuqlar qidiruv operatsiyalari ko'lamini kengaytirdi, yuzni aniqlash dasturi va ijtimoiy media platformalari kabi yangiliklar tobora muhim rol o'ynamoqda. Ushbu texnologiyalar axborotni tez tarqatish imkonini beradi va

qidiruv harakatlarida jamoatchilikni jalb qilishni osonlashtiradi. Biroq, ularning samaradorligi ma'lumotlarga kirish, infratuzilma va jamoatchilik ishtiroki kabi omillarga bog'liq bo'lib, ular mintaqalar bo'yicha farq qilishi mumkin.

Bedarak yo'qolganlarni qidirish operatsiyalarini kuchaytirish uchun strategik rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashtirishni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuv zarur. Birinchidan, strategik rejalashtirish samarali qidiruv strategiyasini ishlab chiqish uchun geografik hududni, demografik profilni va yo'qolish holatlarini baholashni o'z ichiga oladi. Bu yuqori xavfli hududlarga ustuvor ahamiyat berishni, ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyasidan foydalanishni va tegishli idoralar va tashkilotlar bilan aloqa protokollarini o'rnatishni o'z ichiga olishi mumkin.

Resurslarni taqsimlash qidiruv ishlarini tashkil etishning yana bir muhim jihati hisoblanadi. Bunga aloqa vositalari, tibbiy buyumlar va navigatsiya vositalari kabi zarur resurslar bilan jihozlangan o'qitilgan qidiruv guruhlarini joylashtirish kiradi. Bundan tashqari, dronlar va sun'iy yo'ldosh tasvirlari kabi texnologik rivojlanishlardan foydalanish, ayniqsa, qiyin erlarda, er qidiruvlarini ko'paytirishi mumkin.

Qidiruv operatsiyalarining samaradorligi va samaradorligini oshirish uchun manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashtirish zarur. Bu huquqni muhofaza qilish organlari, qidiruv-qutqaruv guruhlarini, jamoat tashkilotlari va ko'ngillilar o'rtasida aniq aloqa yo'nalishlarini o'rnatishni talab qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy media platformalari va jamoatchilikni targ'ib qilish dasturlaridan foydalanish jamoatchilikning xabardorligini va qidiruv ishlarida faolligini oshirishi mumkin.

Yo'qolgan odamlarni qidirish harakatlarini tashkil qilish muvofiqlashtirish, resurslar va hamdardlikni talab qiladi. Mana shunday sa'y-harakatlarni tashkil qilishda tizimli yondashuv:

Buyruq markazini yaratish: barcha qidiruv harakatlari muvofiqlashtiriladigan Markaziy joyni belgilang. Bu jamoat markazi, politsiya bo'limi yoki har qanday mos bino bo'lishi mumkin.

Reja tuzish: aniq vazifalar, qamrab olinadigan sohalar va muddatlar ko'rsatilgan keng qamrovli qidiruv rejasini ishlab chiqish. Yo'qolgan odamning oxirgi ma'lum bo'lgan joyi, jismoniy holati va potentsial xavflari kabi omillarni ko'rib chiqing.

Qidiruv guruhlarini yig'ing: ko'ngillilarni, jamoa a'zolarini va qidiruv-qutqaruv xodimlari, huquqni muhofaza qilish organlari va K-9 bo'linmalari kabi malakali mutaxassislarni jalb qiling. Har bir jamoaning vazifasi uchun to'g'ri o'qitilganligiga va jihozlanganligiga ishonch hosil qiling.

Vazifalarni belgilash: har bir qidiruv guruhidagi rol va mas'uliyatni topshiring. Bunga er qidiruvchilar, navigatorlar, aloqa koordinatorlari va birinchi yordam ko'rsatuvchilar kirishi mumkin.

Texnologiyadan foydalaning: qidiruv samaradorligi va qamrovini oshirish uchun GPS, dronlar va xaritalash dasturlari kabi texnologiyalardan foydalaning. Ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, xabardorlikni tarqatish va ma'lumot to'plash uchun kuchli vosita bo'lishi mumkin.

Hokimiyat bilan muvofiqlashtirish: mahalliy huquqni muhofaza qilish organlari, favqulodda xizmatlar va tegishli organlar bilan yaqindan ishlash. Ularga qidiruv jarayoni haqida muntazam yangilanishlarni taqdim eting va strategiyalar bo'yicha hamkorlik qiling.

Hamjamiyatni jalb qilish: varaqalarni tarqatish, qidiruv guruhlarini tashkil qilish va xabardorlik tadbirlarini o'tkazish orqali jamiyatni safarbar qilish. Odamlarni har qanday tegishli ma'lumot yoki ko'rish haqida xabar berishga undang.

Aloqani saqlash: qidiruv guruhlari, qo'mondonlik markazi va hokimiyat o'rtasida aniq aloqa kanallarini o'rnatish. Taraqqiyot, rivojlanish va xavfsizlik protokollari bo'yicha barcha manfaatdor tomonlarni muntazam yangilab turing.

Maxsus holatlarni ko'rib chiqing: ob-havo sharoiti, erning murakkabligi va shaxsning tibbiy yoki xulq-atvori kabi omillarga asoslangan qidiruv strategiyalarini moslashtiring.

Qo'llab-quvvatlash xizmatlarini taqdim eting: yo'qolgan odamning oilasi va yaqinlari uchun yordam xizmatlarini taklif eting, jumladan maslahat, yuridik yordam va moddiy-texnik yordam.

Hujjat va Sharh: qidiruv ishlarining batafsil yozuvlarini, shu jumladan qamrab olingan joylar, joylashtirilgan manbalar va topilmalarni saqlang. Samaradorlikni baholash va takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash uchun muntazam ravishda xulosalar o'tkazing.

Kuzatish: dastlabki qidiruv yakunlangandan keyin ham, har qanday yo'l yoki ko'rishni kuzatishni davom eting. Yo'qolgan odam holatlari vaqt o'tishi bilan rivojlanishi mumkin va muvaffaqiyatli hal qilish uchun doimiy harakatlar zarur bo'lishi mumkin.

Esingizda bo'lsin, yo'qolgan har bir holat noyobdir va qidiruv jarayonida moslashuvchanlik va hamdardlik zarur. Yo'qolgan odamning ham, qidiruv ishlarida ishtirok etganlarning ham xavfsizligi va farovonligini birinchi o'ringa qo'ying.

Taklif etilayotgan strategiyalar qidiruv operatsiyalarini takomillashtirish uchun istiqbolli yo'llarni taklif qilsa-da, bir nechta muammolar va mulohazalar e'tiborga loyiqdir. Birinchidan, resurs cheklovlari va logistika muammolari keng qamrovli qidiruv strategiyasini amalga oshirishga to'sqinlik qilishi mumkin, ayniqsa resurslar cheklangan sharoitlarda. Bundan tashqari, madaniy, huquqiy va axloqiy mulohazalar mintaqalarda farq qilishi mumkin, bu qidiruv operatsiyalariga moslashtirilgan yondashuvlarni talab qiladi.

Bundan tashqari, texnologiyaning rivojlanayotgan tabiati yo'qolgan odamlarni qidirishda ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklar tug'diradi. Texnologik yutuqlar qidiruv imkoniyatlarini oshirsa-da, ular maxfiylik, ma'lumotlar xavfsizligi va algoritmik tarafkashlik bilan bog'liq tashvishlarni keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni hal qilish qidiruv operatsiyalarida texnologiyadan mas'uliyatli foydalanishni ta'minlash uchun mustahkam me'yoriy asoslar va axloqiy ko'rsatmalarni talab qiladi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, bedarak yo'qolganlarni qidirish ishlarini tashkil etish strategik rejalashtirish, resurslarni taqsimlash va manfaatdor tomonlar o'rtasida muvofiqlashtirishni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Texnologik yutuqlardan foydalanish va tegishli idoralar va tashkilotlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish orqali qidiruv operatsiyalari yo'qolgan shaxslarni topish natijalarini yaxshilash uchun optimallashtirilishi mumkin. Bundan tashqari, doimiy izlanishlar va qidiruv metodologiyasini baholash strategiyalarni takomillashtirish va yo'qolgan shaxslarni qidirishda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Вагин О.А., Исиченко А.П., Шабанов Г.Х. ОРМ и использование их результатов. – М., 2006. С. 6.
2. Чечетин А.Е., Луговик В.Ф. Психологические особенности опроса подозреваемых. – М., 2003.
3. Приказ МВД России от 28 декабря 1994 г. № 437 «Инструкция о порядке использования полиграфа при опросе граждан».
4. Леонгард К. Акцентуированные личности. – Киев, 2002.
5. Букейханов П.Е., Самовичев Е.Г., Жижин Ю.К. Сбор и оценка сведений о без вести пропавших. – М., 2003

ABDULLA AVLONIY VA BEHBUDIY DRAMALARIDA IJTIMOIY HAYOT IN'IKOSI

Xo'shvaqtova Nazira Xayrulla qizi

TDPU 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: M.Omanova

TDPU dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid adabiyotining vakillari tomonidan yaratilgan dramalar va Abdulla Avloniy dramalarida ijtimoiy hayot, Abdulla Avloniy va Behbudiy dramalaridagi o'xshashliklar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jadidlar, Yevropa, ilm-ma'rifat, teatr, drama, ijtimoiy, hayot

Jadid vakillarining yirik namayondalari hisoblangan Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy tomonidan bir qancha dramalar yaratilgan bo'lib, ularning bari jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan va ularning hammasida XX asr hayoti, xalqning ayanchli ahvoli ochiqchasiga tasvirlangan. Bu dramalarni yozishdan maqsad o'sha davrdagi aholining kattagina qismi savodsiz bo'lgan bir paytda jadidlar o'z g'oyalarini xalqqa singdirish uchun ham teatrni tanladilar. Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo'lgan teart san'ati xususida so'z borar ekan, buyuk ma'rifatparvar olim Maxmudxo'ja Behbudiyning "Teart – bu ibratxonadir", – deb aytgan fikrini eslash o'rinlidir. (1: 89-b)

E'tibor beradigan bo'lsak, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan "Padarkush", Abdulla Avloniyning "Biz va siz", "Ikki sevgi", "Portugaliya inqilobi", "Advokatlik osonmi?" kabi dramalari yaratilgan.

Teart so'ziga e'tibor berar ekanmiz, jadidlar nazdida, avvalo, "ulug'lar maktabi", "ibratxona" bo'lib, xuddi maktab va matbuot kabi ma'rifat, ilm olmoq g'oyasining targ'ib etilishi ko'zda tutilgan edi" (2:119-b)

Bu dramalardagi asosiy mavzu Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy ahvol yaqqol tasvirlangan. Abdulla Avloniyning dramalari bunga yorqin misol bo'ladi.

"Advokatlik osonmi?" asarida Yevropada huquqshunoslik bo'yicha o'qigan, yangi fikrli yosh bir musulmon yigit haqida. Ushbu obrazni biz Avloniyning idealidagi obraz deyishiniz mumkin. Yigirma to'rt yoshda bo'lgan, aholining qilgan ishlaridan, o'z haq-huquqini talab qila olmasligidan, o'zlari xatoga yo'l qo'ygan bo'lishiga qaramasdan yordam berishlarini talab qilishidan aziyat chekuvchi obrazdir. Ushbu dramada Turkiston aholisining ayanchli ahvoli tasvirlab berilgan. O'z haq-huquqini bilmagan xalq huquqshunos yigitga barcha ishlarida hal qilib berishini so'rashini aqlga sig'dirish qiyin. Bu bilan o'sha jamiyatidagi aholining dunyoqarashi naqadar past ekanligi namayon bo'ladi.

“Oh, koshki men advokat bo‘lguncha do‘xturlik ilmin tamom qilub, dox’tur bo‘lgan bo‘lsam edim. O‘zim uchun ham yaxshi bo‘lub, xalq uchun ham foydaliroq bo‘lur edi. Men jigarimni xun qilib, o‘qub yotgan vaqtimda ba’zi yor-do‘stlarim menga aytgan edilar: “Sen advokatlikdan ko‘ra do‘xturlikka o‘qig‘ul”. Man o‘ylagan edim, huquqdan mahrum aholi olamdan xabarsiz musulmonlarning oz-moz bo‘lsa-da, qo‘limdan kelg‘oncha huquqlarin himoya qilsam, xalqqa manfaat yetkursam, degan edim. Meni ul umidlarim bo‘shg‘a chiqdi. Mana ko‘rasiz, xalq mandan, man xalqdan bezor bo‘ldim. Emdi ochuq manga ma‘lum bo‘ldiki, umuman, xalq orasinda ilm va ma‘rifat tomir yoyib, madaniyat taraqqiy qilmag‘uncha manga o‘xshash bir ikki odam xalq orasida ishlab, xalqni ko‘zin ochamiz, huquqin mudofaa qilamiz, demak, yerdan turib yulduzlarga qo‘l uzatmoqg‘a o‘xshash xayoliy bir nimarsa ekanligi emdi ochiq va aniq ma‘lum bo‘ldi (3:135-136-b).

Yuqoridagi parchadan ham ko‘rinadiki, xalq orasida ma‘rifat urug‘ini sochmasdan turib, hech qanday maqsadga erishib bo‘lmasligi tasvirlangan.

“Biz va siz” dramasida esa bosh qahramon ziyoli yosh yigit. U ham yevropadan o‘qub qaytgach, eskilikcha turmushga ko‘nika olmayotgan yigit. U dramada ayanchli, muammolar orqali syujet liniyasidagi voqealar fojeaga aylanadi. Yigit va qizning taqdiri ayanchli yakunlanadi. Asarda yigit o‘ziga o‘xshagan ilm-ma‘rifatdan xabari bor qizga uylanishni istaydi. Ammo eskilik sarqitidan chiqolmagan ota-onasi, qarindoshlari o‘zi xohlamagan qizga uylantirishadi. Sovchilikka borganda chiroyli qizni ko‘rsatishadi, to‘ydan so‘ng esa bu fosh bo‘ladi. O‘sha yerdan ham fojia boshlandi deyishimiz mumkin.

Siz...Siz, onalar, xolalar, yangalar meni bu holga soldingiz. Ana boqing, qarang, ko‘ring, insof ko‘zingiz bilan ko‘ring. Ul odam suvratida yasalg‘on hayvon, dev, jin, alvosti. Siz...Siz menga lo‘li eshagini maqtagandek maqtab, olib bergan qizingiz shulmi? yoki sizga boshqa qizni ko‘rsatub, bu badbashara afritsani berib yubordilarmi? Qarang siz insof bilan qarang. Unda odam bolasidan asar ham ko‘rinmaydur-ku. Ox...Koshki meni ixtiyorim o‘zimda bolsa edi, sog‘ bo‘lsam edi, siz bilan munda kirmagan bo‘lur edim (4:167-68).

Dramada oiladagi, butun jamiyatdagi jaholat, ilmsizlik oshkora fosh etiladi. O‘n yil davomida Yevropada taxsil olib kelgan Kamol ham ruhiy va jismoniy ham ma‘naviy tomondan ham barkamol yigit. Tahsili davomida yurtida bo‘layotgan o‘zgarishlardan xursand bo‘lgan, uyga qaytgach, tamoman aks manzarani ko‘rgan va qayg‘uga botgan obraz. “Advokatlik osonmi?” dramasida ham ko‘rishimiz mumkin bu holatni.

Shunday dramalardan yana biri Maxmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” dramasidir. Dramada Boy obrazi orqali pul, mol dunyoga ega bo‘lgan, ammo farzand tarbiyasi va ilmiga e‘tibor bermagan kimsa sifatida tasvirlangan. Boyning eng katta xatosi Ziyoli va Domlarning gapiga quloq solmaganligidir. Asarda Ziyoli va

Domlanning hayot yo‘llari bir-biriga yaqin. Dramatik asar voqealarini ziddiyat shakllantiradi. Bu vaziyatni ilmlilar va ilmsizlar o‘rtasidagi kurash bilan izohlaydi.

“Padarkush” Turkistonni junbushga keltirgan qirg‘in barot inqilob yillarida ham sahnadan tushmadi. Bir tomondan millatni ma’rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o‘ynagan bo‘lsa, ikkinchi yoqdan professional o‘zbek teatri va dramachiligining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim xizmat qiladi (5:166-b).

Behbudiy va A.Avloniy dramalaridagi o‘xshash jihat shundaki, har ikkisi ham asarlarida ilmsizlik, jaholat qoralangan. Xalqni ma’naviyatga chaqiruvchi goyalar ilgari surilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Avloniyning butun hayoti xalqning erkin va faravon, davlatning ozod va obod bo‘lishiga bor kuchini safarbar etgan shoirdir. Avloniy mustaqillikka erishishning birdan bir chorasi xalqni ilm ma’rifatli qilish kerakligini anglagan edi. Shuning uchun ham bor kuchi bilan xalqning ichiga ma’rifat urug‘ini sochishga harakat qildi. Bilardiki, bir kunmas bir kun hosil berishini. A.Avloniyning asarlari hozirgacha o‘z mashhurligini yo‘qotgani yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Avloniy. “Advokatlik osonmi?”. – T.: 135-136-b.
2. A.Avloniy. “Biz va siz”. – T.: 1923. 167-168.
3. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug‘bek Dolimov, Sunnat Axmedov. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma’naviyat, 2004.

ABDULLA AVLONIY IJODIDA VATAN TUYG‘USI

*Xo‘shvaqtova Nazira Xayrulla qizi,
TDPU 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: M.Omanova
TDPU dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Avloniy hayoti, jadidchilik harakatidagi samarali yutuqlari, xalq ta’limi ishlarini yo‘lga qo‘yishida hamda ijodiy meroslarida vatanparvarlik g‘oyalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, madaniyat, vatanparvarlik, “Turkiy guliston yoxud axloq” asari, maorif, ta’lim-tarbiya

*Har g‘amning payoni bordir, har alamning oxiri,
Har zimistonning bahori, har xazonning oxiri.*

(Abdulla Avloniy)

Abdulla Avloniyning adabiyot sohasiga kirib kelishi o‘zbek jadidchiligining yuksalishiga sabab bo‘ldi. Mashhur o‘zbek ma’rifatparvari, milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyotining taniqli vakili, shoir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 7 yoshida O‘qchi mahallasidagi eski maktabga borib, Akramxon domladan savod chiqaradi, uni 90-yilda tugatgach, shu mahalladagi madrasada tahsil olgan. Ilmga bo‘lgan mehri tufayli keyinchalik u Shayxontohurdagi Abdumalikboy madrasasida Mulla Umar Oxunda tahsil oladi. Ammo tirikchilikning og‘irlashuvi o‘qishga imkon bermaydi: “1891-yildan boshlab, faqat qish kunlarida o‘qub, boshqa fasllarda mardikor ishladim”, – deb yozadi. Ko‘p o‘tmay bu ham barham topadi. U butunlay ishga sho‘ng‘ib ketadi, g‘isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug‘ullanadi.

Abdulla Avloniyda she’riyatga oshuftalik bolalik chog‘laridanoq shakllangan bo‘lsa-da, ilk she’riy mashqlari 15-16 yoshlarida yoza boshlaydi. Abdulla Avloniyning she’riyatida millatparvarlik g‘oyasi ilgari suriladi. Biz Abdulla Avloniyning maktab uchun yaratgan to‘rt kitobdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” hamda “Birinci Muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Ikkinchi Muallim”, “Maktab gulistoni” kabi darslik va o‘qish kitoblarida yaqqol sezishimiz mumkin. Shu ma’noda bugungi kunda Abdulla Avloniy yozgan asarlarning bolalar adabiyotida tutgan o‘rni, o‘ziga xos xususiyatlari, muallifning darslik yaratishdagi harakatlari uning ta’lim tarbiya sohasidagi qarashlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langanligi, adibning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy

pedagogikani rivojlantirishdagi qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Abdulla Avloniyning quyidagi fikrlarini ta'kidlab o'tgan edi: "Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan yana bir o'ta muhim masala borki, unga alohida to'xtalib o'tishni zarur deb bilaman. U ham bo'lsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimiz, farzandlarimiz tarbiyasi bilan bog'liqdir. Buyuk bobomiz A.Avloniy aytganidek, bu masala biz uchun haqiqatan ham yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir va o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan, ta'bir joiz bo'lsa, masalalarning masalasidir".

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida "Vatanni suymak" degan bobi bor. Unda yosh qalblarda o'z Vatani Turkistonga bo'lgan muhabbat tuyg'usini mavjga keltiruvchi satrlar bilan to'la. Ushbu asar yozilgan davri -Vatanimiz mustamlaka iskanjasida fojiviy ahvolda edi, kelgindilar oyoq ostida to'ptalgan davrini to'la his qilib, "Vatanni suymak" bobi o'qilsa, Vatan istiqloq ozodligi uchun inson hatto jonini ham fido qilish kerak, degan g'oya singdirib yuborilganligini sezish qiyin emas. Vatan tuprog'i muqaddas, unda ajdodlarimizning hoklari bor, unda kelajak nasllarimizning haqlari bor. Shuning uchun ham Vatanni oddiygina sevish mumkin emas. A.Avloniy Ona Vatanga mehr ko'zi ila boqadi. Vatan tuyg'usi eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatanni shunchaki sevish mumkin emas. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan Onadek muqaddas Avloniy Vatan va uning oldidagi burchini shunday tushunadi.

"Biz turkistonliklar o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi arablar Arabistonlarini, qumlik, issiq cho'llarini, eskimo(s)lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z Vatandarini tashlab, hijrat qilurlar edi. Bobolarimiz "Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l", - demishlar. Muallif o'z fikrini xilma-xil misollar bilan asoslashga harakat qiladi. Masalan, u shunday tamsilni keltiradi: "Ayrim kishilar o'z hovli-joylarini, mol- mulklarini sotib, Makkaga ziyoratga borishadi. Hatto shularning ham aksari yana o'z vatanlariga qaytib keladilar. Buning sababi, ya'ni bularni tortub keltirgan quvvat o'z vatanlari tuproqlarining mehr-u muhabbatidir".

Lavha so'ngida payg'ambarimiz(s.a.v.)ning: "Hubbul - vatani minal-imoni" - "Vatanni suymak imondandur", - degan muqaddas so'zlari keltiradi.

Abdulla Avloniy Vatan haqidagi fikrini o'zining 1916-yilda chop etilgan "Maktab gulistoni" kitobidagi she'rlarida davom ettiradi. Kitobdagi "Vatan" she'ri juda ham mashhur. Bu she'rida ona-yurtning noz-ne'matlarini, uning betakror boyliklarini ta'riflashga harakat qiladi. Vatanni onaga qiyoslaydi. O'z onasini ardoqlagan, uni

himoya qila olgan bolagina Vatanini ham yovuz kuchlardan himoya qila oladi degan fikrini asari orqali ilgari suradi.

Onamizsan! Bizning mushfiq onamizsan!
Javlon urib yashaydurgon xonamizsan!
Seni sotmoq mumkinmidur o‘zing o‘yla
Tiling bo‘lsa, hasratlaring tuzuk so‘yla.
Sotib-sotib qoladurmiz g‘amga botib,
Boyqush kabi vayronada yotib-yotib.

Bu o‘rinda shoir o‘tmishda Ona Vatanimizning jaholat botqog‘iga botganidan afsus-nadomatlar chekib, Vatanimiz tobora vayronaga aylanayotganini, ilm-ma‘rifatga oshno qalblargina bunday balodan yurtni qutqarib qolishini ta‘kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Shuningdek, Abdulla Avloniy ijodiy merosi bilan ilk darsliklarning mukammal yaratuvchisi sifatida gavdalanganligi, asarlarida ta'lim - tarbiya, Vatanga muhabbati, mavzu dolzarbligi, serqirra ijodkor Avloniyning ijodida bugungi kunning eng muhim masalasi-ta'lim va tarbiyaga doir fikrlarining dalili hikoyalar, she'riy lavhalar misolida ochib berilishi orqali ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 593 b.
2. A.Avloniy. Toshkent tongi. – T.: 1979. 373-bet.
3. S.Axmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot (5-sinf darslik). – Toshkent: Sharq, 2020.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	O'ZBEKISTONDA MILLIY DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINING YANGI BOSQICHIGA KO'TARILISHI	3
2	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA OT SO'Z TURKUMI	7
3	TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA SAMARADORLIGIGA ERISHISH	12
4	IQTISODIYOTNING REAL SEKTORINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI	15
5	YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA MAMLAKATIMIZ YOSHLARINING O'RNI	20
6	ВОЗМЕЩЕНИЕ УЩЕРБА, ПРИЧИНЕННОГО ЗАКЛЮЧЕННЫМИ, СБЕЖАВШИМИ ИЗ ИСПРАВИТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ	25
7	DALA QIRQBO'G'IMI (EQUISETUM ARVENSE L.) NING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA ISHLATILISHI	28
8	EKOLOGIK TURIZMNING VUJUDGA KELISH QONUNIYATLARI VA TENDENSIYASI	31
9	ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ТРЕВОЖНОСТИ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	34
10	ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СИСТЕМЫ В МОДЕРНИЗАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА	37
11	ИҚТISODIЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ (НАМАНГАН ВИЛЮЯТИ МИСОЛИДА)	40
12	O'ZBEKISTONDA TURIZMNING SALOHİYATI	46
13	O'ZBEKISTONDA TURIZMNI IQTISODIYOTGA TA'SIRI	50
14	DORIVOR QASHQARBEDA (MELILOTUS OFFICINALIS) O'SIMLIGINING TARQALISHI VA KO'PAYTIRISH USULLARI	54
15	ФАРФОНА ШАХРИ ХУДУДИДА ТАРҚАЛГАН ҚИЗИЛ ТАСМА (POLYGONUM AVICULARE) ЎСИМЛИГИНИНГ КИМЁВИЙ ТАРҚИБИ ВА ДОРИВОРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ	56
16	KOVRAK O'SIMLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING TURLARI	61
17	ПРОЕКТИРОВАНИЕ ТРАНСПОРТНОГО СРЕДСТВА	65
18	СПОСОБЫ СНИЖЕНИЯ ВЫБРОСОВ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ	69
19	INJEKTORNING VAZIFASI VA ISHDAN CHIQUISH SABABLARI	74
20	ЭЛЕМЕНТЫ ПАССИВНОГО БЕЗОПАСНОСТИ АВТОМОБИЛЯ	79
21	МАТЕМАТИКА FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH	85
22	INGLIZ VA O'ZBEK TILARIDA SOMATISM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TADQIQI	88
23	BUTUNDUNYO POCHTA ALOQALARI TARIXIDA XIZMAT TURLARI RIVOJI	91

24	IRSIYAT QONUNIYATLARI USTIDA OLIMLARNING OLIB BORGAN TADQIQOTLARI	95
25	ENERGETIKA TIZIMINING BOSHQA TIZIMLAR BILAN BOG‘LIQLIGI VA ENERGIYA SAMARADORLIK ASOSLARI	99
26	OQSILLARNING ORGANIZMDAGI ASOSIY O‘RNI	103
27	G‘AFUR G‘ULOMNING HAYOT YO‘LI VA ASARLARI HAQIDA	106
28	MANAS AND KYRGYZ VALUE	109
29	TRANSLATION CHALLENGES ACROSS CULTURES: NAVIGATING LINGUISTIC AND CULTURAL DIFFERENCES	112
30	HISTORICAL AND POLITICAL IMPLICATIONS IN TRANSLATION	117
31	TRANSLATING TECHNICAL AND SPECIALIZED TERMINOLOGY	123
32	INGLIZ TILIDAGI FITONOMIK KOMPONENTLI MAQOLLARNING O‘ZBEK TILIDAGI TARJIMASIDA SINTAKTIK XUSUSIYATLAR	128
33	FUNDAMENTAL DEVELOPMENT ASPECTS OF DIGITAL ECONOMY AND TECHNOLOGY	133
34	RAQAMLI IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYANI RIVOJLANISH ASOSLARI	137
35	INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA ANEMONIM HODISALARINING TARJIMASI BORASIDAGI TUSHUNCHALAR	140
36	THE FORMATION OF THE PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC VIEWS OF THEODORE DREISER, A PROMINENT REPRESENTATIVE OF NATURALISM	144
37	ИРОНИЯ КОНТРАСТОВ И ПРОТИВОРЕЧИЙ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ СИСТЕМЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ («ФИНАНСИСТ»)	149
38	DEGRADATION OF HUMAN VALUES IN "AN AMERICAN TRAGEDY" BY THEODORE DREISER	153
39	INGLIZ FRAZEOLOGIZMLARINING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI	161
40	BIOLOGICAL ACTIVITY OF SOILS FORMED IN THE BUKHARA DISTRICT	168
41	SHOFIRKON DISTRICT IS AN AGROPHYSICAL PROPERTY OF SOILS THAT HAVE BEEN IRRIGATED SINCE ANCIENT TIMES	173
42	METHODS OF INCREASING THE FERTILITY OF SANDY DESERT SOILS OF THE SHOFIRKON	178
43	SOFT POWER AND STRATEGIC DISCOURSE: THE FUNCTION OF LANGUAGE IN INTERNATIONAL DIPLOMACY	183
44	BANK SPECIALIZATION MORTGAGE LENDING AND HOUSE PRICE	190
45	PERSONAL INCOME TAX AND CORPORATE INNOVATION: THE KEY ROLE OF INVESTOR’S FINANCIAL INSENTIVES	195
46	CENTRAL BANK POLICIES AND FINANCIAL MARKETS: LESSONS FROM THE EURO CRISIS	200
47	XAVFSIZ TARMOQ TEXNOLOGIYALARI, LI-FI TEXNOLOGIYASI MISOLIDA, MOHIYATI VA AFZALLIKLARI	204
48	INFLUENCE OF MANAGEMENT ORGANIZATIONAL STRUCTURE ON EFFICIENCY	207
49	STYLISTIC USE OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN MEDIA DISCOURSE	211

50	“IHYO ULUM ID-DIN” ASARINING 3-JILDI TAHLIL VA TALQINLARI	219
51	ELEKTRON TIJORAT SOHASIDA DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA ULARNI RAQAMLI VOQELIK SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH	223
52	ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINING SOLIQQA TORTILISHINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH	229
53	ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ФИРИБГАРЛИК ЖИНОЯТЛАРИ ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ	232
54	TEZKOR XIZMATLAR TOMONIDAN AMALGA OSHIRILADIGA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI FAOLIYATI	238
55	BEDARAK YO`QOLGAN SHAXSLAR BO`YICHI QIDIRUV ISHLARINI TASHKIL QILISH	247
56	ABDULLA AVLONIY VA BEHBUDIY DRAMALARIDA IJTIMOY HAYOT IN`IKOSI	251
57	ABDULLA AVLONIY IJODIDA VATAN TUYG`USI	254

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

